

## SITOLOGIYA

1. 42 yoshli bemorning tashhisini aniqlashtirish maqsadida uning jigari biopsiya usulida tekshirildi. Tekshiruv natijasida gepatotsitlar sitoplazmasi bazofiliyasining ortgani aniqlandi. By holat hujayralarda qaysi jarayonning kuchaygani haqida dalolat beradi?  
Javob: oqsil biosintezini
2. 67 yoshli ayolning bachadonidagi o'sma olib tashlandi. Gistologik tekshiruv natijasida o'sma hujayralarida ko'p qutbli mitozlar, ya'ni ikki qutbga emas bir qancha qutbga tarqalish holati kuzatilgan. Qaysi organellalarning tuzilishida o'zgarishlar ro'y bergan?  
Javob: sentriolalar
3. Bemorning qonida albymin va fibrinogenning miqdori kamligi aniqlandi. Jigar hujayralari qaysi organellari faoliyatining pasayishi ushbu holatga olib kelishi mumkin?  
Javob: granulyar endoplazmatik to'r
4. Tajriba hayvonining hujayrasiga kuchli darajada rentgen nurlari ta'sir qilindi. Buning natijasida sitoplazmada oqsil fragmentlar hosil bo'ldi. Ulardan halos bo'lish qaysi organella yordamida amalga oshiriladi?  
Javob: lizosomalar
5. Odamda galaktozemiya – to'planish xastaligi aniqlandi. Hujayrada qaysi struktyrning o'zgarishi ushbu holatga olib keldi.  
Javob: lizosoma
6. Gialin tog'ay to'qimasining elektronmikroskopik tekshiruvda sitoplazmasida kuchli rivojlangan donador endoplazmatik to'r, Golji kompleksi tutuvchi hujayralar aniqlandi. Ushbu hujayralar qanday vazifasini bajaradi?  
Javob: oraliq modda sintezlash
7. Hujayra plazmolemmasiga kimyoviy faktor ta'sir qilindi. Natijada hujayra o'z shaklini o'zgartirdi. Bunda plazmolemmaning qaysi qavati ishtirok etdi?  
Javob: glikokaliks
8. Tajriba sharoitida epiteliotsitlar orasida zich kontaktlar shikastlangan. Bunda epiteliyning qanday vazifasi buziladi?  
Javob: mexanik
9. Elektronogrammada ko'rsatilgan hujayraning tarkibida yadrocha va yadro qobig'i yo'q. Xromosomalar erkin joilashgan, sentriolalar qutblarga tarqalgan. Ushbu hujayra hujayra siklining qaysi bosqichida turibdi?  
Javob: profazada
10. Ilmiy tajriba davomida tajribakor hujayra strukturalarning birini shikastladi, bunda hujayraning bo'linish xususiyati buzildi? Qaysi struktura shikastlangan?  
Javob: sentrosoma
11. Tajribada hujayraga uning sitolemmasini tarkibiga kiruvchi oqsillarning konformatsiyasini shikastlovchi moddalar ta'sir qilindi. Bunda hujayra yuzasini qaysi vazifalari buziladi?  
Javob: transport va retseptor
12. Ilmiy tajriba davomida tajribakor hujayra strukturalarning birini shikastladi, bunda hujayraning hujayralararo kontaktlarni hosil qilish xususiyati buzildi. Shikastlangan tuzilmaning nomi:  
Javob: glikokaliks
13. Preparatda kubsimon, silindrsimon, yumaloq, duksimon va o'simtali hujayralar ko'rinmoqda. Hujayralardan qaysi biri qisqarish vazifasini bajaradi?  
Javob: Duksimon hujayra.

14. Elektron mikrofotografiyada ikki xil hujayra berilgan. Birinchi hujayraning apikal yuzasida ko'plab sitoplazmaning barmoqsimon o'simtalari bor. Ikkinchi hujayraning apikal yuzasi silliq. Hujayralarning qaysi birida endotsitoz jarayoni aktiv kechadi?  
Javob: Birinchi hujayrada endotsitoz aktiv kechadi.
15. Xujayra plazmolemmasi ostida ko'plab mayda oqish pufakchalar aniqlanmoqda. Bular qanday strukturalar va qanday jarayon bilan bog'liq?  
Javob: Pinotsitoz pufakchalar. Ular endotsitoz jarayoni bilan bog'liq.
16. Ikkita aktiv biologik membranalar berilgan. Bittasida polisaxaridlardan tuzilgan glikokaliks qavati bor. Ikkinchisida bu qavat yo'q. Bu biologik membranalarni qaysi biri sitolemma xisoblanadi?  
Javob: .Glikokaliks qavatini saqlagan biologik membrana.
17. Jigar xujayralarida glikogen depo xolatida to'planadi. Bu xujayralarda qaysi organoidlar yaxshi rivojlangan?  
Javob: Silliq endoplazmatik to'r, Golji apparati, mitoxondriyalar.
18. Xujayralar to'plami rentgen nurlari ta'sirida shikastlandi. Yuqori nurlanish ta'sirida xujayra sitoplazmasida ko'p miqdorda vodorod perioksid xosil bo'ldi. Vodorod perioksidni zararsizlantirishda qaysi organoidlar aktiv ishtirok etadi?  
Javob: Peroksisomalar, katalaza va peroksidaza fermentini saqlaydi.
19. Elektron mikrofotografiyada mikronaychalarni ko'ndalang kesimida triplet va dupletlar ko'rinadi. Mikronaychalar qaysi strukturalarga tegishli?  
Javob: Tripletlar sentriola va bazal tanachaga tegishli, dupletlar esa - xivchinlar va kiprikchalarga tegishli.
20. Elektronogrammada ikkita sekretor xujayra berilgan: birida donador endoplazmatik to'r, Goldji apparati, sitoplazmada ko'plab polisomalar bor. Ikkinchisida silliq endoplazmatik to'r va Goldji apparati yaxshi rivojlangan. Bu xujayralar qanday sekret ishlab chiqaradi?  
Javob: Birinchisi oqsil tabiatli sekret, ikkinchisi polisaxarid yoki lipid tabiatli sekret ishlab chiqaradi.
21. Elektron mikroskopda xujayrada mitoxondriyalarni destruksiyasi aniqlandi. Xujayrada qanday jarayonlar buziladi?  
Javob: Energetik jarayonlar.
22. Tajribada xayvonga uzoq vaqt davomida uyqu dori berildi. Jigar xujayralarini qaysi organoidi aktiv ishlaydi?  
Javob: Silliq endoplazmatik to'r, mikrosomal oksidaz tutuvchi sistema saqlaydi. Vazifasi: dezintoksikatsion.
23. Elektronmikroskopda ko'rilganda xujayrada lizosoma membranasini butunligini buzilishi va fermentlarni sitoplazmaga chiqishi aniqlandi. Bu xujayralarda qanday o'zgarish bo'ladi?  
Javob: O'z- o'zini xazm qilish natijasida xujayralar nobud bo'ladi.
24. Elektron mikroskopda xujayralarda ko'p miqdorda autosomalar aniqlandi. Xujayralarda qanday jarayon sodir bo'lmoqda?  
Javob: Organoidlarni qisman parchalanish jarayoni.
25. Preparatda ikki xil xujayra ko'rinmoqda. Birida yadrosida intensiv bo'yalgan xromatin ipchalari bor. Ikkinchisida yadro oqish, xromatin diffuz tarqalgan. U yoki bu hujayralarda xromatinning qaysi tipi aniqlanadi?  
Javob: Geteroxromatin yoki euxromatin. Ikkinchisi jadal ish bajaruvchi xujayra.
26. Preparatda xromosomalar hujayraning markazida aniqlanganligi ko'rildi, xromosomalar yulduzsimon shaklga kirgan. Mitoz bosqichini ayting.

Javob: Metafaza.

27. Preparatda xromosomalari qiz yulduzlari shaklidagi xujayralar ko'rinmoqda. Mitoz bosqichini ayting.

Javob: Telofaza.

28. Preparatda sitoplazmada tartibsiz kondensatsiyalangan xromosommalar tutuvchi xujayralar ko'rinmoqda. Mitoz bosqichini ayting.

Javob: Profaza.

29. Mitoz xolatidagi hujayraga bo'linish duklarini uzuvchi preparat ta'sir qildirildi. Bu nimaga olib keladi? Xujayraning xromosoma to'plami qanday bo'ladi?

Javob: Anafaza va telofaza kuzatilmaydi. Xujayra xromosoma to'plami tetraploid.

30. Ikkita qon surtmasi berilgan. Birinchisida -neytrofillarda jinsiy xromatin baraban tayoqchasi ko'rinishida yadroning bir segmentida joylashgan. Ikkinchi surtmada jinsiy xromatin aniqlanmadi. Surtmalardan qaysi biri ayol qonidan tayyorlangan?

Javob: Jinsiy xromatin saqlagan qon surtmasi ayolga tegishli.

31. Pigment xujayralarning sitoplazmasida quyosh nurlari ta'sirida pigment donachalari xosil bo'ldi. Donachalar xujayraning qaysi strukturasi kiradi?

Javob: Pigment kiritmalari (melanin pigmenti).

32. Me'da osti bezi xujayralarining apikal qismida sekretor sikl jarayoni natijasida sekret donachalar gox paydo bo'lib gox yo'qoladi. Sekret donachalarni xujayraning qaysi strukturasi kiritish mumkin?

Javob: Sekretor kiritmalar.

33. Ma'lumki, xujayra sitoplazmasida organellalar doimo xarakatda bo'ladi. Xujayraning qanday strukturalari bunda ishtirok etadi?

Javob: Mikrofilamentlar va mikronaychalar.

34. Ma'lumki, ba'zi xujayralar xarakatlanish qobiliyatiga ega. Xarakatlanish qobiliyatiga ega bo'lgan xujayralar nima xosil qiladi?

Javob: Pseudopodiya.

35. Elektronmikroskopda xujayra tekshirilganda uning bir yuzasida kiprikchalar, bir yuzasida esa desmosomal borligi aniqlandi. Xujayraning qaysi yuzasi erkin, qaysi yuzasi kontakt qiluvchi xisoblanadi?

Javob: Kiprikchalar tutuvchi yuzasi - erkin, desmosoma xosil qilgan qismi kontakt qiluvchi.

36. Ichaklarning ichki yuzasi jiyakli epiteliy xujayralar bilan qoplangan. Ba'zi kasalliklarda jiyaklar shikastlanadi. Bu xolatda xujayralarning qaysi vazifasi buziladi?

Javob: So'rish funksiyasi.

37. O'lchami 0,2 mkmdan kichik, 100 nm katta bo'lgan strukturalarni tekshirish kerak bo'lib qoldi. Yorug'lik mikroskopini qanday usulidan foydalanish mumkin?

Javob: Ultrabinafsha mikroskopiya.

38. O'lchami 0,1 mkmdan kichik, 100 nm katta bo'lgan strukturalarni tekshirish kerak bo'lib qoldi. Mikroskopiyaning qanday usulidan foydalanish mumkin?

Javob: Elektron mikroskopiya.

39. Ma'lumki, xujayra tarkibida turli xil organik moddalar bo'ladi. Buni qanday usullar bilan aniqlash mumkin?

Javob: A) sitoximiya usuli, b) sitofotometriya usuli.

40. Preparatda (bo'yalishi: gematoksilin-eozin) xujayralar ko'rinmoqda, ularning sitoplazmasi:a) bazofil;b) oksifil.

Sitoplazmaning bo'yalishiga qanday moddalar ta'sir qiladi?

Javob: A) sitoplazmatik RNK, b) sitoplazmatik oqsillar.

41. Xujayradan tashqarida ionlar konsentratsiyasi xujayra ichiga qaraganda kam. Bu xolatda xujayra ichiga ionlar kirishi mumkinmi? Kirishi mumkin bo'lsa, qanday mexanizm orqali amalga oshiriladi?

Javob: Aktiv transport.

42. Elektron gistoximiya usuli yordamida jigar xujayralari (gepatotsitlar) sitoplazmasida rozetkasimon glikogen saqlovchi sirukturalar borligi aniqlandi. Bu strukturalar qanday nomlanadi?

Javob: 31 Kiritmalar.

43. Xujayraga sitolemmasidagi oqsillarni konformatsiyasini o'zgartiruvchi moddalar bilan ishlov berildi.Xujayra membranasini qaysi funktsiyasi buziladi?

Javob: Transport va retseptor.

44. Uchta preparatda xujayralar berilgan. Bittasida mikrovorsinkalar,ikkinchisida kiprikchalar, uchinchisida uzun o'simtalar rivojlangan.Xujayralardan qaysi biri oziq moddalarni so'rish qobiliyatiga ega?

Javob: Mikrovorsinkalari bor xujayra.

45. Xujayraning erkin yuzasida ishqoriy fosfatazaning yuqori aktivligi aniqlandi. Bu xujayralarning yuzasi elektron mikroskopda qanday ko'rinadi?

Javob: Mikrovorsinkalar tutadi .

46. Turli xujayralar mikroskopda tekshirilganda ba'zi xujayralarda yakka-yakka joylashgan mikrovorsinkalar uchraydi, ba'zi xujayralarda ko'plab tartibli joylashgan mikrovorsinkalar jiyak xosil qiladi. Jiyakli xujayralarni vazifasini ayting.

Javob: Jiyakli xujayralar so'rish vazifasini bajaradi.

47. Odam og'ir metall tuzlari bilan zaxarlandi. Jigar xujayralari lizosomalari membranalarini butunligi buzildi.Bu xolatda xujayralarda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?

Javob: Autoliz kuzatilib, xujayralar nobud bo'ladi.

48. Terining shikastlangan qismida ko'plab birlamchi, ikkilamchi lizosomalar, fagosomalar tutuvchi xujayralar to'plandi. Bu xujayralarni vazifasini ayting.

Javob: Ximoya, fagotsitozda ishtirok etadi.

49. Xujayraning silliq endoplazmatik to'rida sisterna va kanalchalar soni ko'paydi. Xujayrada qaysi moddalar sintezi kuchaydi?

Javob: Lipidlar va uglevodlar.

50. Xujayra markazidan manipulyator yordamida sentriola olib tashlandi. Bu xolat xujayraga qanday ta'sir qiladi?

Javob: Mitoz qobiliyatini yo'qotadi.

51. Manipulyator yordamida xujayradan Goldji kompleksi olib tashlandi. Bu xolat xujayraga qanday ta'sir qiladi?

Javob: Uglevodlar sintezi, lizosomalarni xosil bo'lishi, sekretor maxsulotlarni to'planishi, yetilishi va xujayradan tashqariga chiqarilishi buziladi.

52. Xujayra yadrosi oqsillar- gistonlarni parchalovchi preparat bilan ishlov berildi. Qanday strukturalar birinchi navbatda shikastlanadi?

Javob: Xromatinstrukturasi buziladi.

53. Odam va gorilla maymunining kariotipi tekshirilganda ikki tip xujayralar aniqlandi. Bittasi 46 xromosoma tutsa, ikkinchisi 48 xromosoma tutadi. Bu xujayrlardan qaysi biri odamga tegishli?  
Javob: 46 xromosomal xujayra.

54. Tekshiruv uchun og'iz bo'shlig'i epiteliysidan xujayralar olinib, ulardan preparat tayyorlandi. Xujayralar yadrolarida jinsiy xromatin yo'qligi aniqlandi. Tekshirilayotgan xujayralar qaysi jinsga tegishli?  
Javob: Erkak jins.

#### ODAM EMBRIOLOGIYASI

55. Embriogenezning 6-7 kunida pusht bachadon nayining bir qismiga yopishdi. Bunday noto'g'ri rivojlanishda qanday jarayon yuzaga keladi.  
Javob: Xorion vorsinkalari bachadon nayining yupqa devorini yemiradi va truba yorilib, qorin bo'shlig'iga qon quyiladi. Pusht nobud bo'ladi.

56. Homilador ayolda toksikoz paytida vaqtdan oldingi yo'ldosh ko'chishi kuzatilishi mumkin. Yo'ldosh ko'chishi oqibatida pusht odatda nobud bo'ladi. Pusht nobud bo'lishiga saba nima?  
Javob: Pushtning kislorod, ozuqa moddalari bilan ta'minlanishi va metabolizm mahsulotlarining chiqarilishi buziladi

57. Yallig'lanish natijasida ayolda ikkita tuxum yo'llarinnig obliteratsiyasi (nay bo'shlig'ining yopilishi) kuzatilgan. Bu holatda urug'lanish jarayoni sodir bo'lishi mumkinmi?  
Javob: Mumkin emas.

58. Odamning tuxum hujayrasidan tayyorlangan gistologik preparatda, sitoplazmasida kam miqdorda nuqtali, bir tekisda tarqalgan kiritmalarni tutadi. Bu qaysi tipdagi tuxum hujayra?  
Javob: Ikkilamchi izoletsital.

59. Odamda ikkinchi maydalanishdan keyin uch xil kattalikdagi blastomerlar hosil bo'lgan. Zigotaning maydalanish turini aniqlang.  
Javob: to'liq asinxron notekis.

60. Maydalanish natijasida och va to'q blastomerlar hosil bo'lgan. Qaysi blastomer embrioblast rivojlanishi manbasi bo'lib hisoblanadi?  
Javob: To'q blastomerlar.

61. Maydalanish natijasida och va to'q blastomerlar hosil bo'lgan. Och blastomerlar maydalanib to'q blastomerlarining ustini o'raydi. Och blastomerlardan qaysi homila pardasi hosil bo'ladi?  
Javob: Trofoblast.

62. Odam rivojlanishida trofoblastlar rivojlanib, 1-haftada 2 qavatga ajralishi kuzatiladi. Bu qavatlar qanday ataladi va qanday gistologik strukturalardan tashkil topgan?  
Javob: Ichki qavat - sitotrofoblast, bir qavatli kubsimon epiteliydan tashkil topgan, tashqi qavat - simplastotrofoblast, simplastdan tashkil topgan.

63. Odam pushtining implantatsiyasining boshlanishi aniqlangan. Pusht qaysi bosqichda? Pushtning muddati?  
Javob: Blastotsista bosqichida. 7 sutkalik.

64. 14 kunlik odam pushtining kesmasidan preparat tayyorlanganda, pusht bo'shlig'ida 2 ta pufakchalar ko'rinayapti. Bu pufakchalar qanday nomlanadi? Ularning tegib turgan devorlardan qanday homila varaqlari hosil bo'ladi?  
Javob: Amniotik va sariqlik pufakchalari. Ektoderma va entoderma.

65. Yo'ldoshning homila va ona qismidan preparat tayyorlangan. Qanday struktur tuzilmalar yo'ldoshning homila qismini tashkil qiladi?

Javob: Amnion parda, xorial plastinka.

66. Preparatda yo'ldoshning ona qismi berilgan, shilliq qavatida och sitoplazmali, yumoloq yadroga ega yirik hujayralar joylashgan. Bu hujayralar nima deb ataladi va qanday vazifani bajaradi?

Javob: Detsidual hujayralar. Trofik vazifani bajaradi.

67. Odam pushtida o'q organlarining rivojlanishi boshlangan. Pusht qanday muddatda?

Javob: 17 sutkalik.

68. Pusht tanasining provizor a'zolaridan ajralish jarayoni kuzatilgan. Bu jarayon qaysi tuzilmaning hosil bo'lishida kuzatiladi va pusht qaysi muddatda?

Javob: Tana burmalarining hosil bo'lishi, embrionniq 22-23 sutkalik muddatida.

69. Odam rivojlanishi natijasida sariqlik tutmaydigan sariqlik xaltachasi hosil bo'ladi. Bu a'zo qanday vazifalarni bajaradi?

Javob: Qon yaratish, gonadoblastlarni hosil qilish.

70. Yangi tug'ilgan chaqaloq birinchi oylarida bir qator infeksiyon kasalliklarga chidamli bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqning immuniteti nimaga bog'liq?

Javob: Onaning immunitetiga. Ona qonidan antitelalarning bola qoniga o'tishi.

71. Vafot etgan ayolning bachadonida tana buklamalariga ega va mezoderma segmentlashgan homila aniqlangan. Homila qaysi muddatda bo'lgan?

Javob: Homila muddati taxminan 20 kunlik bo'lgan, chunki shu muddatda tana buklamalari hosil bo'ladi va mezoderma differensiallashadi.

72. Homiladorlikning birinchi yarmida homilador ayolda kasallik oqibatida sariq tana nobud bo'lgan. Sizning fikringizcha homila nobud bo'ladimi va nima uchun?

Javob: Sariq tanada hosil bo'ladigan gormon - progesteron ajralmasligi natijasida homila nobud bo'ladi.

73. Odamda spermatozoidlar tuxum hujayra tomonga qarab xarakatlanadi. Jinsiy hujayralarning xarakati qaysi jarayonga bog'liq?

Javob: Ijobiy xemotaksis.

74. Odam pushti 2 ta blastomerdan tashkil topgan. Homilaning taxminiy muddati va joylashgan joyini aniqlang.

Javob: Homilaning 3-4 sutkasi, bachadon nayi bo'shlig'i.

75. Odam embrionining implantatsiyasi va keyinchalik rivojlanishi endometriy stromasining transformatsiyasi bilan kechadi. Natijada nima hosil bo'ladi?

Javob: Detsidual qavat hosil bo'ladi.

76. Odam embrionida 7 juft somit aniqlangan. Embrionniq muddati qanaqa?

Javob: 22 sutka.

77. Yangi tug'ilgan chaqaloqda yurak qorinchasi miokard qavatining anomaliyasi aniqlandi. Qaysi embrional ma'nbada sodir bo'lgan o'zgarishlar ushbu patologiyaga olib keldi?

Javob: splanxnotomning vistseral varag'i

78. Tajriba davomida 16 blastomer bosqichida baqaning blastulasidan 1 ta blastomer olib tashlandi. Ajratib olingan hujayra normal rivojlanishda davom etib yangi organizmni paido bo'lishiga sabab bo'ldi. Blastomerlarning qanday muhim xususiyati namoyish qilindi?

Javob: totipotentlik

79. Addison kasalligida teri qoplamalarining giperpigmentatsiyasi kuzatiladi. Bu holatni melanotsitlar va buyrak usti bezlarining bir ma'nbadan hosil bo'lishi bilan tushuntiriladi. Ularning taraqqiyot ma'nbai bu:

Javob: ganglioz plastinka

80. Odam pushtining mikropreparatida ekto- va entoderma qavatli pusht qalqonchasi ko'rinib turibti. Ushbu preparat embriogenezning qaysi bosqichidan tayyorlangan?  
Javob: gastrulyatsiya
81. Yangi tug'ilgan o'g'il bola (10-kunlik) skeleti taraqqiyotining ko'pdan-ko'p nuqsonlari kuztilmoqda. Qaysi embrional kurtakning rivojlanishida buzilish ro'y bergan?  
Javob: mezenxima
82. Odam embriogenezining kritik davrlaridan biri implantatsiya hisoblanadi. Embrioblastda bu boshqichda gastrulyatsiyaning birinchi fazasi kechadi. Bu jarayon qanday usulda amalga oshiriladi?  
Javob: delyaminatsiya
83. Gastrulyatsiya davomida pushtning Genzen tugunchasi yetarli darajada shakllanmagan. Bunda qaysi o'q a'zo taraqqiyotining rivojlanishi sekinlashadi?  
Javob: xorda
84. Jarroxlik muolaja davomida olingan ayolning ichki jinsiy a'zolaridan tayyorlangan mikropreparatida, 2 ta blastomerlardan iborat pusht topilgan. Bu a'zoning nomini ayting.  
Javob: tuxum yolining ampulyar tomoni
85. Pusht qavatlarinig mikroskopik tekshirida horion aniqlandi. Ushbu a'zoning asosiy vazifasi nimadan iborat?  
Javob: ona va homila o'rtasida moddalar almashinuvi
86. Odam pushtining ilk gastrulyatsiyasi davomida embrioblastning delyaminatsiya usuli orqali ikki qavatga ajralishi sodir bo'ladi. Quyida keltirilgan tuzilmalarning qaysi birida nerv nayining kurtagi joylashgan?  
Javob: epiblast
87. Zigotaning maydalanishi blastulaning hosil bo'lish bilan yakunlanadi. Odam pushtiga blastulaning qaysi turi xos?  
Javob: morula
88. Odam blastotsistasining implantatsiyasi boshlangan. Aynan shu davrda embriogenezning qaysi bosqichi ham boshlanadi?  
Javob: gastrulyatsiya
89. "Odam o'z ko'ylagi bilan tug'ildi". Maqolda qanday "ko'ylak" xaqida gap ketmoqda?  
Javob: amnion parda
90. Gastrulyatsiya davomida pusht gistiotrof oziqlanishdan gematotrof oziqlanishga o'tadi. Bu jarayonni birinchi navbatda qaysi tuzilma amalga oshiradi?  
Javob: trofoblast
91. To'qimalarning bir-biriga mos kelishi antigenini bolaga ota va onasidan o'tadi. Ma'lumki, embriogenez davrida ota-ona antigenlarining ekspressiyasi juda erta boshlanadi. Ammo onaning immun tizimi pushtni yo't jism sifatida chiqarib yubormagan. Qaysi provizor a'zo birinchi bo'lib pushtni yo't jism sifatida chiqarib yuborishga to'sqinlik qiladi?  
Javob: horion
92. Urug'lanish qobig'i bilan o'ralgan blastitsistaning trofoblast hujayralarida eritish qobiliyatiga ega fermentlarning sintezi susaygan. Emriogenezning qaysi bosqichi sodir bo'lishi buziladi?  
Javob: implantatsiya
93. Embrional materialda entoderma differentsialanishining buzilgani aniqlandi. Bunda qaysi a'zolarning taraqqiyotida o'zgarishlar vujudga keladi?

Javob: me`da

94. Sut emizuvchilarda va odamda maydalanishning boshidayoq bir xilbo`lmagan oqish va qoramtir blastomerlardan iborat tuzilma hosil bo`ladi. Uning devori bir qavat trofoblast hujayralaridan tuzilgan bo`lib, ichida, qutblardan birida, embrioblast - homila tuguni joylashadi. Tuzilmaning makazida suyuqlik bilan to`lgan bo`shliq bor. Bu:

Javob: blastotsista

95. Avtohalokatda halok bo`lgan ayolning sud-tibbiy ko`rigi davomida jinsiy a`zolarinig birida gastrulyatsiyaning ilk bosqichidagi embrion aniqlandi. Bu a`zoning nomi?

Javob: bachadon

96. Odamning ilk gastrulyatsiyasi davrida ekto- va entodermaning shakllanishi kuzatiladi. Ushbu varaqlar qaysi mexanizm orqali hosil bo`ladi?

Javob: delyaminatsiya

97. Bachadon bo`shlig`ida endometriyga yopishmagan odam embrioni topildi. Embrionning bunday joilashishi qaysi bosqichga to`g`ri keladi?

Javob: blastotsista

98. Birinchi kritik davrda bachadon nayida no`malum sabablarga ko`ra pushtning urug`lanish qobig`ining erib ketgan. Bunda nima sodir bo`ladi?

Javob: blastotsista bachadon nayiga implantatsiya qiladi

99. Ayol jinsiy yollari bo`ylab spermatozoidlar tuxum hujayrasi tomon oqimga qarshi harakat qilmoqdalar (urug`lanishning distant bosqichi). Ushbu harakat yonalishinig turini ko`rsating:

Javob: reotaksis

100. Odam emriogenezinig 20 kunida pustning provizor a`zoldan ajrala borishi sodir bo`ladi. Ushbu jarayon nimaning hosil bo`lishidan boshlanadi?

Javob: tana buklamasi

101. Bir qator gormonlar hosil qilishi bilan yoldosh vaqtinchalik endokrin bez vazifasini bajaradi. Implantatsiya boshlanganidan keyin 3-4 kunlarda ayolning qonida qanday gormon aniqlanadi? Ushbu gormon homiladorlikni aniqlashda test sifatida qo`llaniladi. Bu:

Javob: xorionik gonadotropin

102. Yangi tug`ilgan chaqaloqqa ko`kimtir asfiksiya tashxisi qo`yildi. Tug`ilish paytida onadan homilaga qon olib keluvchi qaysi qon tomiri qattiq siqilgan?

Javob: kindik venasi

103. Preparatda spermatozoid bilan urug`lanayotgan ovotsit ko`rinmoqda. Urug`lanishning asosiy natijasi nimadan iborat?

Javob: zigotaning hosil bo`lishi

104. Gistologik preparatda ichak nayi bilan bog`langan pufakcha shakldagi homiladan tashqari a`zo ko`rinmoqda. Uning devori ichki tomondan epiteliy, tashqi tomondan esa biriktiruvchi to`qima bilan qoplangan. Embriogeneznig dastlabki paytida u qon yaratuvchanlik vazifasini bajaradi. Bu a`zoning nomi:

Javob: sariqlik qopi

105. Implantatsiya jarayoni 2 bosqichda amalga oshiriladi: adgeziya va invaziya. Blastotsista adgeziyasi quyidagidan iborat:

Javob: blastotsistaning endometriyga yopishishi

106. Embriogenez davomida trofoblastdan endokrin vazifani bajaruvchi a`zoning kurtagi hosil bo`ladi. Ushbu a`zoning nomi?



Javob: so'rg'ichli xorion

107. Ikkita blastomerdan tashkil topgan odam embrioni aniqlandi. Normal rivojlanishda uning joylashuvi o'rnini ko'rsating?

Javob: bachadon nayi\*

108. Odam pushti rivojlanishining ilk bosqichida birlamchi ichak ventral devorida amniotic oyoqchaga o'sib kiruvchi barmoqsimon o'simta hosil bo'ladi. Ushbu provizor a'zoning nomi nima?

Javob: allantois

109. Gistologik preparatda asosini shilliq to'qima hosil qilgan, ikkita arteriya va bitta vena tutuvchi a'zoning ko'ndalang kesimi keltirilgan. Bu a'zo?

Javob: kindik tizimchasi

110. Embriogeneza birlamchi ichakning oldingi bo'limi shikastlandi. Buning natijasida qaysi joida anomaliya hosil bo'lishi mumkin?

Javob: og'iz bo'shlig'i a'zolari

111. Homila kindigining siqilishi sodir bo'ldi, ammo ona va bola o'rtasida qon aylanishi buzilmagan. Bu qaysi tuzilmalar hisobiga amalga oshirildi?

Javob: shilliq to'qima

112. Homilador ayol gastrulyatsiyaning ilk bosqichi paytida gripp kasalligini boshdan kechirdi. Bu qanday asoratlarga olib keladi?

Javob: ekto- va entodermaning hosil bo'lishini buzilishi

113. Pusht implantatsiya bo'lishi uchun bachadonning endometriy qavatida o'ziga hos o'zgarishlar kuzatilganda amalga oshadi. Bu holatda bachadonning endometriysida qaysi xujayralarning soni ortadi?

Javob: Detsidual

114. Gormonlar ishlab chiqishi tufayli ,yo'ldosh endokrin organ ham hisoblanadi. Implantatsiyaning 3-4 kunidan boshlab ayol organizmida qaysi gormonning miqdori ortib boradi ,uning tibbiyotdagi ahamiyati?

Javob: Xorio gonadotropin

115. Mexanik shikastlanishdan so'ng,erkak kishining egri-bugri kanalchalarining devorining butunligini buzilishi kuzatilgan. Bu nima olib keladi?

Javob: Aspermiya

116. Embriogeneza 2-3 haftalarida embrionda gonoblastlar - jinsiy xujayralarning o'tmishdoshlari aniqlang. Bu xujayralar qayerda ilk bor aniqlanadi?

Javob: Sariqlik haltachasida

117. Elektronmikrofotografiyada spermatozoid kesimi berilgan. Mitoxondriyalar bilan o'ralgan o'q silindr ko'rinmoqda.Spermatozoidning qaysi qismida kesim olingan?

Javob: Kesim spermatozoidning oraliq qismidan o'tgan.

118. Tuxum xujayraning nurli tojini xosil qiladigan follikulyar epiteliy xujayralarga shikastlovchi ta'sir ko'rsatadigan preparat yuborildi. Bu narsa tuxum xujayraga qanday ta'sir qiladi?

Javob: Tuxum xujayra nobud bo'ladi. Sababi follikulyar xujayralar trofik vazifani bajaradi.

119. Tuxum xujayra ko'p bo'lmagan sariqlik kiritmalarini tutadi, ular sitoplazmada bir tekis tarqalgan. Tuxum xujayra tipini va maydalanish xarakterini ayting.

Javob: Tuxum xujayra oligoletsital, izoletsital. Maydalanish to'liq,bir tekis, sinxron..

120. Elektronogrammada erkak va ayol jinsiy xujayralari ko'rildi. Tuxum xujayra va spermatozoidni organellalar tarkibi bo'yicha qanday farqlash mumkin?

Javob: Tuxum xujayrada sentriola bo'lmaydi.

121. Bitta turdagi xayvonning ikkita pushti berilgan. Bittasi ikki blastomer bosqichida, boshqasi morula bosqichida. Qaysi pushtning massasi yuqori?

Javob: Ikkala pushtning massasi teng.

122. Tajribada mikromanipulyator yordamida miotomga shikast yetkazildi. Qaysi to'qimalarni taraqqiyoti buziladi?

Javob: Ko'ndalang- targ'il mushak to'qimasi.

123. Tajribada mikromanipulyator yordamida dermatomga shikast yetkazildi. dermatom. Qaysi to'qimalarni taraqqiyoti buziladi?

Javob: Terining derma qavati.

124. Tajribada mikromanipulyator yordamida nefrogonotomga shikast yetkazildi. Qaysi sistemalarni taraqqiyoti buziladi?

Javob: Siydik ayiruv va jinsiy sistema.

125. Pushtda provizor a'zoldan tashqari trofoblast xam rivojlanadi. Xayvonlarning qaysi sinfiga xos?

Javob: Yo'ldoshli sut emizuvchilar.

126. Pushtda xamma provizor a'zolar amnion, sariqlik qopi, seroz parda va allantois. rivojlangan.

Xayvonlarning qaysi sinfiga xos?

Javob: Qushlarga xos.

127. Tajribada pushtda amnion parda burmalarining birlashishi buzildi. Qaysi provizor a'zolari xosil bo'lishi buziladi?

Javob: Amnion va seroz parda.

128. Tovuq embrionini taraqqiyoti jarayonida amniotik burma xosil bo'ladi. Amnion burmaning xosil bo'lish manbai?

Javob: Xomiladan tashqari entoderma va xomiladan tashqari mezodermaning pariyetal varag'i.

129. Tovuq pushtida gazlar va moddalar almashinuvini ta'minlovchi provizor a'zo shikastlandi. Bu qaysi a'zo? U qanday varaqlardan xosil bo'ladi?

Javob: Allantois. Xomiladan tashqari entoderma va xomiladan tashqari mezodermaning visseral varag'i.

130. Spermatogenez jarayonida spermatozoidlarda akrosoma rivojlanishi buzildi. Spermatozoidni qanday funksiyasi buziladi?

Javob: Tuxum xujayrani urug'lantirish

131. Xomila qo'g'onoq suvlari sitologik tekshirilganda unda jinsiy xromatin tutuvchi xujayralar borligi aniqlandi. Xomilani jinsini ayting?

Javob: Ayol.

132. Elektron mikrofotografiyada spermatozoidning ko'ndalang kesimi berilgan. Bittasida mitoxondriyalar bilan o'ralgan o'q silindrlar ko'rinsa, ikkinchisida faqat sentriolalar ko'rinmoqda. Rasmda spermatozoidlarni qaysi qismlari tasvirlangan?

Javob: Birinchisida - oraliq qism, ikkinchisida - bo'yin qismi ( bog'lovchi qism).

133. Urug'lanish natijasida tuxum xujayraga Y xromosoma tutuvchi spermatozoid kirdi. Bo'lajak bolani jinsini ayting.

Javob: Erkak.

134. Maydalanish natijasida pushtda seloblastula xosil bo'ldi. Tuxum xujayra tipi va maydalanish turini ayting.

Javob: Tuxum xujayra birlamchi izoletsital. Maydalanish to'liq, bir tekis, sinxron.

135. Tajribada qush pushtida gastrula bosqichida birlamchi tasmadan xujayralarni siljishi to'xtatildi. Pushtning qaysi xomila varag'i rivojlanmaydi?  
Javob: Mezoderma.
136. Tajribada qush pushtida gastrula bosqichida genzen tugunidan xujayralarni siljishi to'xtatildi. Xomilada qaysi o'q a'zoni rivojlanishi buziladi?  
Javob: Xorda.
137. Tajribada birlamchi tasma va genzen tugunidan xujayralarni siljishiga to'sqinlik qilindi. Bu aralashuv xomilada qanday o'zgarishlarga sabab bo'ladi?  
Javob: Xordal - mezodermal kurtak rivojlanmaydi.
138. Tajribada amfibiya pushtida gastrula bosqichida xordal o'simta ektodermadan plastinka yordamida ajratib qo'yildi. Bu aralashuv xomilada qanday o'zgarishga sabab bo'ladi?  
Javob: Nerv nayi va ganglioz plastinka rivojlanmaydi.
139. Umurtqalilar sinfiga kiruvchi pushtda provizor a'zolardan faqat sariqlik qopi rivojlanadi. Pusht qaysi xayvonlar sinfiga mansub va u kayerda yashaydi?  
Javob: Baliqlar. Suvda yashaydi.
140. Sariqlik qopini vazifasidan kelib chiqqan xolda - sariqlik kiritmalarini to'planishi, ilk qon orolchalarini xosil bo'lishi. Sayoz suvda yoki chuqur suvda yashovchi baliqlarni qaysi birida qon orolchalari xosil bo'lishi tezroq amalga oshadi?  
Javob: Chuqur suvda yashovchi baliqlarda.
141. Tajribada tovuq pushtida xomiladan tashqari lateral mezoderma shikastlandi. Qaysi provizor a'zolarni rivojlanishi buziladi?  
Javob: Amnion va seroz parda.
142. Taraqqiyot jarayonida tovuq pushtida xomiladan tashqari ektodermaga zarar yetkazildi. Xomiladan tashqari ektoderma qaysi provizor a'zolarni xosil bo'lishida ishtirok etadi. Ularning qanday vazifani bajaradi?  
Javob: Amnion (ximoya). Seroz parda (ximoya, nafas, trofik).
143. Tuxum xujatsra ikkita spermatozoid bilan urug'landi. Xromosoma to'plami qanday bo'ladi? Normal rivojlanish kuzatiladimi?  
Javob: Triploid. Normal xomila rivojlanishi mumkin emas.

#### EPITELIY TO'QIMASI VA BEZLAR

144. Preparatda quyidagi to'qimalar keltirilgan. A). xujayralar plast xosil qilib, bir-biri bilan zich birikib joylashgan. B). Xujayralar bir-biridan xujayralararo modda yordamida ajralgan. Bulardan qaysi biri epiteliy to'qimasi?  
Javob: Plast xosil qilgan xujayralar to'plami.
145. Ikkita epiteliy keltirilgan. Bittasida barcha epiteliy xujayralari bazal membranada yotadi. Ikkinchisida bazal membranaga faqat bazal qavat xujayralari tegib, qolgan xujayralar ustma-ust joylashgan. Epiteliyni tasniflang.  
Javob: Birinchisi - bir qavatli epiteliy, ikkinchisi - ko'p qavatli epiteliy.
146. Ikkita bez preparati berilgan. Bezlarning birida chiqaruv nayi tarmoqlanmagan, sekretor oxiri tarmoqlangan. Boshqasida chiqaruv nayi va sekretor oxiri xam tarmoqlangan. Bezlarni tasniflang.  
Javob: 1) oddiy tarmoqlangan bez. 2) murakkab tarmoqlangan bez.

147. Mikroskop ostida bez xujayrasida yadro, organoidlar va sekret donachalari ko‘rinmoqda. Sekret ajralshi vaqtida xujayraning apikal qismi butunligi buzilmaydi. Sekretni xujayradan tashqariga chiqarish turini ayting?

Javob: Merokrin tipdagi sekretiya.

148. Preparatda ikkita bez berilgan. Biri chiqaruv nayi va sekretor oxiriga ega. Boshqasida kapillyarlar to‘ri bilan o‘ralgan sekretor oxiri bor, chiqaruv nayi yo‘q. Bezlarni turini ayting.

Javob: Birinchisi - ekzokrin bez, ikkinchisi - endokrin bez.

149. Yozda ultrabinafsha nurlar ta'sirida terining qorayishi kuzatiladi. Bu jarayonga epidermisning qaysi xujayralari javobgar? Qanday qilib melanin epidermisni yuqori qismini qoraytiradi?

Javob: Melanotsitlar va pigmentotsitlar. Melanotsitlarning tanasi epidermisni bazal qavatida joylashadi. Ularning o‘simtalari epidermisning yuqori qavatlariga yetib boradi. Melanin o‘simtalar orqali epidermisni yuqori qismlariga yetib boradi va teriga zagar rangini beradi.

150. A'zo kesimida ikkita to‘qima aniqlandi. Birinchisi - tashqi muxit bilan aloqada bo‘ladi. Ikkinchisi - a'zo ichida joylashadi. Bulardan qaysi biri epiteliiy?

Javob: Birinchisi.

151. Preparatda ikki turdagi xujayralar aniqlandi. Xujayralarning bittasida bazal va apikal qutblar farqlanadi. Ikkinchisida qutblar farqlanmaydi. Qaysi biri epiteliiy xujayra?

Javob: Birinchi xujayra.

152. H3-timidin bilan ektoderma xujayralarining xromosomalari nishonlandi. Nishonlangan xujayralar qaysi a'zolarida aniqlanadi?

Javob: Teri, og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasi, to‘g‘ri ichakning anal qismi, so‘lak, yog‘, va ter bezlari.

153. H3-timidin bilan ventral mezoderma, nefrogonatom xujayralari xromosomalari nishonlandi. Qaysi a'zolarida nishonlangan xujayralar aniqlanadi?

Javob: Qorin parda va plevrani qoplagan mezoteliy xujayralari, buyraklar va jinsiy bezlarni qoplagan xujayralar.

154. H3-timidin bilan entoderma xujayralari xromosomalari nishonlandi. aom pomecheny xromosomy kletok entodermy. Qaysi a'zolarida nishonlangan xujayralar aniqlanadi?

Javob: Nafas olish va xazm qilish tizimi shilliq pardasi, bezlari xujayralarida aniqlanadi.

155. Ikkita flakonga to‘qima kulturasiga xujayralar joylashtirilgan. Birinchi flakonga bazal qavat xujayralari, ikkinchi flakonga yaltiroq kavat xujayralari joylashtirilgan. Qaysi flakondagi xujayralar ko‘payishda davom etadi?

Javob: Birinchi flakondagi xujayralar ko‘payishda davom etadi.

156. Odamning ikkita mezoteliy preparati berilgan. Birinchisida - xujayralar kubsimon shaklda, ular ko‘p bo‘linmoqda. Ikkinchisida - xujayralar yassi shaklda, xujayralarni bo‘linishi deyarli kuzatilmayapti. Qaysi preparat yetuk odamga, qaysi preparat embrionga tegishli?

Javob: Birinchisi- embrionga, ikkinchisi - katta yoshdagi odamga.

157. 101. Teri epidermisining muguz, yaltiroq, donador qavat xujayralari olib tashlandi. Regeneratsiya qanday amalga oshadi?

Javob: Bazal va tikanaksimon qavat xujayralari xisobiga regeneratsiya amalga oshadi.

158. Terining kichik bir qismidan epidermis olib tashlandi. Na nebolshom uchastke koji udaleny vse sloi epidermisa. Regeneratsiya qanday amalga oshadi?

Javob: Atrofdagi jaroxatlanmagan teridai xujayralar bo‘linib, ko‘payib defekt to‘ldiriladi.

159. Ikkita sekretor xujayrani elektronogrammasi berilgan. Birinchisida - Goldji apparati kuchsiz rivojlangan, sisternalar va vakuolalar tutadi. Ikkinchisida - Goldji apparati gipertrofiyalangan, sisternalar, vakuolalar va mayda pufakchalar tutadi. Qaysi biri aktivroq xisoblanadi?

Javob: Ikkinchisi.

160. Preparata bezning sekretor qismi berilgan. Bazal membranadan uzoqlashgan sari xujayralarda sekret maxsulotlar ortib boradi. Xujayralarning yadrosi, organellalari va nixoyat o'zi xam nobud bo'ladi. Bezda sekretiyaning qaysi turi kuzatilmoqda?

Javob: Golokrin.

161. Bemorning terisida engil tarzda ishqalanish xamda qizarish alomatlari aniqlandi. Terinig shikastlangan joylari aniq chegaralangan bo'lib, noto'g'ri shaklga ega va paypaslaganda og'riqsiz. Bunda epiteliyning qaysi turi zamburug' ta'siriga uchragan?

Javobi: ko'p qavatli muguzlanuvchan

162. Uzoqmuddatliyallig'lanishidanso'ngburunbo'shlig'ishilliqqavatiningepiteliysidao'zgarishlarro'ybergan. Ushbu epiteliyning nomi nima?

Javobi: bir qavatli ko' qatorli

163. Bemorda muguz parda transplantatsiyasi o'tkazildi.

Muguzpardatuzilishidagiqandayo'zigaxoslikuningtez bitib ketishiga yordam beradi?

Javobi: qon va limfa tomirlarning bo'lmasligi

164. Oftalmolog qabuliga kelgan bemor dalada uzoqmuddatdavomidachangdaqolibketishi sababli ko'zlarida og'riq paydo bo'lganidan shikoyat qildi. Shifokormuguzparda oldingi epiteliysining yuza qavatlarida shikastlanish paydo bo'lganini aniqladi. Ushbu hujayralarning qayta tiklanishini qaysi hujayralar ta'minlaydi?

Javobi: bazal

165. Emiruvchi bug'l bilan nafas olgan kimyoviyishlabchiqarish korxonasi ishchisi bronxlarida kiprikli hujayralarning bir qismining nobud bo'lgani aniqlandi. Qaysi hujayralar hisobiga regeneratsiya ro'y beradi?

Javobi: bazal

166. Preparatda quyidagi to'qimalar keltirilgan. A). xujayralar plast xosil qilib, bir-biri bilan zich birikib joylashgan. B). Xujayralar bir-biridan xujayralararo modda yordamida ajralgan. Bulardan qaysi biri epiteliy to'qimasi?

Javob: Plast xosil qilgan xujayralar to'plami.

167. Ikkita epiteliy keltirilgan. Bittasida barcha epiteliy xujayralari bazal membranada yotadi. Ikkinchisida bazal membranaga faqat bazal qavat xujayralari tegib, qolgan xujayralar ustma-ust joylashgan. Epiteliyni tasniflang.

Javob: Birinchisi - bir qavatli epiteliy, ikkinchisi - ko'p qavatli epiteliy.

168. Ikkita bez preparati berilgan. Bezlarning birida chiqaruv nayi tarmoqlanmagan, sekretor oxiri tarmoqlangan. Boshqasida chiqaruv nayi va sekretor oxiri xam tarmoqlangan. Bezlarni tasniflang.

Javob: 1) oddiy tarmoqlangan bez. 2) murakkab tarmoqlangan bez.

169. Mikroskop ostida bez xujayrasida yadro, organoidlar va sekret donachalari ko'rinmoqda. Sekret ajralshi vaqtida xujayraning apikal qismi butunligi buzilmaydi. Sekretni xujayradan tashqariga chiqarish turini ayting?

Javob: Merokrin tipdagi sekretiya.

170. Preparatda ikkita bez berilgan. Biri chiqaruv nayi va sekretor oxiriga ega. Boshqasida kapillyarlar to'ri bilan o'ralgan sekretor oxiri bor, chiqaruv nayi yo'q. Bezlarni turini ayting.

Javob: Birinchisi - ekzokrin bez, ikkinchisi - endokrin bez.

171. Yozda ultrabinafsha nurlar ta'sirida terining qorayishi kuzatiladi. Bu jarayonga epidermisning qaysi xujayralari javobgar? Qanday qilib melanin epidermisni yuqori qismini qoraytiradi?

Javob: Melanotsitlar va pigmentotsitlar. Melanotsitlarning tanasi epidermisni bazal qavatida joylashadi. Ularning o'simtali epidermisning yuqori qavatlariga yetib boradi. Melanin o'simtalar orqali epidermisni yuqori qismlariga yetib boradi va teriga zagar rangini beradi.

172. A'zo kesimida ikkita to'qima aniqlandi. Birinchisi - tashqi muxit bilan aloqada bo'ladi. Ikkinchisi - a'zo ichida joylashadi. Bulardan qaysi biri epiteliy?

Javob: Birinchisi.

173. Preparatda ikki turdagi xujayralar aniqlandi. Xujayralarning bittasida bazal va apikal qutblar farqlanadi. Ikkinchisida qutblar farqlanmaydi. Qaysi biri epiteliy xujayra?

Javob: Birinchi xujayra.

174. 96. H3-timidin bilan ektoderma xujayralarining xromosomalari nishonlandi. Nishonlangan xujayralar qaysi a'zolarida aniqlanadi?

Javob: Teri, og'iz bo'shlig'i shilliq pardasi, to'g'ri ichakning anal qismi, so'lak, yog', va ter bezlari.

175. H3-timidin bilan ventral mezoderma, nefrogonatom xujayralari xromosomalari nishonlandi. Qaysi a'zolarida nishonlangan xujayralar aniqlanadi?

Javob: Qorin parda va plevrani qoplagan mezoteliy xujayralari, buyraklar va jinsiy bezlarni qoplagan xujayralar.

176. H3-timidin bilan entoderma xujayralari xromosomalari nishonlandi. aom pomechenu xromosomy kletok entodermy. Qaysi a'zolarida nishonlangan xujayralar aniqlanadi?

Javob: Nafas olish va xazm qilish tizimi shilliq pardasi, bezlari xujayralarida aniqlanadi.

177. Ikkita flakonga to'qima kulturasiga xujayralar joylashtirilgan. Birinchi flakonga bazal qavat xujayralari, ikkinchi flakonga yaltiroq kavat xujayralari joylashtirilgan. Qaysi flakondagi xujayralar ko'payishda davom etadi?

Javob: Birinchi flakondagi xujayralar ko'payishda davom etadi.

178. Odamning ikkita mezoteliy preparati berilgan. Birinchisida - xujayralar kubsimon shaklda, ular ko'p bo'linmoqda. Ikkinchisida - xujayralar yassi shaklda, xujayralarni bo'linishi deyarli kuzatilmayapti. Qaysi preparat yetuk odamga, qaysi preparat embrionga tegishli?

Javob: Birinchisi- embrionga, ikkinchisi - katta yoshdagi odamga.

179. Teri epidermisining muguz, yaltiroq, donador qavat xujayralari olib tashlandi. Regeneratsiya qanday amalga oshadi?

Javob: Bazal va tikanaksimon qavat xujayralari xisobiga regeneratsiya amalga oshadi.

180. Terining kichik bir qismidan epidermis olib tashlandi. Na nebolshom uchastke koji udaleny vse sloi epidermisa. Regeneratsiya qanday amalga oshadi?

Javob: Atrofdagi jaroxatlanmagan teridai xujayralar bo'linib, ko'payib defekt to'ldiriladi.

181. Ikkita sekretor xujayrani elektronogrammasi berilgan. Birinchisida - Goldji apparati kuchsiz rivojlangan, sisternalar va vakuolalar tutadi. Ikkinchisida - Goldji apparati gipertrofiyalangan, sisternalar, vakuolalar va mayda pufakchalar tutadi. Qaysi biri aktivroq xisoblanadi?

Javob: Ikkinchisi.

182. Preparata bezning sekretor qismi berilgan. Bazal membranadan uzoqlashgan sari xujayralarda sekret maxsulotlar ortib boradi. Xujayralarning yadrosi, organellalari va nixoyat o'zi xam nobud bo'ladi. Bezda sekretsianing qaysi turi kuzatilmoqda?

Javob: Golokrin.

183. Uzoqmuddatliyalig'lanishidanso'ngburunbo'shlig'ishilliqqavatiningepiteliysidao'zgarishlarro'yberga n. Ushbu epiteliyning nomi nima?

Javobi: bir qavatli ko' qatorli

## TAYANCH-TROFIK TO'QIMALAR

184. Pusht taraqqiyotida xomila kurtaklaridan eng birinchi ichki muxit to'qimasi xosil bo'ladi. U qaysi to'qima? Uning rivojlanish manbaini ayting.

Javob: Mezenxima. Uni xosil bo'lishida uchta xomila varaqlari ishtirok etadi.

185. Pushtda gastrula bosqichida mezoderma xujayralarining xarakati to'xtatib qo'yildi. Buning oqibati nimaga olib keladi?

Javob: Mezenxima xosil bo'lmaydi.

186. Infarkt miokardi tufayli bir guruh qisqaruvchi kardiomiotsitlarning o'limi kuzatildi. Jaroxatlangan joyda qaysi xujayralar hisobiga reparativ regeneratsiya kuzatiladi?

Javob: Fibroblastlar

187. Qizil suyak ko'migi asosini o'simtali xujayralar va ular orasidagi xujayralararo moddalar xosil qiladi. To'qimani nomlang. Xujayralararo moddaning morfologik tarkibi qanaqaligini ayting.

Javob: Retikulyar to'qima. Retikulyar tolalar va amorf moddadan iborat.

188. Qon yaratuvchi a'zolari (taloq, qizil suyak ko'migi, limfa tuguni, murtaklar) asosini tashkil qiluvchi to'qimada translyatsiya jarayonlariga to'sinlik qilindi. Bu qaysi to'qima? Bu to'qimaning strukturasi qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?

Javob: Retikulyar to'qima. Xujayralararo moddalar xosil bo'lishi to'xtaydi.

189. Embriogenezni erta bosqichlarida sariqlik qopi devoridagi mezoderma xujayralari nobud qilindi. Oqibati qanday bo'ladi?

Javob: Embrional qon yaratilishibuziladi.

190. Eksperimentda erta neonatal davrda sichqonlarda timus vazifasi ingibirlandi. Gemopoezning qaysi turi buziladi?

Javob: T - limfotsitopoez.

191. Eksperimentda qizil suyak ko'migida polixromatofilproeritrotsitlarni ribosomalari yo'q qilindi. Qaysi maxsus oqsilning sintezi buziladi?

Javob: Gemoglobin.

192. Shakli elementlarni sentrifugalash yo'li bilan plazmadan ajratib olindi. Shakli elementlar o'z navbatida eritrotsitlar, granulotsitlar, limfotsitlar, monotsitlar, trombotsitlarga bo'linib oziq muxitlariga aloxida-aloxida joylashtirildi. Shulardan qaysi biri koloniya xosil qilib o'sadi? Koloniya xosil qilish sababa nimada?

Javob: Limfotsitlar, ular orasida o'rta va yirik limfotsitlarda bo'linish qobiliyati saqlangan bo'ladi.

193. Qon surtmasida yirik, yumaloq shakldagi, sitoplazmasi kuchsiz bazofil bo'yaladigan, maxsus donachalar saqlamaydigan, yadrosi taqasimon shakldagi xujayra ko'rinmoqda. Xujayrani nomlang.

Javob: Monotsit.

194. Qizil suyak ko'migida yirik xujayra aniqlanmoqda. Uning yadrosi juda yirik bo'lib, bo'laklarga bo'lingan. Sitoplazmasida azurofil donachalar bor. Xujayrani nomlang.

Javob: Megakariotsit.

195. Qizil suyak ko'migi preparati berilgan. Ko'ruv maydonida xujayra ko'rinmoqda. Xujayra yadrosi 3-4 segmentdan iborat bo'lib, maxsus donachalar tutadi. Xam asosli, xam kislotali bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Xujayrani nomlang.

Javob: Segmentyadroli neyetrofil.

196. A'zo transplantatsiyasida transplantant ko'chishi kuzatildi. Qondagi qaysi xujayralar bu jarayonda qatnashadi?

Javob: T - limfotsitlar - «killerlar».

197. Organizmda transformatsiya natijasida rak xujayralari populyatsiyasi paydo bo'ldi. Bu "noshud" xujayralarni tezda aniqlaydigan va ularga qarshi kurashadigan xujayralar ayting. Bu jarayonga qanday nom berish mumkin?

Javob: T - limfotsitlar - «killerlar». Immunologik nazorat.

198. Analiz uchun bemordan qon olindi. Birinchi qon analizida eritrotsitlarni, leykotsitlarni, trombotsitlarni 1 mm<sup>3</sup> qondagi absolyut ko'rsatkichlari ifodalangan. Ikkinchi qon analizida leykotsitlarni foiz miqdori ifodalangan. Birinchi va ikkinchi formulalar nomini ayting.

Javob: Birinchisi - gemogramma, ikkinchisi - leykotsitar formula.

199. Bemorni qon analizida eritrotsitlarni turg'un oshgani kuzatildi. Qonda eritrotsitlarni oshishi nima deb nomlanadi?

Javob: Eritrotsitoz.

200. Bolada gijja aniqlandi. Leykotsitarformulada qanday o'zgarish bo'ladi?

Javob: Eozinofillar sonini ortishi - eozinofilotsitoz.

201. Bemorning qon analizida limfotsitlar 10% ekanligi aniqlandi. Bu xolat qanday nomlanadi?

Javob: Limfotsitopeniya.

202. Bemorni leykotsitar formulasida bazofillar 10% ekanligi aniqlandi. Bu xolat qanday nomlanadi?

Javob: 123. Bazofilotsitoz.

203. Bemorni gemogrammasida trombotsitlar mm<sup>3</sup> qonda 500000ta ekanligi aniqlandi. Bu xolat qanday nomlanadi?

Javob: Trombotsitoz.

204. Naysimon suyaklarning bilvosita osteogistogenezida, epifizar va diafizar suyaklanish nuqtalari orasida plastinka aniqlanib, u keyinchalik suyak to'qimasining bo'yiga o'sishini taminlaydi. Bu struktura qanday nomlanadi?

Javob: Metaepifizar plastinka

205. Odamning qon surtmasini tahlil qilinganda, yallig'lanish jarayonlarini xarakterlovchi ko'p miqdorda dumaloq shakldagi, uch va undan ortiq segmentli

yadroga ega bo'lgan, hamda sitoplazmasi och pushti-binafsha tusga ega bo'lgan xujayralar aniqlandi. Xujayraning nomini ayting?

Javob: Neytrofil granulotsitlar

206. Bemorni leykotsitar formulasida segmentyadroli neytrofillar aniqlanmoqda. Yosh va tayoqchayadroli neytrofillar qonda umuman yo'q. Bu xolat qanday nomlanadi?

Javob: Leykotsitar formulani o'ngga siljishi.

207. Bemorni leykotsitar formulasida yosh va tayoqchayadroli neytrofillarni kupayishi, yetuk neytrofillarni kamayishi aniqlandi. Bu xolatda leykotsitar formula kanday uzgaradi?

Javob: Leykotsitar formulani chapga siljishi.

208. Odam organizmida o'tkir yiringli yallig'lanish jarayoni boshlandi. Gemogrammada qanday uzgarishlar yuzaga keladi?

Javob: Leykotsitlar miqdorini ortishi.

209. Odam organizmiga yot oqsil kiritildi. Qonning Qaysi xujayralari immunologik javob beradi?

Javob: T - limfotsitlar, B - limfotsitlar, monotsitlar.



210. Probirkadagi qonga mikroorganizmlar kushildi. Qonning kaysi xujayralarida mikroorganizmlarni kurishimiz mumkin?

Javob: Monotsitlarda, neytrofillarda, eozinofillarda.

211. Probirkadagi Qonga yot mayda chang zarralari kushildi. Qonning qaysi xujayralarida ularni aniqlash mumkin?

Javob: Monotsitlarda.

212. Tajribada B-limfotsitlar nishonlandi. Shundan so'ng xayvon terisi ostiga yot oqsil yuborildi. Qon-tomirlardan tashkaridagi Qaysi xujayralarda nishon aniqlanadi?

Javob: Biriktiruvchi to'qimaning plazmatik xujayralarida.

213. Ma'lumki, plazmatik xujayralar organizmga tushgan antigenga qarshi maxsus antitana ishlab chiqaradi. Antigen yuborilgandan keyin plazmatik xujayralar soni qo'payadi. Qonning qaysi xujayralari xisobiga plazmatik xujayralar xosil bo'ladi?

Javob: B - limfotsitlar xisobiga.

214. T-limfotsitlar, makrofaglar va B-limfotsitlar o'zaro ta'sirlanish jarayoni natijasida makrofaglar ta'siri to'xtadi. Immunogenezning qaysi jarayoni buziladi?

Javob: B - limfotsitlarni plazmatik xujayralarga transformatsiyasi buziladi.

215. Qon analizida gemogloblin miqdori qamayligi aniqlandi. Bunda qonning qanday vazifasi buziladi?

Javob: Gazlar transporti.

216. Qon analizida eritrotsitlar miqdorini pasayishi aniqlandi. Bu xolat qanday nomlanadi va qonning qanday vazifalari buziladi?

Javob: Anemiya. Gazlar va biologik aktiv moddalarni tashilishi

217. Sog'lom odam leykotsitar formulasida neytrofillar 32%, limfotsitlar 54% ekanligi aniqlandi. Odamlarda necha yoshda yuqoridagi leykotsitar formuladagi ko'rsatkitlar norma xisoblanadi?

Javob: 1 - 4 yoshlardagi bolalarda.

218. Sog'lom odam leykotsitar formulasida neytrofillar 60%, limfotsitlar 20% ekanligi aniqlandi. Odamlarda necha yoshda yuqoridagi leykotsitar formuladagi ko'rsatkitlar norma xisoblanadi?

Javob: Chaqaloqlarda va 7-14 yoshdagi bolalarda.

219. Agar odam og'ir jismoniy ish bajargandan so'ng qon analizi topshirsa, gemogrammada o'zgarish bo'ladimi? Qonning qaysi xujayralari miqdori ortadi? Buni qanday qilib tushuntirish mumkin?

Javob: Eritrotsitlar. Jismoniy ish vaktida moddalar almashinuvi kuchayadi va tukimalarni kislorodga talabi ortadi.

220. Terining shikastlanishi natijasida jaroxatdan qon ketishi uzoq avqt to'xtamadi. Qonning qaysi xujayralari miqdori kamaygan? Ulardagi qaysi ferment qon ivishida ishtirok etadi?

Javob: Trombotsitlar. Trombokinaza.

221. Ma'lumki, eritrotsitlar diametri o'rtacha 7-8 mkmga teng. Diametri 5 mkm bo'lgan qon kapillyarlaridan eritrotsitlar o'ta oladimi? Agar o'ta olsa, sababini ayting.

Javob: Eritrotsitlarni plazmolemmasi elastik bo'lib, diametri kichik kapillyarlarga kiri oladi. bo'lgan.

222. Tajribada tanlab qondagi xujayralar populyatsichsi stimullandi. Buning natijasida qon-tomirlar o'tkazuvchanligi ortib, to'qimalarda shish paydo bo'ldi. Qonni ivishi sekinlashdi. Qondagi qaysi xujayralar stimullangan? Xujayralar donachalari tarkibidagi qaysi modda qon - tomirlarni o'tkazuvchanligini oshiradi? Xujayralar donachalari tarkibidagi qaysi modda qon uvishini boshqaradi?

Javob: Bazofillar. Gistamin. Geparin.

223. Ko'pgina ayollar xomiladorlikni birinchi yarmida toksikoz bo'ladi. Toksikoz-xomila metabolitlarini ona qoniga chiqishidan xosil bo'ladi. Qondagi qaysi xujayralar xomila toksik moddalariga sezgir? Bu xujayralar miqdori qonda o'zgaradimi? Sababini ayting.  
Javob: Eozinofillar. Eozinofillar miqdorini ortadi. Ular antitoksin ishlab chiqaradi.

224. Sud ekspertizasida qotillik sodir etilgan joyda qotilning qon izlari topildi. Sud ekspertisasi xulosasiga ko'ra qotillik ayol kishi tomonidan qilingan. Analizda qaysi xujayralar tekshirilgan. Bu xujayralarni qanday morfologik belgisiga ko'ra qotilni ayol kishi ekanligi aniqlangan?  
Javob: Neytrofillar. Jinsiy xromatin - Bar tanachasi.

225. Bemor qon plazmasida gamma-globulinlar miqdori ortganligi aniqlandi. Immunoglobulinlar xosil bo'lishini nima bilan tushuntirish mumkin? Antitela sinteziga javobgar xujayralarni ayting.  
Javob: Organizmga yot moddalarni tushishi.(antigenlar) Plazmotsitlar.

226. Tajribada embrionda xomila varaqlari xosil bo'lgandan so'ng mezoderma olib tashlandi. Mezenxima xosil bo'lishi buzildi. Mezenxima xosilalaridan qaysilari rivojlanmaydi?  
Javob: Xamma biriktiruvchi to'qima turlari, silliq mushak to'kimasi, glial makrofaglar.

227. Tajribada qizil suyak ko'migidan eritroblastik qator xujayrasi ajratib olindi. Unda gemogloblin sintezi yakuniga yetgan. Bu qaysi xujayra?  
Javob: Eritrotsit.

228. Odam qon surtmasida yadrosiz xujayralar ko'rinmoqda. Bu qaysi xujayralar?  
Javob: Eritrotsitlar.

229. Qon surtmasi preparatida bazofil donadorlikka ega bo'lgan xujayra berilgan. Sitoplazmada donachalar ko'pligidan kuchsiz segmentlangan yadro xira ko'rinadi. Bu qanday xujayra?  
Javob: Bazofil.

230. Qon surtmasi preparatida yirik atsdofil donadorlikka ega bo'lgan xujayra ko'rinmoqda. Yadro segmentlangan. Xujayrani nomini ayting.  
Javob: Segmentyadroli eozinofil.

231. Qon surtmasi preparatida ko'rish maydonida yadrosi ko'p segmentlangan, sitoplazmasida mayda donachalar tutuvchi, xam kislotali, xam ishqoriy bo'yoqlar bilan bo'yaladigan xujayra ko'rinmoqda. Xujayrani nomini ayting.  
Javob: Segmentyadroli neytrofil.

232. Bemor qon analizida xar xil kattalikdagi eritrotsitlar aniqlandi. Bu xolat qanday nomlanadi?  
Javob: Anizotsitoz.

233. Bemor qon analizida xar xil shakldagi eritrotsitlar aniqlandi. Bu xolat qanday nomlanadi?  
Javob: 151.Poykilotsitoz.

234. Tajribada neytrofillardan lizosomalar olib tashlandi. Bu xolat neytrofillarga qanday ta'sir kiladi?  
Javob: Fagotsitoz qilish qobiliyati yo'qoladi.

235. 153. Toksin ta'sirida fibrinogen sintezi buzildi. Qonning qanday funksiyasi buziladi?  
Javob: Qonni uvishi.

236. Bemorga bilmagan xolatda gipotonik eritma quyildi. Eritrotsitlarda qanday o'zgarish bo'ladi?  
Javob: Eritrotsitlar gemolizi.

237. Qondagi monotsitlardan makrofaglar xosil bo'ladi. Makrofaglar to'qimalarga migratsiya qilib o'troq makrofaglarga aylanadi. Barcha to'qimalardagi makrofaglar qanday sistemani xosil qiladi?  
Javob: Mononuklear fagotsitar sistema
238. Travma natijasida organizmda kuchli qon yo'qotish kuzatildi. Qon to'xtatildi. Bir necha kundan so'ng qaytadan qon analizi qilindi. Kuchli qon yo'qotishdan keyin qonda eritrotsitlar miqdori qanday o'zgaradi? Qonda leykotsitlar miqdori qanday o'zgaradi? Leykotsitar formuladagi o'zgarishlarni ayting.  
Javob: Umumiy eritrotsitlar miqdori kamayadi, retikulotsitlar miqdori esa ortadi. Leykotsitlar miqdori xam kamayadi. Leykotsitar formula chapga siljiydi.
239. Teriga rasm chizdirganda teri ostiga bo'yoq yuboriladi. Bu bo'yoq organizmda parchalanmaydi. Qanday xujayralar qondan to'qimaga o'tib, bo'yoqni yutadi. Xujayralarni nomlang. Bo'yoqni yutish jarayoni qanday nomlanadi?  
Javob: Monotsitlar, neytrofillar. Makrofaglar. Fagotsitoz.
240. Organizmga yot moddalar tushganda plazmotsitlar tomonidan oqsil tabiatli moddalar ishlab chiqariladi. Oqsil tabiatli moddalar immun sistemani maxsuloti xisoblanadi. Bu moddalarni nomlang.  
Javob: Antitanalar.
241. Gistologik preparatda to'qima bazofillari berilgan. Bazofillar yonida ko'plab yirik donachalar ko'rinmoqda. Xujayradan qanday moddalar ajralgan va bu jarayon qanday nomlanadi?  
Javob: Geparin, gistamin. Degranulyatsiya.
242. Bemor organizmida vitamin "C" yetishmovchiligi aniqlandi. Biriktiruvchi to'qimaning xujayralararo moddasida qanday o'zgarishlar kuzatiladi?  
Javob: Kollogen xosil bo'lishi buziladi, asosiy modda o'tkazuvchanligi ortadi.
243. Kapillyarlar atrofida bazofil donadorlikka ega bo'lgan xujayralar aniqlandi. Xujayralarni nomini ayting. Ular qanday moddalar ishlab chiqaradi?  
Javob: Labrotsitlar (semiz xujayralar). Gistamin i geparin. Gistamin tomirlar o'tkazuvchanligi oshiradi va silliq mushak to'qimasini qisqartiradi. Geparin - antikoagulyant.
244. Trombotsitlar qon ivishida ishtirok etadi. Biriktiruvchi to'qimaning qaysi xujayralari trombotsitlar bilan birga qon uvishida ishtirok etadi?  
Javob: Labrotsitlar ( semiz xujayralar).
245. Bemorning xujayralararo moddasida kislotali mukopolisaxaridlar miqdori ortgan. Biriktiruvchi to'qimaning qaysi xujayralari xujayralararo moddani sintezlaydi?  
Javob: Fibroblastlar, semiz xujayralar.
246. Teri ostiga yot jism kirdi. Siyrak tolali biriktiruvchi to'qimaning reaksiyasi qanday bo'ladi? Bu reaksiyada qaysi xujayralar ishtirok etadi?  
Javob: Yallig'lanish jarayoni boshlanadi. Neytrofillar, makrofaglar, fibroblastlar .
247. Tajribada xayvon qonining o'zak xujayralari rentgen nurlari yordamida nobud qilindi. Siyrak tolali biriktiruvchi to'qimaning qaysi xujayralarining yangilanishi buziladi?  
Javob: Makrofaglar, to'qima bazofillari, plazmotsitlar.
248. Timusda T-limfotsitlar xosil bo'lishi buzildi. Immunogenezni qaysi bosqichlari buziladi? Qaysi xujayralar xosil bo'lishi buziladi?  
Javob: Plazmotsitlar xosil bo'lishi buziladi.
249. Siyrak tolali biriktiruvchi to'qimada asosiy modda xosil bo'lishi buzildi. Qaysi xujayralarni faoliyati buzilgan?  
Javob: Fibroblastlar.

250. Odam organizmiga tirik vaksina kiritildi. Siyrak tolali biriktiruvchi to'qimaning qaysi xujayralari bunga reaksiya bildiradi?

Javob: Plazmatik xujayralar, makrofaglar.

251. Organizmning yot jism tushgan yerida yallig'lanish jarayoni kuzatiladi. Qondagi va siyrak tolali biriktiruvchi to'qimadagi qaysi xujayralar yallig'lanish o'chog'ida aniqlanadi?

Javob: Neytrofillar, monotsitlar, makrofaglar, fibroblastlar, eozinofillar.

252. Qarigan sari tog'ay to'qimasida gialuron kislotasi miqdori ortadi. Bunda tog'ay to'qimasini o'tkazuvchanligi qanday o'zgaradi?

Javob: Tog'ay to'qimasini o'tkazuvchanligi kamayadi.

253. Gistologik preparatda odam tog'ay to'qimasida kaltsinatlar aniqlandi. Bemor yoshini aniqlang.

Javob: 40 yoshdan katta.

254. Qarigan sari tog'ay to'qimasida xondroitinsulfat miqdori kamayadi. Bunda xujayralararo moddaning bazofilligi o'zgaradimi?

Javob: Xa, kamayadi.

255. Tog'ay to'qimasini ikkita elektronogrammasi berilgan. Birinchisida - tog'ay xujayralarida mitoxondriyalar ko'p, ikkinchisida - kam. Qaysi biri yosh tog'ayga, qaysi biri qari tog'ayga tegishli?

Javob: Birinchisi - yosh, ikkinchisi - qari.

256. Operatsiya vaqtida tog'ayning bir qismi olib tashlandi. Defekt qanday to'qima bilan to'ladi?

Javob: Zich biriktiruvchi to'qima.

257. Suyak to'qimasida ko'plab lizosomalar tutgan xujayralar aniqlandi. Xujayralar qanday nomlanadi?

Javob: Osteoklastlar.

258. Malumki, osteoblastlar o'z vazifasini bajarishi uchun vitamin C zarur. Vitamin C yetishmovchiligi natijasida suyakda to'qimasida qanday o'zgarish kuzatiladi?

Javob: Kollagen tolalar miqdori kamayadi.

259. Bolaning ovqat ratsionida kaltsiy tuzlari kam. Bu xolat bolaning suyak to'qimasi rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Javob: Skelet rivojlanishi buziladi.

260. Suyak to'qimasi yangi joyga ko'chirib o'tkazildi. Osein tolalar yo'nalishi o'zgaradimi?

Javob: O'zgaradi.

261. Operatsiya vaqtida suyak usti pardasining butunligi buzildi. Suyak to'qimasida qanday o'zgarish bo'ladi?

Javob: Suyak to'qimasini oziqlanishi buziladi.

262. Malumki, gipokineziyada osteoblastlar aktivligi kamayadi. Gipokineziya suyakni o'sish tezligiga ta'sir qiladi?

Javob: Suyakni o'sish tezligi kamayadi.

263. Naysimon suyaklarning preparatida epifizar plastinkada o'sish kuzatilmayapti. Odamning taxminiy yoshi nechida?

Javob: 25 yoshdan katta.

264. Malumki, o'zgaruvchan epiteliy osteogen xususiyatlarni o'zida saqlaydi. Shuni bilgan xolda, siydik qopi shilliq pardasi shikastlanganda qanday o'zgarishlar kuzatilishi mumkin?

Javob: Siydik qopi devorini biriktiruvchi to'qimasida suyak xosil bo'lishi mumkin.

265. Erta balog'atga yetishda o'sish zonalari jinsiy gormonlar ta'sirida bekiyadi. Bu xolat bo'y uzunligiga ta'sir qiladimi?

Javob: Bo'y o'sishdan erta to'xtaydi.

266. Malumki, qarish bilan osteonlar kanalini diametri kattalashadi. Suyakning mexanik xususiyatlariga ta'sir qiladimi?

Javob: Suyaklarning pishiqligi kamayadi.

267. Tajribada skeletida travma bo'lgan xayvoniga ekzogen RNK preparati yuborildi. Bu preparat osteoblastlarda oqsil sintezini stimullaydi. Suyak to'qimasi regeneratsiyasi qanday o'zgaradi?

Javob: Regeneratsiya tezlashadi.

268. Tajribada suyagi singan xayvoniga kaltsitonin gormoni yuborildi. Bu gormon osteoblastlarda oqsil sintezini stimullaydi. Suyak to'qimasi regeneratsiyasi qanday o'zgaradi?

Javob: Suyakda regeneratsiya tezlashadi.

269. Teri osti yog' to'qimasida plazmatik xujayra kam uchraydi, ichaklar shilliq pardasi biriktiruvchi to'qimasida ular ko'plab uchraydi. Sababi nimada?

Javob: Plazmatik xujayralar mikroorganizmlarga qarshi antitanalar ishlab chiqaradi. Shu sababli ichakda ko'p uchraydi.

270. Pay jaroxatlangan joyda biriktiruvchi to'qimadan chandiq xosil bo'ldi. Pay vazifasi pasaydi.

Payni tiklanishi qaysi xujayralar xisobiga tiklanadi?

Javob: Fibroblastlar xisobiga.

271. Avitaminozda siyrak tolali biritiruvchi to'qima xujayralarida tropokollagen xosil bo'lishi buzildi. Xujayralararo moddada qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?

Javob: Kollagen tolalar xosil bo'lishi buziladi.

272. Yorug'lik mikroskopida siyrak tolali biritiruvchi to'qimada oval shakldagi, o'rtacha kattalikdagi, yadrosida xromatin g'ildirak xosil qilib joylashgan xujayra ko'rinmoqda. Xujayrada donador endoplazmatik to'r yaxshi rivojlangan. Xujayrani nomlang.

Javob: Plazmatik xujayra.

273. Preparatda oval yoki yumaloq shakldagi xujayra ko'rinmoqda. Xujayra markazi bo'sh, sitoplazma va yadro xujayra periferiyada joylashgan. Xujayrani nomlang.

Javob: Yog' xujayrasi.

274. Asal ari yoki ilon chaqqanda ularning zaxari tezda organizmga tarqaladi. Buning sababini ayting.

Javob: Zaxarida gialuronidaza fermenti bo'ladi.

275. Eles-Danlas sindromida biriktiruvchi to'qimaning mustaxkamligi pasayishi kuzatiladi. Qanday tolalar eng ko'p shikastlanadi?

Javob: Kollagen tolalar.

276. Paylarda kollagen tolalar tutami bir xil yo'nalishda joylashgan bo'ladi. Terining to'rsimon zonasida esa kollagen tolalar tutami turli yo'nalishda joylashadi. Buni qanday tushuntirish mumkin?

Javob: Mexanik yuklamani turli yo'nalishda bo'lishi.

277. Tajribada xayvonga kollagen tolalar xosil bo'lishiga to'sqinlik qiladigan modda yuborildi. Paylarni mexanik xususiyatlari qanday o'zgaradi?

Javob: Paylar mustaxkamligi kamayadi.

278. Elektronogrammada qon yaratuvchi a'zo to'qimasida tolalar ko'rinmoqda. Bu tolalarda ko'ndalang - targ'illik bor. Tolani nomini ayting.

Javob: Retikulyar tolalar.

279. Gastrulyatsiyani kechki bosqichlarida pushtning birlamchi tana bo'shlig'ida duksimon , o'simtali, bazofil xujayralar tashkil topgan to'qima ko'rinmoqda, Taloq preparatida oksifil , yulduzsimon xujayralar to'r xosil qilgan to'qima ko'rinmoqda. Ikkala preparatdagi to'qimalarni nomini ayting.

Javob: Birinchisi- mezenxima, ikkinchisi- retikulyar to'qima.

280. Siyrak tolali biriktiruvchi to'qimada xujayra ko'rinmoqda. Xujayra tanasi yassilangan, duksimon shaklda, yumalorq yadrosi markazda joylashgan, kuchsiz bazofil bo'yaladi, 2-3 yadrocha saqlaydi. Sitoplazmasi bazofil bo'yaladi. Biriktiruvchi to'qimaning qaysi xujayrasi tasvirlangan?

Javob: Adventitsial xujayra. Xujayralar regeneratsiyasini ta'minlaydi.

281. Siyrak tolali biriktiruvchi to'qima preparatida xujayra ko'rinmoqda. Xujayra chegaralari aniq bo'lib, yadro xromatinga boy, intensiv bo'yaladi. Sitoplazma yuqori bazofillikka ega, ko'piksimon, fagotsitoz qilingan yot tanachalar saqlaydi. Sitoplazmada ko'plab vakuolalar bor. Biriktiruvchi to'qimaning qaysi xujayrasi tasvirlangan?

Javob: .Makrofag. Ximoya.

282. Tiralish natijasida bolaning terisida yallig'lanish alomatlari kuzatildi: og'riq,qizarish, shish . Bunday holat qondagi qaysi xujayralar hisobiga?

Javob: Bazofil leykotsitlar

283. Siyrak tolali biriktiruvchi to'qimada oval shakldagi xujayra ko'rinmoqda. Xujayra yadrosi eksentrik joylashgan. Yadro xromatinni bo'yalishiga ko'ra g'ildirakni eslatadi. Sitoplazma keskin bazofil, yadro atrofida bo'yalmaydigan joy qoladi. Biriktiruvchi to'qimaning qaysi xujayrasi tasvirlangan?

Javob: Plazmatik xujayra. Yot oqsillar kirganda antitanalar ishlab chiqaradi.

284. Siyrak tolali biriktiruvchi to'qimada fibroblastlar, makrofaglar va kollagen tolalar ko'rinmoqda. To'qima to'liq tasvirlanganmi?

Javob: To'qima to'liq tasvirlanganmagan. Elastik tolalarni, amorf moddani va turli xujayralarni qo'shish kerak.

285. Ikkita preparat keltirilgan: bittasida - gialin tog'ay, boshqasida - elastik tog'ay. Qanday belgilarga qarab ikkita tog'ayni farqlash mumkin?

Javob: Gialin tog'ayda kollagen tolalar, elastik tog'ayda kollagen va elastik tolalar bo'ladi.

286. Tog'ayning gistologik preparatida ko'plab yo'g'on kollagen tolalar tutami ko'rinmoqda. Tog'ay to'qimasi turini ayting.

Javob: Tolali tog'ay to'qimasi.

287. Suyak to'qimasida ko'p yadroli xujayra ko'rinmoqda, sitoplazmasida lizosomalar ko'p. Xujayrani nomini ayting. Uning vazifasi qanaqa?

Javob: Osteoklastlar. Oxaklangan tog'ay va suyakni yemiradi.

288. Naysimon suyaklarda osteonlar orasida osteon xosil qilmaydigan suyak plastinkalari joylashgan. Bu suyak plastinkalari qanday nomlanadi va ular qanday xosil bo'ladi?

Javob: Bular kiritma suyak plastinkalari bo'lib, oldingi regeneratsiyada parchalangan osteonlardan xosil bo'ladi.

289. Xayvondan suyak to'qimasini bir qismi olib tashlandi. Suyak to'qimasi olib tashlangan joyda suyak usti pardasining proliferatsiyasi qanday o'zgaradi?

Javob: Oshadi.

290. Ikkita suyak to'qimasini elektron mikrofotografiyasi berilgan. Birinchisida xujayra organoidlaridan endoplazmatik to'r, Golji kompleksi, mitoxondriyalar yaxshi rivojlangan. Ikkinchisida xujayra organoidlari yaxshi rivojlanmagan. Xujayralardan qaysi biri osteoblast, qaysi biri osteotsit?  
Javob: Birinchisi - osteoblast, ikkinchisi - osteotsit.

291. Ikkita osteotsitni elektron mikrofotografiyasi berilgan. Birinchisida sitoplazm kam va organellalar deyarli yo'q. Ikkinchisida sitoplazm ko'p va organellalar yaxshi rivojlanmagan. Osteotsitlarni qaysi biri birinchi xosil bo'lgan?  
Javob: Birinchisi.

292. Bemorning qo'lijgut bilan bog'langanda uning terisidagi mayda qon tomirlardan qon talashikuzatildi. Qonning qaysi shaklli elementlarining faoliyati buzilgan?  
Javob: trombotsitlar

293. Elkasidagi tatuirovkani olib tashlash maqsadida bemor kosmetolog qabuliga keldi. Teri biriktiruvchi to'qimasida qanday moddaning bo'lishi bo'yoqning tarqalib ketishiga yol qo'may bunday "rasmlarni" chizishga imkon yaratadi?  
Javob: gialuron kislotasi

294. Yosh o'tgan sari odam terisida ajinlar va burmalar hosil bo'lishi kuzatiladi. Ushbu holatgaterinig qanday tuzilmalaridagi o'zgarishlar sabab bo'ladi?  
Javob: elastik tolalar

295. Bemorda muguz parda transplantatsiyasi o'tkazildi. Muguz pardatuzilishidagi qanday o'zgarishlar bitib ketishiga yordam beradi?  
Javob: qon va limfa tomirlarning bo'lmasligi

296. Oftalmolog qabuliga kelgan bemor dalada uzoq muddat davomidachangda qolib ketishi sababli ko'zlarida og'riq paydo bo'lganidan shikoyat qildi. Shifokor muguz parda oldingi epiteliysining yuza qavatlarida shikastlanish paydo bo'lganini aniqladi. Ushbu hujayralarning qayta tiklanishini qaysi hujayralar ta'minlaydi?  
Javob: bazal

297. Mikropreparatda keltirilgan to'qima tarkibidagi bir qancha yadro tutuvchi, o'simtasiz hujayralar ko'rinmoqda. Ushbu hujayralar yazalaridan biri burmador hoshiyali zonaga ega bo'lib, gidrolitik fermentlar sekretsiy qilishga moslashgan. Mikropreparatda qanday to'qima aks etgan?  
Javob: suyak

298. Periferik qon surtmasida sitoplazmasi och bazofil bo'yalgan va loviyasimon shaklga ega yadro tutuvchi hujayra ko'rinib turibdi. Qon surtmasida u boshqa hujayralarga nisbatan yirik. Hujayraning nomi nima?  
Javob: monotsit

299. Periferik qon surtmasida leykotsitlarning aksariyatini yadrosi segmentlangan yumaloq shakl ega hujayralar tashkil qilyapti. Ularning sitoplazmasidagi mayda donachalar bir vaqtning o'zida ham kislotali, ham ishqoriy bo'yoqlarni yaxshi qabul qilgan. Bu hujayralarning nomi?  
Javob: segmentyadroli neyetrofillar

300. 10 yoshli bolada gelmintlar aniqlandi. Leykotsitar formulada qanday o'zgarishlar kechadi.  
Javob: Eozinofillar miqdori ortadi

301. Eksperimental hayvonga preparat yuborilganda kollagen tolalarning sintezi buzildi. Bunda paylarda qanday o'zgarishlar yuzaga keladi?  
Javob: Mustaxkamligi kamayadi

302. 26 yosh bemorni qizil suyak ko'migi tekshirilganda megakariotsitlarning miqdori keskin kamaygan. Periferik qonda qanday o'zgarish vujudga keladi?  
Javob: Trombotsitlar miqdori kamayadi
303. Biriktiruvchi to'qimaning mikropreparati o'rganilganda neytrofillar aniqlandi. Biriktiruvchi to'qimada bu xujayralarning vazifasi?  
Javob: fagotsitoz
304. Teriga yot jism tushishi tufayli uning yallig'lanishiga olib keldi. Biriktiruvchi to'qimaning qaysi xujayralari yallig'lanish jarayonida qatnashadi?  
Javob: Neytrofillar, makrofaglar, fibroblastlar
305. Preparatda xujayralari yakka-yakka xamda izogen guruxlar hosil qilib joylashgan, xujayralararo moddasida tolalari yo'q to'qima aniqlandi. Preparatdagi to'qimani toping?  
Javob: Gialin tog'ay to'qimasi
306. Singan naysimon suyak to'qimasining gistologik preparatida jaroxat o'rnida qadoq aniqlandi. Qaysi to'qima ushbu tuzilmani hosil qiladi?  
Javob: Dag'al tolali suyak to'qima
307. Odamning qizil suyak ko'migining preparatida gigant xujayralar sinusoid qon kapillyarari atrofida aniqlandi. Gigant xujayralardan qaysi bir shaklli elementlar hosil bo'ladi.  
Javob: Qon plastinklari
308. Xirurgiyaning asosiy qoidalaridan biri Langer chizig'i bo'ylab o'tkazish. Qaysi to'qima dermaning to'rsimon qavatini hosil qiladi?  
Javob: Zich shakllanmagan biriktiruvchi to'qima
309. Probirkadagi leykotsitar massaning funksional faolligini aniqlash maqsadida ularga mikroorganizmlar aralashtirildi. Sitoplazmasida fagotsitlangan mikroblar aniqlangan xujayralarni ayting.  
Javob: Neytrofillar va monotsitlar
310. Romanovskiy-Gimza usuli bilan bo'yalgan qon surtmasida, 20% yirik, dimatri 20mkm, sitoplazmasi sust ishqoriy, yumaloq shakldagi, loviyasimon yadroli xujayra aniqlandi. Klinik jixatdan nima deyiladi:  
Javob: Monotsitoz
311. Klinikaga umrov suyagi singan kasal tushdi. Qaysi suyak elementlari regeneratsiya bo'layotgan suyak to'qimasida ishtirok etadi?  
Javob: Osteoblastlar
312. Kasbi tibbiy hamshira bo'lgan bemor, qo'l terisini shikastlanganligiga shikoyat qildi. Huddi ekzemani eslatadi. Bemor ish vaqtida streptomitsin bilan inyeksiya qilgan vaqtda qichishish kuchayadi, puffaklar paydo bo'ladi. Tatil paytida yo'qoladi. Allergik sinama qo'yilganda qonda qaysi xujayralarning miqdori ortadi?  
Javob: Bazofil leykotsitlar
313. Ko'rsatkich barmoqning ochiq sinishi bilan shikastbandlik punktiga bemor murojaat qildi. Jaroxatlangan to'qimalardan qay biri tezroq regeneratsiya bo'ladi?  
Javob: Teri epidermisi
314. 6yoshli bolada gijjalar aniqlandi. Leykotsitar formulada qanday o'zgarishlar bo'lishi ko'zda tutilgan?  
Javob: Eozinofillar miqdori ortadi
315. Vannadiy bilan ishlaniladigan korxonada, ishchilarning suyak to'qimasida kaltsiyning miqdori ko'payishi bilan ossifikatsiya jarayoni kuchaygan. Bu qaysi xujayralarning aktivligi bilan bog'liq?  
Javob: Osteoblastlar



316. Bolakay yiqilib tushganida ,qo‘l kaftini shilib oldi.Qaysi epiteliy jarohatlangan?

Javob: Ko‘p qavatli yassi epiteliy

317. Ishlab chiqarishda ishlaydigan ayollarning qo‘l terisida xrom bilan ishlaganligi tufayli dermatit vujudga keldi. Teridagi qaysi xujayralar ushbu jarayonda ishtirok etadi?

Javob: To‘qima bazofillari

318. Bemorda suyak to‘qimasining rezorbsiyasi aniqlandi. Bu jarayon suyak to‘qimasining qaysi xujayralarining faolligi tufayli amalga oshadi?

Javob: Osteoklastlar

319. . Parazitar kasalliklar bilan og‘rigan bemorning qonida qaysi shaklli elementlarning miqdorini ortishiga sabab bo‘ladi:

Javob: Eozinofillar

320. 70 yoshli bemorni klinik tekshiruvdan o‘tkazilganda tayanch-harakat apparatida yoshga bog‘liq ravishda gialin tog‘ay to‘qimasida o‘zgarishlar vujudga kelgan. Harakatni cheklanganligiga sabab bo‘luvchi omilni ayting.

Javob: Xujayralararo moddada kaltsiy tuzlarini to‘planishiga sabab bo‘ladi.

321. Talabaga ikkita preparat berildi. Birinchi preparatda - elastik tog‘ay to‘qimasi (orsein bilan bo‘yalgan), ikkinchi preparatda - gialin tog‘ay to‘qimasi (gematoksilin-eozin bo‘yog‘i). Qaysi belgilariga asoslangan holda bir biridan ajratish mumkin?

Javob: Elastik tolalarning bo‘lishi bilan

322. Qon tahlilida gemoglobin miqdorini kamayganligi aniqlangan. Bunday holatda qonning qaysi vazifasi buziladi?

Javob: Gazlar transporti

323. Neytrofil granulotsitlarni sud-tibbiyot tahlili qilinganda, ularning yadrosidagi xromatinida baraban tayoqchasini eslatuvchi tuzilma aniqlandi. Bu tuzilmalar qanday ataladi?

Javob: Barr tanachalari

324. Pnevmoniya bilan og‘rigan bemorning qonini umumiy tahlilida leykotsitlarning foizlardagi nisbati ortgan. Buni nima?

Javob: Leykotsitoz

325. 26 yoshli erkakning qonini tahlilida 18% sferik ,yassilashgan hamda o‘simtali eritrotsitlar aniqlandi.Qolgan eritrotsitlar ikki tamonlama botiq shaklda bo‘ladi. Bu holat qanday deb aytiladi?

Javob: Fiziologik poykilotsitoz

326. Bemor qonining tahlilida 12,5% eritrotsitlarning diametri 8mkm katta, 12,5% eritrotsitlar 6 mkm dan kichik. Qolgan eritrotsitlar diametri 7,1 - 7,9 mkm. Bu holat qanday deb aytiladi?

Javob: Fiziologik anizotsitoz

327. Boldir suyagidagi yallig‘langan yaradan, surtma tayyorlanganda ko‘p miqdorda noto‘g‘ri cho‘ziq shakldagi, zich yadroli, bazofil sitoplazmasida ko‘p miqdorda lizosoma,fagosoma,pinotsitoz puffakchalarga ega bo‘lgan xujayra aniqlandi.Bu xujayraning nomini ayting.

Javob: Biriktiruvchi to‘qimaning makrofaglari

328. Naysimon suyaklarning bilvosita osteogistogenezida,epifizar va diafizar suyaklanish nuqtalari orasida plastinka aniqlanib,u keyinchalik suyak to‘qimasining bo‘yiga o‘sishini taminlaydi. Bu struktura qanday nomlanadi?

Javob: Metaepifizar plastinka

329. Odamning qon surtmasini tahlil qilinganda, yallig‘lanish jarayonlarini xarakterlovchi ko‘p miqdorda dumaloq shakldagi,uch va undan ortiq segmentli

yadroga ega bo'lgan ,hamda sitoplazmasi och pushti-binafsha tusga ega bo'lgan xujayralar aniqlandi. Xujayraning nomini ayting?

Javob: Neytrofil granulotsitlar

## MUSHAK TO'QIMASI

330. Ko'ndalang-targ'il mushak tolasiga gidrolitikfermentlarta'sirqilingandanso'ng uning ingichka filamentlari shikastlangani aniqlandi. Bunda qaysi tuzilmalarda o'zgarishlar ro' bergan?

Javobi: aktin filamentlari

331. Miokardinfarktidan so'ng yurak mushak to'qimasiningkardiomiotsitlari nobud bo'lgani kuzatildi.Miokardning shikastlanganjoyi qaysihujayralarhisobigato'ldiriladi?

Javobi: fibroblastlar

332. Jaroxatdan so'ng ko'ndalang-targ'ilmushakto'qimasio'rganilgandayog'on filamentlarning shikastlangani aniqlandi. Patologik o'zgarishlar qaysi joyda rivojlanishi mumkin?

Javobi: Adiskda

333. Tajribada pushtning erta rivojlanish bosqichida miotom shikatlantirildi. Qaysi to'qimani rivojlanishi to'xtaydi?

Javob: Ko'ndalang- targ'il skelet mushak to'qimasi.

334. Tajribada xayvonning mezenxima xujayralari ingibirlandi. Qaysi mushak to'qimasini rivojlanishi buziladi?

Javob: Silliq mushak to'qimasi.

335. Tajribada pushtning mioepikardial plastinkasi jaroxatlandi. Qaysi to'qimani rivojlanishi buziladi?

Javob: Yurak mushak to'qimsi.

336. Mushak to'qimasi preparatida tolalar ko'rinmoqda, tola periferiyasida yadrolar joylashgan. Qaysi mushak to'qimasi?

Javob: Ko'ndalang- targ'il skelet mushak to'qimasi.

337. Mushak to'qimasini kesimi berilgan. Mikroskop ostida duksimon shakldagi xujayralar ko'rinmoqda. Xujayralar markazida uzunchoq yadro joylashgan. Qaysi mushak to'qimasi?

Javob: Silliq mushak to'qimasi.

338. Mushak to'qimasi elektronogrammasida plazmolemma chuqur invaginatsiyalar xosil qilgani ko'rinmoqda , bu plazmolemma invaginatsiyalaridan nerv impulslari o'tadi. Bu strukturani nomini ayting.

Javob: T – naychalar sistemasi.

339. Elektronogrammada I disk miofilamenti aniqlanmayapti. Telofragma A diskga yaqinlashgan.Mushak tolasida qanday funksional aktivlik fazasida ekanligini ayting.

Javob: Kuchli qisqarish fazsida.

340. Preparatda mushak to'qimasi keltirilgan. Mushak to'qimasini xar bir struktur -funutsional birligiga xarakatlantiruvchi nerv oxiri kelib tugamaganligi aniqlandi. Qaysi mushak to'qimasi?

Javob: Silliq mushak to'qimasi.

341. Patologik jarayonlar natijasida kardiomiotsitlar orasida kiritma naylar buzildi. Bu buzilish nimaga sabab bo'ladi?  
Javob: Xujayradan xujayraga qo'zg'alish o'tishi buziladi va oxir oqibat miokardni bir vaqtda qisqarishi ro'y bermaydi..
342. So'lak bezlarini sekretor oxirlaridan sekret chiqaruv naylariga bosim natijasida chiqadi. Sekretni naylarga chiqarilishida qaysi xujayralar ishtirok etadi?  
Javob: Mioepiteliotsitlar.
343. Sarkoplazmaga Sa ionini kirishi kimyoviy yo'l bilan to'xtatildi. Bu xolat mushak xujayrasiga qanday ta'sir qiladi?  
Javob: Mushakni qisqarishi kuzatilmaydi.
344. Mushak to'qimasining qaysi turi mustaqil a'zoni xosil qilib, somatik va avtonom nerv sistemasi tomonidan innervatsiya qilinadi? Mushak turini toping  
Javob: Ko'ndalang-targ'il skelet mushak to'qimasi.
345. Infarkt natijasida yurak mushagi shikastlandi. Kardiomiotsitlar nobud bo'ldi. Qaysi xujayralar xisobiga regeneratsiya bo'ladi?  
Javob: Biriktiruvchi to'qima xujayralari- fibroblastlar.
346. Operatsiya vaqtida me'daning bir qismi olib tashlandi. Me'da mushak qavati qaysi xujayralar xisobiga regeneratsiya bo'ladi?  
Javob: Me'da devorida qolgan miotsitlar xisobiga tiklanadi.
347. Silliq mushak to'qimasida nerv tolasi impulsni bir xujayraga olib keladi. Bunga javoban 8-10 miotsitlar bir vaqtda qisqaradi. Tushuntirib bering, nima sababdan nerv tolasi bilan kontaktda bo'lmagan silliq mushak xujayralari xam qisqaradi?  
Javob: Impuls miotsitlar orasidagi neksuslar orqali bir-biriga uzatiladi.
348. Odam o'lgandan so'ng vaqtinchalik mushak to'qimasi qattiq bo'lib qoladi: murda qotishi. Bu jarayon nima bilan bog'liq?  
349. Javob: ATF yetishmovchili xisobiga aktin va miozin miofilamentlar o'rtasidagi bog' ajralmaydi.
350. Elektronogrammada I-diskni butkul yo'qolishi aniqlandi. Mushak tolasi yana qisqarishi mumkinmi?  
Javob: Yo'q.
351. Tajribada ko'ndalang- targ'il mushak to'qimasi jaroxatlandi. Jaroxatlangan mushak tolasi sekinlik bilan tiklanadi. Qaysi xujayralar xisobiga regeneratsiya bo'ladi?  
Javob: Miosatellitotsitlar.
352. Kasallik natijasida shikastlangan yurak mushagi to'qimasi preparatidan yangi kardiomiotsitlarni aniqlash mumkinmi?  
Javob: Yo'q, sababi kardiomiotsitlarni kambial xujayralari yo'q.
353. Gistologik preparatda kardiomiotsitlarda ko'p miqdorda lipofussin borligi aniqlandi. Bu preparat yosh bolaga tegishli bo'lishi mumkinmi?  
Javob: Yo'q, lipofussin - qarilik pigmenti.
354. Ikkita gistologik preparatda ko'ndalang- targ'il mushak to'qimasi keltirilgan. Birinchi preparatda ikkinchisiga qaraganda miosatellitotsitlar va aniqlanadi, miofibrillalar ko'p miqdorda aniqlanadi.  
Javob: Ko'ndalang-targ'il skelet mushak to'qimasi.
355. Xomiladorlik vaqtida bachadon bir necha barobar kattalashadi. Silliq mushak to'qimasida qanday jarayonlar sodir bo'ladi?

Javob: Silliq mushak xujayralari gipertrofiyasi, giperplaziyasi sodir bo'ladi va miofibroblastlar xosil bo'ladi.

356. Gistologik preparatda ko'ndalang-mushak to'qimasi berilgan. Mushak tolasi siyrak tolali biriktiruvchi to'qimadan tuzilgan fassiya bilan o'ralgan. Bu xolat normami?

Javob: Xa, endomiziy deyiladi.

#### НЕРВНАЯТКАНЬ

357. Tajribada pushtning ganglioz plastinkasi olib tashlandi. Nerv to'qimasi differensirovsida buzilishlar kuzatiladimi?

Javob: Spinal gangliylar, vegetativ nerv sistemasi gangliylari, buyrak usti bezining mag'iz moddasi, paragangliylar rivojlanmaydi.

358. Tajribada nerv nayining spongioblastlari nobud qilindi. Nerv to'qimasini qaysi xujayralari differensiallanmaydi?

Javob: Makrogliya (astrotsitlar, oligodendrotsitlar) xujayralari rivojlanmaydi.

359. Nissl usulida bo'yalgan ikkita nerv to'qimasi preparati berilgan. Birinchi preparatda neyrotsitlarda yirik bazofil donachalar, ikkinchi preparatda neyrotsitlarda mayda changsimon donachalar ko'rindi. Neyrotsitlarni qaysi funksional tipga mansubligini ayting.

Javob: Birinchisi - xarakatlantiruvchi neyron, ikkinchisi - sezuvchi neyron.

360. Nerv to'qimasini ikkita mikropreparati berilgan. Birinchisida - neyrotsit sitoplazmasida ko'p miqdorda lipofussin to'plangan, ikkinchisida - lipofussin aniqlanmadi. Preparatlar qaysi yoshdagi odamlarga mansub?

Javob: Birinchisi - katta odamga, ikkinchisi - yosh bolaga tegishli.

361. Tajribada xayvonga uzoq muddat va o'ta kuchli og'riq berildi. Nissl usulida bo'yalganda xarakatlantiruvchi neyronlardagi xromatofil moddada qanday o'zgarishlar kuzatiladi?

Javob: Tigroliz.

362. Preparatda uchta neyrotsit berilgan: psevdounipolyar, bipolyar va multipolyar. Neyrotsitlarning xar birida nechtdan akson bo'ladi?

Javob: Xar bir neyronida bittadan akson bo'ladi.

363. Nerv tolalaridan impuls o'tishi tekshirildi. Birinchi nerv tolalaridan impuls o'tish tezligi 1-2 m/sek, ikkinchisida - 5-120 m/sek. Nerv tolalari turini ayting.

Javob: Birinchisi - miyelinsiz, ikkinchisi - miyelinli.

364. Xayvonda tajribada aralash nervi kesildi. Qanday neyrotsitlarning qanday o'simtalari shikastlanadi?

Javob: Xarakatlantiruvchi neyronlarning aksonlari, ularning prekarioni orqa miya oldingi shoxlarida joylashadi. Sezuvchi neyronlarning dendritlari, ularning prekarionlari spinal gangliyada joylashadi.

365. Bemorning nerv tolasi kesilgan joyida biriktiruvchi to'qimali chandiq paydo bo'ldi. Bu xolat nerv regeneratsiyasiga qanday ta'sir qiladi?

Javob: Regeneratsiya kuzatilmaydi.

366. Nerv tolasi kesilgan. Preparatda o'q silindrda to'nog'ichsimon kengayishlar aniqlandi (o'sish kolbalari). Tekshirilayotgan soxa nerv xujayrasining qaysi o'simtasiga tegishli?

Javob: Aksonga.

367. Nerv tolasi kesilgan xayvonga 2 haftadan so'ng lemmotsitlarni ko'payishiga to'sqinlik qiluvchi modda yuborildi. Regeneratsiya jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Javob: Nerv tolasini miyelinizatsiyasi buziladi.

368. Orqa miya preparatida ikkita o'simtalari ko'p gliotsit aniqlandi. Birinchi gliotsitda ko'p kuchli tarmoqlangan o'simtalari bo'lib, ular kulrang moddada joylashgan. Ikkinchi gliotsitda uzun kuchsiz tarmoqlangan o'simtalari bo'lib, ular oq moddada joylashgan. Gliotsitlar turini ayting.  
Javob: Birinchisi - protoplazmatik astrotsit, ikkinchisi - tolali astrotsit.

369. Sxemada ikkita gliotsit tasvirlangan. Birinchi gliotsitda ko'plab o'simtalar bor, gemaensefalik to'siqni xosil qilishda ishtirok etadi. Ikkinchi gliotsitda 2-3 kalta o'simtalar bo'lib, amebasimon xarakterga ega qila oladi. Gliotsitlar turini ayting?  
Javob: Birinchisi - astrotsit, ikkinchisi - glial makrofag.

370. Birinchi preparatda biriktiruvchi to'qimali kapsula bilan o'ralgan nerv oxiri keltirilgan. Ikkinchi preparatda kapsula yo'q, o'q silindr tarmoqlangan va neyrolemmotsitlar bilan o'ralgan. Nerv oxirlarini morfologik turini ayting.  
Javob: Birinchisi - kapsulali nerv oxiri, ikkinchisi - kapsulasiz nerv oxiri.

371. Tajribada orqa miyani kulrang moddasi neyrotsitlari kuchli shikastlantirildi. Neyronofagiya qaysi xujayralar ishtirok qiladi?  
Javob: Mantiy gliotsitlari va glial makrofaglar.

372. Patologoanatomik teshiruv natijasida odam orqa miyasi bo'yin va ko'krak qismi oldingi shoxlari yadrolarida neyronlar degeneratsiyasi va neyronlarni kamayganligi aniqlandi. Orqa miya oldingi shoxlari yadrolari shikastlanganda birinchi navbatda qaysi to'qima zararlanadi?  
Javob: Skelet mushak to'qimasi.

373. Travma natijasida bemorda orqa miyasi jaroxatlandi. Qaysi a'zolar funksiyasi buziladi?  
Javob: Tana va qo'l-oyoqlar skelet mushaklari, ichki a'zolar innervatsiyasi buziladi.

374. Tajribada xayvon orqa miyasi oldingi shoxlariga travma berildi. Qaysi neyronlar va qanday nerv tolalari shikastlanadi?  
Javob: Oldingi shoxlarda joylashgan xarakterlantiruvchi neyronlar aksonlari, simpatik nerv sistemasi markaziy neyronlari zararlanadi.

375. Bemorda travma natijasida orqa miyaning orqa shoxlari shikastlandi. Neyronlar, ularning qanday o'simtalari zararlanadi?  
Javob: Pseudounipolyar neyronlarning aksonlari.

## СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТАЯ СИСТЕМА

376. Gistologik preparatda qon tomir aniqlanilib bir uchi berk boshlanib, puchaygan endotelial naychalar ko'rinishida, bazal membranasi va peritsitlari yo'q, bu tomirlarning endoteliysi filamentlar yordamida biriktiruvchi to'qimaning kollagen tolalariga birikgan. Bu qaysi qon tomirlar?  
Javob: Limfokapillyarlar

377. Kapillyarlarning elektronogrammasida endoteliysida fenestralar va bazal membranasi yoriqlar ko'rindi. Bu neanchi tip kapillyar.  
Javob: Sinusoid tipdagi kapillyarlar

378. Mikropreparatda yurak devorining tuzilishi tasvirlangan. Qavatlarining birida qisqaruvchi o'tkazuvchi va sekretor miotsitlar, endomiziy bilan qon tomirlar aniqlangan. Yurakning qaysi qavat va qaysi bo'limiga ushbu tuzilmalar tegishli?  
Javob: Bo'lmachalardagi miokardga

379. Emotsional ta'sirlanish paytida 30 yoshli odam yuragining qisqarish minutiga 112 martaga etdi. Yurakning utkazuvchi sistemasidagi qaysi hujayralar bu o'zgarishlarga javobgar?  
Javob: sinoatrial tugun hujayralari

380. Yangitug'ilgan chaqaloq yurak qorinchasi miokardining taraqqiyotida nuqson aniqlandi. Ushbu patologiya qaysi embrional kurtak rivojlanishidagi o'zgarish bilan bog'liq?  
Javobi: splanxnotomning vistseral varagi
381. Yurak devorining gistologik preparatida endokard va miokard orasida yadrosiyatsentrik joylashgan, ochbo'yalgansitoplazmalıyirik hujayralar ko'rinmoqda. Buhujayralarning nominima?  
Javobi: Purkinе hujayralari
382. Odamning qizilsuyakko'migipreparatida sinusoid tipdagi kapillarlar bilanyaqinaloqadabo'lgan gigant hujayralar aniqlandi. Ushbu hujayralardan rivojlanish davomida qonning qanday shaklli elementlari hosil?  
Javobi: qon plastikalari
383. Teri biopati tekshirilganda dermaning tarkibida o'rta qavatida yaxshirivojlangan silliq mushak hujayralaritutuvchi qon tomirlari aniqlandi. Ushbu qon tomirlarining nominima?  
Javobi: mushak tipidagi arteriya
384. Me'daning kishikegriligidagi yaranio lib tashlash maqsadida o'tkazilgan subtotal rezektsiyadan bir yil o'tgan danso'ng bemor qon tekshirilganda unda quyidagi o'zgarishlar aniqlandi: anemiya, leyko-vatrombotsitopeniya, rangliko'rsatkich -1,3; megaloblast va megalotsitlarning mavjudligi. Qanday omilning etishmasligiushbu o'garishlarga olibkeldi?  
Javobi: gastromukoproteid
385. Arteriyada tromboz hosil bo'lish natijasida kardiomiotsitlarning bir qismining o'ldi (miokard infarkti). Qaysi hujayralar hisobiga asosan reparative regeneratsiya amalga oshiriladi?  
Javobi: fibroblastlar
386. Katta kalibrdagi arteriya sistola paytida kengayib diastole paytida yana o'z holatiga qaytadi. Qon tomirlar devoridagi qaysi tuzilmalar hisobiga bu jarayon amalga oshiriladi?  
Javobi: elastik tolalar
387. Gistologik preparatdagi qon tomirlar yassi naychalar shaklida bo'lib, uchi berk holatda a'zolardan boshlangani ko'rinmoqda. Ularning devor bazal membrana vaperitsitlardan holibo'lib, endoteliy hujayrasi atrofida biriktiruvchi to'qimaga maxsus filamentlar yordamida birikkan. Bu qon tomirlarining nomi?  
Javobi: limfa kapillyarlari
388. Elektronogramda fenestrangan endoteliy, bazal membrana sidaporalar tutuvchi kapillyarlar aniqlanmoqda. Ushbu kapillyar turini ayting.  
Javobi: sinusoid
389. Yurak devorining mikropreparat berilgan. Unda qisqaruvchi, o'tkazuvchi va sekretor turdagi miotsitlar, qon tomirlarga boy endomiziyo ko'rinmoqda. Ushbu tuzilmalar yurak devorining qaysi bo'limi va qavatiga xos?  
Javobi: bo'lmachalar miokardiga
390. 40 yoshli bemor miokard infarktini boshdan kechirdi. Qaysi morfologik tuzilmalar hisobiga uning yuragi regeneratsiyaga uchraydi?  
Javobi: biriktiruvchi to'qima hujayralari hisobiga
391. Gistologik preparatda ichki vatashqi elastik membrana siyaxshirivojlangan, o'rta qavatida ko'pmiqdora silliq miotsitlar tutgan qon tomir ko'rinib turibdi. Javobi: mushak tipidagi arteriya?
392. O'rgimchak vachayonlarning zaxarati tarkibidagi gialuronidaza fermenti kapillyar devoridan osono'tadi. Bu jarayon kapillyarlar devorining qaysi struktur elementlari bilan bog'liq?  
Javobi: bazal membrana

393. Elektronogrammada qontomirning ichki qavatida o'zarodesmosomalar vazich kontaktlari yordamida tutashib, bazal membranada yotgan hujayralar. Bu hujayralarning nomi nima?

Javobi: endoteliy hujayrasi

394. Gistologik preparatda yurak qontomirlar sistemasiga tegishli a'zo berilgan. Uning qavatlaridan birida o'zaro oraliq disklar yordamida tutashgan hujayralardan iborat va anastomozlar hosil qilib joylashgan tolalar. A'zoning nomi nima?

Javobi: yurakning miokard qavati

395. Qontomirlar devoridabir necha qavat fovu tutiladi. Yurak devorining qaysi qavati gistogenezi va to'qimaviy tarkibi bo'yicha qon tomirlarning devorini eslatadi?

Javobi: endokard

396. Kapillyar devori tuzilishining xususiyatlari, fenestrlangan endoteliy va uzoq-yuluq bazal membrana tutishidir. Bu kapillyarlarning qaysi turi?

Javobi: sinusoid tipdagi

397. Perikardit kasalligiga uchragan bemorning perikardial bo'shlig'ida seroz suyuqlik to'plangan. Bunda qaysi hujayralarning faoliyati buzilgan?

Javobi: mezoteliy hujayralari

398. Taloq preparatida qon tomiri ko'rinmoqda. Uning devoridabazal membrana ustida joylashgan endoteliy ko'rinmoqda. O'rta qavat bo'lmay, tashqi qavati taloqning bibiktiruvchi to'qimali tolalariga qo'shib ketgan. Ushbu qon tomiri qaysi turga tegishli?

Javobi: mushaksiz vena

399. Tajribada hayvon sonining yumshoq to'qimasidan olingan bo'lakcha, teri va mushakni kesilgandan 2 hafta o'tgandan so'ng o'rganildi. Unda yangi hosil bo'lgan qon tomirlar aniqlandi. Ushbu regeneratsiya mahisobiga sodir bo'ladi?

Javobi: endoteliyning proliferatsiyasi

400. 74 yoshlik erkak murdasidan olingan aortaning gistologik preparati tekshirildi.

Bunda aortaning yoshgako'ra o'zgarishlarini madaniy iborat bo'ladi?

Javobi: ichki va o'rta qavatida kollagen tolalarning ko'payishi

401. Tajribada pusht mezenximal varaqlariga tegib yotuvchi mezodermaning visseral varag'lari shikastlandi. Yurak devorida qaysi tuzilmalarning taraqqiyoti buziladi?

Javobi: miokard va endokard

402. Yurakning elektron mikroskopda sitoplazmasida strivojlangan miofibrillarlar, lek kuchli rivojlangan endoplazmatik retikul, mushak tabiatga ega o'simlik hujayralar berilgan. Sitoplazmasidako'pgina sekretor donachalar ham aniqlangan. Bular qaysi hujayralardir?

Javobi: bo'lma chakardiomiotsitlari

403. Yuragi o'qotar jaroxatlangan bemor klinikaga keltirildi. Oquning perikard qavatiga tegib o'tgan. Bunda qaysi epitaliy shikastlangan?

Javobi: mezoteliy hujayralari

404. Rus olimi I.M. Sechenov arteriolalarni qon tomirlarning "jo'mragi" deb atagan. Arteriolaning qaysi tuzilmalari ushbu vazifani amalga oshiradi?

Javobi: sirkulyar miotsitlar

405. Qontomirlar devorining barcha qavatlarida elastik tolalar, o'rta qavatlarida esa darchali elastik membranalar aniqlanmoqda. Qaysi omillar hisobiga tomirning devori shunday tuzilishga ega?

Javobi: yuqori bosim

406. Yurak devoir qavatlaridan birining histogenezi va to'qimaviy tarkibi jixatidan qon tomirlarning biriga o'xshaydi. Ularning taraqqiyot ma'nbayinima?

Javobi: mezenxima

407. Gistologik preparatda qon tomir berilgan. Uning ichki qavati endoteliy, endoteliy osti qavati va ichki elastik membranadan iborat. O'rta qavati ko'p miqdorda silliq mushak hujayralari tutadi. Qaysi qon tomirlarga ushbu morfologik ta'rifga mos keladi?

Javobi: mushak tipidagi arteriya

408. Gistologik preparatda qon tomir devori uch qavatdan iborat. Uning ichki qavati endoteliy va subendoteliydan iborat. Tashqi qavati eng qalin. Qaysi organ preparatda korsatilgan?

Javobi: vena

409. Gistoximik tekshirilganda qorin chamiokardining tarkibida sekretor donachalar xamdagilik oproteinlartutgan kardiomiotsitlar aniqlandi. Ushbu kardiomiotsitlar qaysi tipga mansub?

Javobi: sekretor kardiomiotsitlar

410. Nobud bo'lgan go'dakning yuragi mikroskopik tekshirilganda kardiomiotsitlarning tuzilishi o'zgarib aniqlandi. Qaysi embrional kurtakning rivolanishidagi nuqsonlar bunga sabab bo'ldi?

Javobi: mioepikardial plastinka

411. Aterosklerozning rivojlanishida vomi davomida bemoroyoqlarining qon tomirlari devorida qator o'zgarishlar vujudga keladi. Ushbu qon tomirlarning histologik preparatida ichki va tashqi elastik membranalar yaxshi ifodalangan bo'lib o'rta qavati silliq miotsitlarga boy. Tomir qaysi turiga mansub?

Javobi: mushak tipidagi arteriya

412. Yumshoq miyami mikro preparatida ichki qavatibazal membranava endoteliydan iborat, o'rta qavatibo'lmagan, tashqi qavatiasaatrofdagito'qimalarगतutashib ketgan qon tomiriko'rinib turibdi. Bu qaysi qon tomiri?

Javobi: mushaksiz vena

413. Yurakning mikro preparatida markazida yadro tutuvchisi silindrsimon hujayralar ko'rinib turibdi. Ular o'zaro oraliq plastinkalar yordamida tutashgan bo'lib, yaxshi rivojlangan miofibrillalar tutadi. Ushbu hujayralar quyidagi vazifani bajaradi:

Javobi: qisqarish

414. Yurakning mikro preparatida markazida yadro tutuvchisi yulduzsimon hujayralar ko'rinib turibdi. Ularning sitoplazmasida yaxshi rivojlangan donador endoplazmatik to'r, Golji apparati va maxsus granular bor. Ushbu hujayralar quyidagi vazifani bajaradi:

Javobi: endokrin

415. Yurakning mikro preparatida ochbo'yalgantasmalar hosil qilib joylashgan, ekstsentrik joylashgan yadro tutuvchi, sitoplazmasida kamsonly miofibrillalar va ko'pmiqdordagilik oproteinlartutuvchi hujayralar ko'rinmoqda. Bu qaysi hujayralar?

Javobi: Purkinе hujayralar

416. Sud-tibbiyot ekspertimiyapardalarini tekshirish paytida atrofdagito'qimalar bilan qo'shib ketgan vabo'shlig'I ochilib o'tgan veno qon tomirlarini aniqladi. Ular venalarning qaysi turiga kiradi?

Javobi: mushaksiz

417. Orsein bilan bo'yalgan qon tomirining histologik preparatini keltirilgan. Uning o'rta qavatida 40 dan 60 tagacha darchali elastik membranalar aniqlandi. Qon tomirning nomini ayting.

Javobi: elastik tipidagi arteriya



418. Arteriolalarga zolarda funktsional birliklarini qon bilan ta'minlash vazifasini bajaradi. Quyidagi keltirilgan qaysi zolardan biri ushbu vazifani bajaradi?

Javob: miotsitlar

419. Preparatdagi kapillyarlar devorida fenestrlangan endoteliy va uzuq-yuluq membrani korinmoqda. Kapillyar turini ayting.

Javob: sinusoid

420. Infarktdan so'ngiyurak devorining morfologik butunligi tiklandi. Qaysi to'qima hisobiga regeneratsiya sodir bo'lgan?

Javob: biriktiruvchi to'qima

421. Preparatdagi mayda qon tomir devorida uch xil hujayralar ko'rinmoqda. Qon tomir va uning devorini hosil qiluvchi hujayralarning nomlarini ayting.

Javob: Arteriola. Endoteliotsit, silliq mushak hujayralari, adventitsial hujayralar.

422. Qon tomirning ichki devori kumush tuzlari bilan to'yintirilganda, notekis chegarali hujayralar aniqlangan. Bu hujayralarning nomlanishi va rivojlanish manbasini ayting.

Javob: Endoteliy. Mezenxima.

423. Preparatda diametri bir xil (20 mkm) bo'lgan tomir berilgan. Ulardan birining devori uch xil hujayralardan, ikkinchisining devori esa ikki xil hujayralardan tashkil topgani aniqlandi. Bular qaysi tomirlar? Ularning devorini hosil qiluvchi hujayralarini aniqlang.

Javob: Birinchisi -arteriola. Uning devorini endoteliy, silliq mushak hujayralari va adventitsial hujayralaridan iborat. Ikkinchisi - venula. Uning devori endoteliy va adventitsial hujayralardan iborat.

424. Preparatda ikkita arteriola orasida joylashgan kapillyarlar to'ri yaxshi ko'rinmoqda. Ularning nomlanishini ayting. Bu tuzilma qaysi a'zoda joylashgan?

Javob: Ikkita arteriola orasida joylashgan kapillyarlar to'ri "ajoyib to'r" deb nomlanadi. Bu to'r buyrakda joylashgan.

425. Ikkita gistologiya preparat berilgan. Birinchisida kapillyarlar to'ra ikkita arteriola orasida, ikkinchisida esa kapillyarlar to'ri ikkita vena orasida joylashgan. Ushbu kapillyarlar to'ri nima deb nomlanadi? Ular qaysi a'zolda joylashgan?

Javob: Birinchi preparatda kapillyarlar to'ri "ajoyib to'r" deb nomlanadi. Bu to'r buyraklarda joylashgan. Ikkinchi preparatda kapillyarlar to'ri "ikkilamchi kapillyarlar to'ri" deb ataladi, ular gipofizning oldingi bo'lagida joylashgan.

426. Preparatda diametri 20 dan 30 mkm gacha bo'lgan qon tomirlari berilgan. Bu tomirlar qanday nomlanadi? Ular qaysi a'zolda uchraydi?

Javob: Bu tomirlar sinusoid kapillyarlar deyiladi. Ular qon yaratuvchi a'zolar, jigar va endokrin a'zolda uchraydi.

427. Ma'lumki, I.M. Sechenov arteriolalarni "organizm qon-tomir tizimining jo'mragi" deb atagan. Qanday gistologik va funktsional xususiyatlar arteriolaga bunday ta'rif berilishiga sabab bo'lgan?

Javob: Arteriolalar spiralsimon silliq mushak hujayralari qisqarishi hisobiga a'zolarga kelayotgan qon oqimini nazorat qiladi.

428. Preparatda atrofidagi biriktiruvchi to'qimaga qonning shaklli elementlari migratsiya qilinayotgan qon tomir berilgan. Bu tomirlar qanday nomlanadi? Qaysi qon shaklli elementlari migratsiya qiladi?

Javob: Bu kapillyarlar. Ulardan biriktiruvchi to'qimaga limfotsitlar, monotsitlar, neytrofillar, bazofillar, eozinofillar migratsiya qiladi.

429. Preparatni o'rganish jarayonida yorug'lik mikroskopining ko'rish maydonida orsein bilan bo'yalgan mushak tipidagi arteriya va mushak tipidagi vena ko'ringan. Tomirlarning qaysi struktur tuzilmalari bu bo'yoq bilan bo'yaladi? Qaysi xususiyatlariga ko'ra arteriyani ajratib olish mumkin?  
Javob: Elastik tolalar. Tashqi va ichki elastik membranalarning mavjudligiga ko'ra.
430. Arteriya va venalarning devori 3 qavatdan iborat. Shulardan qaysi birida "tomirlarning tomirchalarini" ko'rishimiz mumkin?  
Javob: Tashqi yoki adventitsiya qavatida.
431. Preparatda qon kapillyarlarni chetlab o'tib arteriolalardan to'g'ri venulalarga quyiladigan mikroskopik tomirlarni ko'rishimiz mumkin. Ushu tomirlar nima deb nomlanadi?  
Javob: Arterio-venulyar anastomozlar.
432. Preparatda shunday qon tomirlar to'ri ko'rinadiki, ularda qisqarish natijasida qon tomir bo'shlig'ini berkitib qo'yadigan kuchli rivojlangan bo'yamasiga yo'nalgan mushak qavati mavjud. Ushbu tomirlarning nomini ayting.  
Javob: Yopiq tipdagi arterio-venulyar anastomozlar.
433. Yurakning devori 4 qavatdan tashkil topgan. Shulardan qaysi biri qon tomirlarning devori bilan gistogenez va to'qima tuzilishi jihatidan o'xshash?  
Javob: Endokard.
434. Kardiomiotsitlarning ultrastrukturasini o'rganish davomida och va to'q disklari mavjud bo'lgan, ko'p miqdorda mitoxondriyalar tutuvchi yaxshi rivojlangan miofibrillalar aniqlangan. Ushbu hujayralar kardiomiotsitlarning qaysi tipiga mansub?  
Javob: Tipik kardiomiotsit.
435. Kardiomiotsitlarning ultrastrukturasini o'rganish davomida ba'zi kardiomiotsitlar ko'p miqdorda miofibrilla va mitoxondriya tutishi, lekin kam miqdorda sarkoplazma tutishi aniqlangan. Yana bir kardiomiotsitlarda esa aksincha, kam miqdorda miofibrilla va mitoxondriya va ko'p miqdorda sarkoplazma tutishi aniqlangan. Ushbu kardiomiotsitlarning turini aniqlang.  
Javob: Birinchisi - tipik kardiomiotsitlar, ikkinchisi - atipik kardiomiotsitlar.
436. Kuchli sovuq qotish natijasida terining oqarishi kuzatiladi. Ushbu holat qon-tomir tizimining qanday o'ziga xos gisto-funksional xususiyati bilan bog'liq?  
Javob: Arteriola devoridagi silliq mushak tolalarining qisqarishi, gemokapillyarlar tarkibidagi endoteliy va peritsitlarining shish hosil qilishi mikrotsirkulyator oqim tomirlarida qon aylanishi kamayishiga olib keladi.
437. Emotsional ruhiy holatdan so'ng 30 yoshli insonning yuragining urushi minutiga 112 marta. Yurak o'tkazuvchi sistemasining qaysi bo'limi bunday o'zgarishga javobgar?  
Javob: Sinoatrial tugun
438. Yangi tug'ilgan chaqaloqda qorinchalarda miokardni rivojlanishida nuqson borligi aniqlandi. Qaysi embrional manbaning noto'g'ri rivojlanishi hisobiga yuzaga keladi?  
Javob: Splanxnotomning visseral varag'i hisobiga
439. Endokard va miokardning orasida och sitoplazmaga, yadrosi uncha katta bo'lmagan, hamda eksentrik joylashgan xujayra mikroskop ostida aniqlandi. Bu qaysi xujayralar?  
Javob: Purkinye xujayralari
440. Qizil suyak ko'migining preparatini mikroskop ostida tekshirganimizda, sinusoid kapillyarlar orasida joylashgan gigant xujayralar aniqlandi. Ushbu xujayralarning parchalanishidan qaysi xujayralar hosil bo'ladi?  
Javob: Qon plastinkalari
441. Dermadan tayyorlangan biopstatni o'rganganimizda, qon tomirlar aniqlangan bo'lib, ularning o'rta pardasida tarkibida yirik silliq mushaklarni tutganligi aniqlangan. Bu qaysi qon tomir?  
Javob: Mushak tipdagi arteriyalar

## QON YARATUVCHI A'ZOLAR

442. Miroskop bilan ko'rilganda odamning qon yaratuvchi a'zosi stromasida megakariotsitlar borligi aniqlandi. Bu qaysi qon yaratuvchi a'zo?

Javob: Qizil suyak ko'migi.

443. Qon yaraluvchi a'zodan tayyorlangan preparatda rivojlanishning turli bosqichidagi granulotsitlar aniqlangan. Bu qaysi qon yaratuvchi a'zo?

Javob: Qizil suyak ko'migi.

444. Qizil suyak ko'migi kapillyarlarining devori qonga granulopoetik qatorning segment yadroli leykotsitlardan boshqa hamma hujayralarini o'tkazish qobiliyatiga ega. Bular qaysi hujayralar?

Javob: Yosh granulotsitlar, tayoqcha yadroli granulotsitlar.

445. Taloq qon yaratuvchi a'zo bo'lib hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda uni "eritrotsitlar mozori" deb ham atashadi. Taloqning qaysi tuzilmasida gistokimyoviy usullar yordamida temir moddasini aniqlash mumkin?

Javob: Taloqning qizil pulpasida.

446. Taloq - qon yaratuvchi a'zo. Ammo, u qizil suyak ko'migi uchun temir yetkazib beruvchi bo'lib hisoblanadi. Taloqdagi temir manba'si bo'lib nima hisoblanadi?

Javob: O'lgan eritrotsitlarining gemoglobini.

447. Taloqda temir miqdorinng oshganligi aniqlandi. Ushbu holat nimadan xabar beradi?

Javob: Eritrotsitlar emirilishining oshganidan xabar beradi.

448. Preparatda turli qon yaratuvchi a'zolaridan olingan bir necha xil limfoid follikul berilgan. Shulardan taloqning limfoid follikulini qanday belgilariga ko'ra boshqalardan farqlash mumkin?

Javob: Markaziy arteriyaning borligi bilan.

449. Tadqiqotchilarning oldiga qon yaratuvchi a'zolarining o'zaro limfotsitlari va epiteliyal to'qima hujayralarining tuzilishiga ko'ra bir-biriga o'xshashligini aniqlash maqsad qilib qo'yilgan. Buning uchun qaysi qon yaratuvchi a'zolaridan foydalanish kerak?

Javob: Timus, murtaklar, me'da-ichak traktidagi follikullar.

450. Timus, taloq, qizil suyak ko'migi, limfa tugunlaridan tayyorlangan preparatlar berilgan. Bu a'zolarining stromasining o'zaro farqi nimada?

451. Javob: Taloq, qizil suyak ko'migi, limfa tugunlarining stromasini retikulyar to'qima tashkil qiladi. Timusning stromasini esa epiteliyal to'qimasi.

452. Berilgan uchta mikrofotografiyada follikul ko'rinishidagi limfoid to'qimadan tashkil topgan a'zolarining qismlari berilgan. Bundan tashqari a'zoning tarkibida quyidagilarni ko'rish mumkin: birinchisida - ko'p qavatli muguzlanmaydigan epiteliyani, ikkinchisida - bir qavat silindrsimon epiteliyani, uchinchisida - silliq miotsitlar tutuvchi zich biriktiruvchi to'qimani. Bu preparatlarning nomlanishini ayting.

Javob: Tanglay murtagi, ichak devori, taloq.

453. Bemorda eritropoez, granulotsitopoez, trombositopoez jarayonlari buzilgan. So'z qaysi qon yaratuvchi a'zoning patologiyasi haqida ketyapti?

Javob: Qizil suyak ko'migi zararlangan.

454. Taloq va limfa tugunining biriktiruvchi to'qimali kapsulasida alohida silliq mushak hujayralarining tutamlari mavjud. Bu a'zolarining maxsus tuzilishi ularning qaysi vazifalari bilan bog'liq?

Javob: Qon va limfani depolash va ajratish.

455. Taloq va limfa tuguni qon va limfani depolash qobiliyatiga ega. Bu a'zolarining qaysi tuzilmalari bu vazifani bajaradi?

Javob: A'zolarining kapsulalsida silliq mushak to'qimasining mavjudligi.

456. Qon yaratuvchi a'zoldan tayyorlangan ikkita preparat berilgan. Birinchi preparatda follikul periferiyasida qon tomir mavjud, ikkinchi preparatda follikul qon tomir tutmaydi, undan limfoid to'qimaning tasmalari chiqadi. Preparatda qaysi qon yaratuvchi a'zolar berilgan?

Javob: Birinchisida - taloq, ikkinchisida - limfatik tugun.

457. Bemorda me'da shirasi kislotaliligi pasayishi natijasida temir so'rilish jarayoni buziladi. Ushbu holatda gemopoezning qaysi turi va qaysi qon yaratuvchi organda zararlanadi?

Javob: Eritropoez. Qizil suyak ko'migida.

458. Timusdan tayyorlangan ikkita mikrofotografiya berilgan. Birinchisida po'stloq va mag'iz moddalar orasidagi chegara aniq emas, ikkinchisida po'stloq modda mag'iz moddadan aniq farqlanadi. Qaysi mikrofotografiyada timusning himoya reaksiyalarida qatnashayotgan davri berilgan?

Javob: Birinchi mikrofotografiyada.

459. Jonivor-retsipiyent organizmiga yot to'qimaning ko'chirib o'tkazilishi natijasida, ko'chirib o'tkazilgan to'qima hujayralarining nobud bo'lishini ta'minlovchi ximoya reaksiyalari rivojlanadi. Retsipiyent organizmidagi qaysi hujayralar ko'chirib o'tkazilgan to'qimani nobud qiladi? Ular qaysi organda hosil bo'ladi?

Javob: T-limfotsitlar - killerlar, timusda hosil bo'ladi.

460. Taloqda mikrotsirkulyator bo'g'imlar sfinktori yopiq xolatda. Ushbu holatda taloqning vazifasi nima?

Javob: qon deposi.

461. Qizil suyak ko'migi suyaklarning bo'shlig'ini to'ldirib turadi. Naysimon suyaklarning uch hil turi berilgan: bolalik yoshidagi, 12-18 yoshdagi va qarilik yoshidagi. Qizil suyak ko'migining holati va topografiyasi yoshga doir qanday o'zgarishlarga uchraydi?

Javob: Bolalik davrida qizil suyak ko'migi naysimon suyakning epifiz va diafiz qismini to'ldirib turadi, 12-18 yoshlarda diafiz sohasidagi qizil suyak ko'migi sariq suyak ko'migiga aylanadi, qarilik davrida qizil va sariq suyak ko'migi shilliqsimon konsistensiyaga ega bo'ladi.

462. Rentgen nurlari ta'sirida limfa tugunlarining limfopoetik funksiyasining pasayishi va a'zolarining morfologik o'zgarishlari kuzatiladi. Nurlanish po'stloq moddaning qalinligiga, limfatik follikullarning miqdoriga va reaktiv markazlarning kattaligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Javob: Po'stloq modda yuzasi kichrayadi, limfod follikullar soni kamayadi, reaktiv markaz yuzasi kichrayadi.

463. O'q otar qurol bilan yaralanish natijasida o'tkir qon ketishi kuzalilgan. Ushbu holat suyak ko'migining gemopoetik faolligiga va blast hujayralar miqdoriga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Javob: Barcha qon yaratuvchi organlarning gemopoetik faolligi oshadi, blast hujayralar miqdori oshadi.

464. Yangi tug'ilgan jonivorni tug'ruqdan so'ng steril sharoitga joylashgan. Ushbu holatda periferik limfoid a'zoldarda ikkilamchi follikullar rivojlanadimi? Javobingizni asoslab bering.

Javob: Yo'q, rivojlanmaydi. Chunki steril sharoitda organizmga tashqi muhitdan antigen tushmaydi.

465. Bemorning qon tahlilida eritrotsitlar sonining me'yordaligi, lekin kam miqdorda gemoglobin tutishi aniqlandi. Qaysi qon yaratuvchi a'zoning vazifasi buzilgan.

Javob: Qizil suyak ko'migi.

466. Taloqdan tayyorlangan ikkita preparat berilgan. Birinchisi yosh organizmdan, ikkinchisi esa qari organizmdan tayyorlangan. Qari organizm va yosh organizm taloqlarining o'rtasida qanday farqlar mavjud?

Javob: qari organizmning talog'ida qizil va oq pulpa atrofiyaga uchraydi, biriktiruvchi to'qima ko'payadi, follikullarning soni va o'lchami, makrofaglarning, limfotsitlarning soni kamayadi, donador leykotsit va bazal hujayralarning soni ortadi.

467. Agar timusi olib tashlangan jonivorga yot organ ko'chirib o'tkazilsa, ajralib tushish reaksiyasi kuzatilmaydi. Ushbu holat sababini tushuntiring.

Javob: Hujayra immuniyettini ta'minlovchi T-limfotsitlar hosil bo'lmaydi.

468. Yangi tug'ilgan jonivorning timusi olib tashlandi. Bu operatsiya natijasida antitelo hosil qilish qobiliyati keskin susaygan. Ushbu holatning sababini tushuntirib bering.

Javob: T-limfotsitlarning shakllanishi va B-limfotsitlarning plazmatik hujayralarga aylanishi buziladi.

469. Gistologik preparatdagi a'zoning parenximasi limfoid tugunchalar hosil qilib joylashgan limfoid to'qimadan iborat. Diffuzholdayotgugunchalardamarkaziyarteriyamavjud. A'zoning nomini ayting?

Javobi: taloq

470. Oshpaz ehtiyotsizlik natijasida qolini bug'da kuydirib oldi. Qaysimodda konsentratsiyasining oshishi terining kuygan joyida qizarish, shish, og'riqning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi?

Javobi: gistamin

471. Qariyalarning o'smakasalliklarigachalinish ehtimoli kattaroq hisoblanadi. Buningasosiysababi:

Javobi: hujayraviy immunitetni susayishidir.

472. Timusda T-limfotsitlar-helperlarning hosil bo'lishi toxtatildi. Bunda immunogenezning qaysi jarayoni birinchi navbatda buziladi?

Javobi: B-limfotsitlarning plazmotsitlarga aylanishi.

473. Bemorningkuyganjoyigadonor terisi ko'chirib o'tkazildi. 8-kundan so'ngtransplantantrangiog'zgarib, o'rnida shishpaydobo'lganva 11 kunga kelib joyidan ko'cha boshladi. Qaysi hujayralar bunda faol ishtirok etadi?

Javobi: T-limfotsitlar

474. Morfologiktekshiruvdavomidataloqda immun jarayonlarning faollashgani aniqlandi. Qaysi tuzilmalarda T-limfotsitlarning antigenga bog'liq bo'lmagan proliferatsiyasi sodir bo'ladi?

Javobi: oqpulpaningperiarterialzonasida

475. Daraxtlargullashpaytida45 yoshliayolningnafasyollarivako'zlaridagiperemiya, shish, shilliqsekretningajralishikabio'tkiryalig'lanishalomatlarianiqlandi.

Qondaqaysileykotsitlarningsonioshganbo'ladi?

Javobi: bazofiliya

476. Yangitug'lganchaqaloqningtimusito'liqrivojlanmaganianiqlandi. Gemopoezning qaysi turi buzilgan?

Javobi: limfotsitopoez

477. 46 yoshlibemordagranulotsitopoez va trombositopoez jarayonlarining normal kechinishi buzilgan. Qaysi zodapatologikog'zgarishketgan?

Javobi: qizilsuyakko'migi

478. Shifokorko'rigigakelgananginakasalligigauchraganbemorningtanglaymurtaklaridashishianiqlandi. Qaysi strukturalar bu jarayonda ishtirok etadi?

Javobi: lifatik tugunchalar

479. So'lak bezlarigipofunksiyasida og'izbo'shlig'ishilliqqavatining qurishi, tez-tezshikastlanib turishivayallig'lanishikuzatiladi.

So'laktarkibidagiqaysimoddatabiyerezistentlikni amalga oshiradi?

Javobi: lizotsim

480. Bemorga ekzogen oqsiltutuvchi preparatlar yuborilgandan so'ng uning qonida plazmotsitlar ishlab chiqargan antitelolarning soni oshgani aniqlandi. Plazmotsitlar qonning qaysi hujayralaridan hosil bo'ladi?

Javobi: B-limfotsitlar

481. Gistologik preparatdayiriko'simalargaega, yuzasidagi invaginatsiyalarda eritroblastlar joylashgan hujayra ko'rinib turibdi. Preparatdagi a'zoning nomini ayting?

Javobi: Qizilsuyakko'migi

482. 6 yoshli bolaning miyeloid to'qimasidan olingan surtmadagi hujayralarning differentsialanishi davomida yadrosi piknozga uchrab sitoplazmadan chiqib ketish jarayoni aks etgan. Gemopoezning qaysi turi aniqlandi?

Javobi: Eritrotsitopoez

483. Elekronnogrammadagi makrofagik tabiatli hujayraning o'simalari bo'ylab differentsialanishi turli bosqichdagi eritrotsitlar joylashgani ko'rinmoqda. Qaysia'zokeltirilgan?

Javobi: Qizilsuyakko'migi

484. Geterotransplantatsiya natijasida a'zoning ko'chishi aniqlandi. Qonning qaysi hujayralari bu jarayonni amalga oshiradi?

Javobi: T-killerlar

485. Gistologik preparatdagi a'zodaning stromasini tashkil etuvchi retikulyar to'qimada adipotsitlar, makrofaglar, osteogen hujayralar ko'rinib turibdi. Qaysia'zokeltirilgan?

Javobi: Qizilsuyakko'migi

486. Timusning elekronnogrammasida differentsialanish darajasi turli bosqichda bo'lgan, sitoplazmasida chuqur invaginatsiyaga ega o'simali hujayralar ko'rinmoqda. Timusning qaysi hujayralari uchun ushbu tuzilmalar xos?

Е. лимфобласт

Javobi: interdigirlovchi hujayralar

487. Gistologik preparatdagi a'zoning retikulyar to'qimasida qonning etuk shaklli elementlari xamda limfoid tugunchalar ko'rinmoqda. Bu qanday a'zo?

Javobi: taloq

488. Preparatdagi a'zoda limfotsitlar uch turdagi limfoid tuzilmalar hosil qilib joylashgan: limfatik tugunchalar, mag'iz tasmalar va mag'iz sinuslar. Bu qanday a'zo?

Javobi: limfa tuguni

489. Preparatda bo'laklarga ajralgan a'zo keltirilgan. Uning stromasini retikuloepitelial hujayralar tashkil etgan. Bu qanday a'zo?

Javobi: timus

490. Qon yaratuvchi a'zo bo'lakchasining mag'iz moddasi ochroq bo'yalgan bo'lib qatlamli epithelial tanachalarga ega. Bu qanday a'zo?

Javobi: timus

491. Antigenning organizmga qayta kirishi natijasida antitelolarning miqdori ko'payadi. Bu jarayon qaysi immunokompetent hujayralarning faoliyati bilan bog'liq?

Javobi: hotir limfotsitlari

492. Tajribada B-limfotsitlar nishonlandi. Hayvonlarning terisi ostiga yot oqsil yuborildi. Biriktiruvchi to'qimaning qaysi hujayralari ushbu nishonga ega bo'ladi?

Javobi: plazmotsitlar

493. 16 yoshli qizbolaning qalqonsimonbezida autoimmun yallig'lanish jarayoni ketayotgan paytda ko'p miqdorda plazmatik hujayralar aniqlandi. Qaysi hujayralarning proliferatsiyasi plazmotsitlar sonining ko'payishiga olib keldi?

Javobi: B- limfotsitlarning

494. Qizil suyak ko'migining biopatida granulotsitar qatorga kiruvchi hujayralarning ko'payib ketgani aniqlandi. Ushbu hujayralarning yadrosi rivojlanish davomida qanday o'zgarishlarga uchraydi?

Javobi: segmentatsiya

495. Qizil suyak ko'migining elektronogrammasida megakariotsitlar aniqlandi. Ularning periferik zonasida demarkatsion kanalchalar mavjud. Ushbu tuzilmalarning roli qanday?

Javobi: trombositlar hosil qilish

496. Immun tizimida nuqson bo'lgan yosh bolada T-limfotsitlarning antigenga bog'liq bo'lgan proliferatsiya va differentsialanishi o'rganildi. Qaysi a'zodan punktat olish zarur?

Javobi: timusning

497. Mikropreparatda loviyasimon shaklga ega a'zo ko'rinib turibdi. Unda po'stloq va mag'iz moddalar tafovut etiladi. Po'stloq moddasida alohida joylashgan 0,5 -1 mmli yumaloq shakldagi tugunchalar, mag'iz moddasida esa mag'iz tasmlari ko'rinmoqda. Bu qaysi a'zo?

Javobi: limfa tuguni

498. Limfatugunidan gistologik preparat tayorlandi. Unda parakortikal zonaning kengaytib ketgani aniqlandi. Limfa tugundagi qaysi hujayralarining proliferatsiyasi bu jarayonga sabab bo'ldi?

Javobi: T-limfotsitlarning

499. 35 yoshli bemorning qizil suyak ko'migi punktati tekshirilganda megakariotsitlarning ancha kamaygani aniqlandi. Bunda periferik qonda qanday o'zgarishlarni aniqlash mumkin?

Javobi: trombositlarning kamayishi

500. Talabaga ikki hil surtma berildi. Ularning birida ko'rishmaydonning hammasini eritrotsitlar egallagan, ikkinchisida rivojlanishi turli bosqichda bo'lgan qonning shaklli elementlari ko'rinib. Bu qanday surtmalar?

Javobi: qon va qizil suyak ko'migi preparati

501. Talabaga ikkita gistologik preparat berildi. Ularning har ikkisi dalimfa tugunchalar tutgan a'zo aks etgan. Birinchi preparatda faqat follikulalar, ikkinchisida esa ekstsentrik arteriya tutuvchi follikulalar ko'rinmoqda. A'zoning nomlarini toping.

Javobi: birinchi preparat-limfa tuguni, ikkinchi -taloq

502. Terining kuygan joyiga cho'chqa terisini ko'chirib o'tkazildi. Transplantantni (cho'chqa terisini) yot jism sifatida chiqarilib yuborilishiga qaysi hujayralar javobgar?

T-killerlar

503. Yosh bolada tug'ma immun tanqisligi aniqlandi. Hujayraviy immunitetning buzilishi sababli tez-tez shamollash kasalligiga chalinishi sodir bo'lmoqda. Ushbu jarayon qaysi a'zodagi o'zgarishlarning natijasidir?

Javobi: Timus

504. Qizil suyak ko'migining surtmasida myeloid qatordagi hujayralar va adipotsitlar orasida o'zaro o'simtalar bilan tutashgan oksifil sitoplazmali yulduzsimon hujayralar uchrab turibdi. Bu qanday hujayralar?

Javobi: retikulyar hujayralar

505. Tanglay murtagining gistologik preparatda leykotsitlar bilan infiltratsiyalangan kriptalar aniqlandi. Ushbu epiteliyning nomi nima?

Javobi: ko'p qavatli yassi muguzlanmaydigan

506. Postembrional gemopoez differonlarning birida hujayralar sitoplazmasi bazofiliyasining tobora kamayib, oksifiliyasining kuchayishi bilan birga yadro hujayradan chuqib ketishi kuzatiladi.

Buholatqaysi gemopoez turigaxos?

Javobi: eritrisitopoez

507. Gistologik preparatda qon yaratuvchi a'zo ko'rinmoqda. U turli shakldagi bo'lakchalardan tuzilgan. Har bir bo'lakchada po'stloq va mag'iz modda tafovut etiladi. Bu ta'rif qaysi a'zoga xos?

Javobi: timus

508. Plazmatik hujayralar ma'lum antigenga qarshi spetsifik antitelo ishlab chiqaradi. Antigen organizmga tushganda plazmatik hujayralarning soni ortadi. Qonning qaysi shaklli elementlari hisobiga plazmotsitlar ko'payadi?

Javobi: B-limfotsitlar

509. Gistologik preparatda bo'lakchalarga ajralgan a'zo aniqlandi. Har bir bo'lakcha po'stloq va mag'iz moddaga ega. Bo'lakchalar parenximasini turli bosqichda rivojlanuvchi T- limfotsitlardan iborat limfoid to'qima tashkil qiladi. Mikromuhitni epitelioretikulyar hujayralar hosil qilgan. Mag'iz moddada Gassal tanachalar joylashgan. Qaysi a'zoxaqidaso'zketmoqda?

Javobi: timus

510. Tashhis qo'yish maqsadida bemor qon yaratuvchi a'zosining parenximasidan birbo'lakcha olindi, unda megakariotsitlar aniqlandi. A'zoning nomini ayting.

Javobi: qizil suyak ko'migi

511. Qizilsuyakko'migida rivojlanayotgan hujayralar orolchalar holida joylashgan. Ba'zi orolchalar makrofaglar bilan aloqada. Ushbu orolchalarda qaysi shaklli elementlar rivojlanadi?

Javobi: eritrotsitlar

512. Gemolitik anemiya kasalligiga uchragan bemorda taloq olib tashlandi. Bunda qaysi jarayon susayadi?

Javobi: limfotsitpoez

513. Bemor organizmida timozinga nisbatan antitelolar aniqlandi. Bunda birinchi navbatda qaysi hujayralar differentsialanish jarayonining buzilgan ?

Javobi: T-limfotsitlarning

514. Gistologik preparatdagi a'zoda po'stloq va mag'iz moddalar tafovut etiladi. Po'stloqmodda limfatik tugunchalar tutuvchi periferik kortikal xamda parakortikal zonalaridan tashkil topgan. Mag'iz moddasida mag'iz tasmalari, sinuslari va trabekulalar ajratiladi. Bu ta'rif qaysi a'zoga xos?

Javobi: limfatuguni

515. Ma'lumki, qizil suyak ko'migida ko'pgina kapillyarlar joylashgan bo'lib, etilgan qonshaklli elementlari ularning devoridan qonga sizib o'tadi. Ushbu kapillyarlar qaysi turga mansub?

Javobi: sinusoid

516. Organizmga nojo'yata'sirko'rsatilganda timusning tarkibi o'zgaradi, ya'ni timotsitlarning ko'p miqdorda nobud bo'lishi yoki periferik a'zolarga ko'chishi, epitelioretikulyar hujayralarning proliferatsiyasi. Bu jarayon qanday nomlanadi?

Javobi: aktsidental involyutsiya

517. 40 yoshdagi erkakning timusini gistologik tekshiruvdan o'tkazilganda, timus parenximasi tuzilmalarining soni qisman kamaygani, yog', siyrak biriktiruvchi to'qima, Gassal tanachalarning soni esa ko'paygani ma'lum bo'ldi. A'zoning umumiy og'irligi o'zgarmagan. Ushbu holat qanday nom bilan ataladi?

Javobi: yoshgako'rao'zgarish

518. Yangi tug'ilgan chaqaloqning timusi tug'ma atrofiyaga uchragan. Bunda immun tizimning qaysi hujayralari ko'proq aziyat chekadi?

Javobi: T-limfotsitlar

#### XAZM SISTEMASI

519. 55 yoshli bemorda, qonida glyukagon miqdori kamaygan. Meda osti bezining qaysi xujayralarning buzilishi tufayli yuzaga keladi?

Javob: Langengars orolchalarining A-xujayralari



520. Medaning subtotal rezeksiyasi qilingandan bir yarim yil o'tgandan so'ng, bemorning qonini laborator tahlilida aniqlanishicha: anemiya, leyko- va trombositopeniya, rang ko'rsatkichi - 1.3, megaloplast va megalotsitlarning bo'lishi aniqlandi. Qaysi faktarnig yetishmovchiligi bunday qolatga olib keladi?

Javob: Xlorid kislotaning yetishmovchiligi

521. Tilning ventral, yon va dorzal yuzalaridan preparatlar tayyorlangan. Ularni qaysi belgilari orqali bir-biridan farqlash mumkin?

Javob: Til so'rg'ichlari va qoplovchi epiteliysi orqali.

522. So'lak bezlaridan mutsikarmin bilan bo'yalgan preparatlar tayyorlangan (quloq oldi, til osti, jag' osti). Qaysi belgilarga ko'ra bu bezlar bir-biridan farqlanadi?

Javob: Mukotsitlarning (shilliq ishlovchi hujayralarning) miqdoriga ko'ra. Qulok oldi bezlarida mukotsitlar bo'lmaydi, jag' ostida kam miqdorda, til osti so'lak bezlarida esa ko'p miqdorda uchraydi.

523. Qizilo'ngachning yuqorigi va pastki 1/3 qismidan preparat tayyorlangan. Ularni qaysi belgilar orqali bir-biridan farqlash mumkin?

Javob: mushak qavatining tuzilishi va bezlarining turiga ko'ra.

524. Me'da kasalligida natijasida anemiya aniqlangan. Ushbu holat qaysi hujayralarning funksional faolligining buzilishi bilan bog'liq?

Javob: Parietal hujayralar.

525. Me'da kasalliklari me'da shirasi tarkibidagi tuz kislotasining oshishi yoki kamayishi bilan bog'liq. Ushbu holat qaysi hujayralarning funksional faolligining buzilishi bilan bog'liq?

Javob: Me'da tubidagi bezning pariyetal (o'rab turuvchi) hujayrasi. Xloridlar sintezi buzilgan.

526. Me'daning shilliq qavatidan tayyorlangan preparatda yirik, yumoloq hujayralar ko'rindi. Sitoplazmasi oksifil. Bu hujayralar qanday nomlanadi? Qayerda joylashgan va nima funksiyani bajaradi?

Javob: Parietal (o'rab turuvchi) hujayralar. Ular naysimon fundal bezlarda, bosh hujayralarning atrofida jotslashgan. Ular bez yuzasiga xlorid ajratadi.

527. Me'da bo'shlig'ida hazm jarayonini qiyinlashtiradigan shilliq miqdorining oshganligi aniqlangan. Ushbu holat qaysi hujayralar funksiyasining buzilishi bilan bog'liq?

Javob: Me'daning shilliq qavatidagi naysimon bezning bo'yin qismida joylashgan bo'yin hujayralari yoki bezning tanasi va tubidagi bosh hujayralar orasida joylashgan qo'shimcha hujayralari.

528. Me'daning tubi va pilorik qismidan tayrlangan preparat berilgan. Tuzilishiga ko'ra ularni bir-biridan qanday farqlash mumkin?

Javob: Bezlarining tuzilishiga ko'ra (pariyetal hujayralarning bor yo'qligiga ko'ra). Me'daning tubida ko'p bo'ladi, pilorik qismida bo'lmaydi.

529. Shikastlanish oqibatida ingichka ichak shilliq qavatining epiteliysi zararlangan. Qaysi hujayralar hisobiga uning regeneratsiyasi amalga oshadi? Ular ichakning qaysi tuzilmalarida jotsylashgan?

Javob: Ingichka ichakning kriptalarida joylashgan hoshiyasiz hujayralar hisobiga.

530. Hazm jarayonida ichak vorsinkalarining faolligi oshishi natijasida ularinnig uzunligi oshadi. Ushbu holat nima bilan bog'liq?

Javob: So'rish jarayoni bilan. Vorsinkaning silliq mushak hujayralarining qisqarishi bilan.

531. Ichak vorsinkalari uch xil hujayra tutuvchi epiteliy bilan qoplangan. Ulardan qaysi biri devoriy hazm jarayonida ishtirok etadi.

Javob: Hoshiyali enterotsitlar.

532. Uzoq muddat antibiotiklar bilan davolanish natijasida bemorning yo'g'on ichagida kletchatkaning so'rilish jarayoni buzilgan. Ushbu holat nima bilan bog'liq?

Javob: Mikrofloraning buzilishi.

533. O'n ikki barmoqli ichak va och ichakdan tayyorlangan preparatlar berilgan. Ularni bir-biridan tuzilishiga ko'ra qanday farqlash mumkin?

Javob: O'n ikki barmoqli ichakdagi duodenal bezlarning mavjudligiga ko'ra.

534. Och ichak va chambar ichakdan tayyorlangan preparat berilgan. Ularni bir-biridan tuzilishiga ko'ra qanday farqlash mumkin?

Javob: och ichakda vorsinkalarning mavjudligiga ko'ra, chambar ichakda vorsinkalar bo'lmaydi.

535. Ichakning epitelial plastinkasidan tayyorlangan, gemotoksilin-eozinga bo'yalgan preparatda och rangdagi, pufak shaklidagi hujayralar aniqlangan. Bu qanday hujayralar?

Javob: Shilliq ishlab chiqaruvchi qadahsimon hujayralar.

536. Jigardan tayyorlangan ikkita preparat berilgan: birinchi preparatda bo'lakchalar biriktiruvchi to'qimali to'siq orqali bir-biridan keskin ajralib turadi. Ikkinchi preparatda bo'lakchalar aro biriktiruvchi to'qimali to'siq sust rivojlangan. Berilgan preparatlardan qaysi biri odam jigaridan tayyorlanganligini aniqlang.

Javob: Odam jigari preparati ikkinchi preparatda berilgan, chunki biriktiruvchi to'qimali to'siq kuchsiz rivojlangan.

537. Gepatotsitlar sitoplazmasida ko'p miqdorda glikogen donachalari mavjudligi aniqlangan. Ushbu holat organizmdagi qaysi jarayonlar bilan bog'liq?

Javob: Qonda qand miqdorining oshishi bilan.

538. Odam ratsioinng ko'p qismini uglevod saqlovchi oziq-ovqatlar tashkil qiladi. Jigarning qaysi funksiyasi faollashadi? Ushbu holatda hepatotsitlar sitoplazmasida qanday tuzilmalar hosil bo'ladi?

Javob: Glikogen hosil qilish funksiyasi faollashadi. Gepatotsitlar sitoplazmasida glikogen donachalari hosil bo'ladi.

539. Jigarning portal tizimiga bo'yoq yuborilgan. Jigarning qaysi tomirlari bo'yoq bilan ta'sirlanadi?

Javob: Jigardagi hamma vena tomirlari ta'sirlanadi: bo'lakchalararo, bo'lakcha atrofidagi, markaziy, bo'lakcha osti, yig'uv va jigar venasi, shuningdek bo'lakcha ichi sinusoid kapillyarlar ham.

540. Tajriba hayvonining qoniga tush yuborilgan. Ma'lum muddatdan so'ng bo'yoqning jigarga tushganligi aniqlandi. Tushning jigarga tushishi uchun qaysi hujayralar sezgir? Ushbu holatda sezgir hujayralarda qaysi jarayon kechadi?

Javob: Kupfer hujayralari, fagotsitoz.

541. Bizga ma'lumki, normada o't suyuqligi o't kapillyaridan qon tomirga tushmaydi. Ushbu holat hepatotsitlarning qaysi ultrastruktur tuzilmalariga bog'liq?

Javob: Jigar plastinkalarina hosil qiluvchi hujayralarning biliar qutbidagi zich birikishlari.

542. Jigarning oqsil hosil qilish funksiyasi buzilganligi aniqlandi. Ushbu holatda hepatotsitlarning ultrastrukturasi nimalarni ko'rish mumkin?

Javob: Donador endoplazmatik to'rning sust rivojlanganligini.

543. Oqsil sekret ajratuvchi ikki hil ekzokrin bezdan tayyorlangan preparat berilgan. Birinchi preparatda sitoplazmasi asosli bo'yoqlar bilan bir tekisda bo'yalgan hujayralardan tashkil topgan bez oxirlarini ko'rishimiz mumkin. Ikkinchi preparatda asosiy qismi asosli bo'yoqlar bilan bo'yalgan, apikal qismi esa nordon bo'yoqlar bilan bo'yalgan hujayralardan tashkil topgan bez oxirlarini ko'rishimiz mumkin. Preparatlarning qaysi biri me'da osti bezidan tayyorlanganligini aniqlang.

Javob: Ikkinchi preparat me'da osti bezidan tayyorlangan.

544. Xazm sistemasining oqsil sekret sintezlovchi bezlaridan tayyorlangan preparatda bez oxirlarining orasida yirik kapillyarlar bilan o'ralgan hujayralar to'plamini ko'rishimiz mumkin. Bu hujayralarning sitoplazmasi bezning boshqa hujayralariga qaraganda ochroq bo'yaladi. Bu qaysi bez? Ko'rish maydonida qaysi hujayralar ko'rinmoqda?

Javob: Me'da osti bezi. Me'da osti bezining orolchalardagi hujayralari (insulotsitlar).

545. Och holatdagi va qisman to'q holatdagi jonivorlarinng me'da osti bezidan tayyorlangan preparat berilgan. Preparatda och holatdagi jonivorning pankreotsitlarini to'q holatdagi jonivorning pankreotsitlaridan qanday farqlash mumkin?

Javob: och holatdagi jonivorda hujayraning apikal qismida zimogen donachalarning ko'pligini, to'q holatda esa donachalarning keskin kamayganligini ko'rish mumkin.

546. Jonivorga me'da osti bezi orolchalarining A-hujayralariga tanlab zararli ta'sir ko'rsatadigan preparat yuborilgan (kobalt tuzlari). Me'da osti bezining qaysi funksiyasi buziladi?

Javob: Glyukogon ajratishi buziladi.

547. Jonivorga me'da osti bezi orolchalarining B-hujayralariga tanlab zararli ta'sir ko'rsatadigan alloksan yuborilgan. Me'da osti bezining qaysi funksiyasi buziladi?

Javob: Insulin ishlab chiqarilishi buziladi.

548. 70. Tishning bo'ylama shlifidan tayyorlangan preparatda sariq-jigarrang chiziqlarni ko'rishimiz mumkin. Chiziqlarinng yo'nalishi qiyshiq holatda. Bu qanday chiziqlar? Ular qanday hosil bo'lgan?

Javob: Retsius chiziqlari. Emalning yetarli miqdorda oxaklanmagan sohasi.

549. Kichik ob'yektivda kattalashtirib ko'rilganda tishnng bo'ylama shlifida butun emal yuzasi bo'ylab radial yo'nalgan ingichka tolalarni ko'rishimiz mumkin. Bu qanday chiziqlar? Ular qanday hosil bo'lgan?

Javob: Gunter-Shreger chiziqlari. Emal prizmalari tutamlarining yopishishi hisobiga hosil bo'ladi.

550. Tish shlifining ko'ndalang kesmasida butun emal yuzasi bo'ylab radial yo'nalgan qora chiziqni ko'rish mumkin. Dekaltsinatsiyadan so'ng ham chiziq yo'qolmaydi. Bu qanday chiziqlar? Ular qanday hosil bo'lgan?

Javob: Emal plastinkasi. Bu prizmalar aro kam ohaklangan soha. Bular kariyes rivojlanishi uchun darvoza bo'lib ham hisoblanadi.

551. Tishning ko'ndanang kesmasida dentin-emal chegarasida emalning ichki sohasida egri-bugri yo'nalgan qora chiziqlarni ko'rishimiz mumkin. Oxirgi qismlari ba'zida tutamlar ko'rinishida joylashadi. Bu qanday chiziqlar? Ular qanday hosil bo'lgan?

Javob: Emal tutamlari. Bu prizmalar aro yetarlicha ohaklanmagan soha. Bular kariyes rivojlanishi uchun darvoza bo'lib ham hisoblanadi.

552. Tish shlifida emal va dentin orasida to'q chiziqni ko'rishimiz mumkin. Bu qanday chiziqlar? Ularning ko'rinishini tushuntirib bering.

Javob: Dentin-emal chegarasi. U notekis yeshikchali ko'rinishga ega. Emal tomonga dentin kanalchalari tarmoqlanib kiradi.

553. Tish shlifida dentin-emal chegarasiinng emal qismida radial yo'nalgan, kalta, qalin chiziqlar aniqlangan. Ulardan ba'zilari kolba shaklini eslatadi. Bu qanday chiziqlar? Ularning hosil bo'lishi qanday?

Javob: Emal duklari Bu kolbasimon kengayishlar ba'zi emalga tegib turuvchi dentin kanalchalari hisobiga hosil bo'ladi.

554. Gematoksilin-eozin bilan bo'yalgantishning tishning kesmasida emal va dentinning orasida pushti chiziq ko'rinayapti. Bu chiziq nima?

Javob: bu pre dentin, yani pulpa oldi dentini

555. Preparatda chuqur bo'lmagan so'rg'ichlar hosil qiluvchi ko'p qavatli yassi muguzlanmaydigan epiteliy ko'ringan. Epiteliy ostida siyrak tolali biriktiruvchi to'qima va kollagayen tolalarini ko'rish mumkin. Yanada chuqurroqda shilliq ishlovchi bezlar joylashgan. Ushbu preparat og'iz bo'shlig'ining qaysi qismidan olingan?

Javob: Material qattiq tanglayning orqa qismidan (bezli qismi) olingan.

556. Preparatda chuqur bo‘lmagan so‘rg‘ichlar hosil qiluvchi ko‘p qavatli yassi muguzlanmaydigan epiteliy ko‘ringan. Epiteliy ostida siyrak tolali biriktiruvchi to‘qima va kollagayen tolalarini ko‘rish mumkin. Yanada chuqurroqda yog‘ to‘qimasi joylashgan. Ushbu preparat og‘iz bo‘shlig‘ining qaysi qismidan olingan?  
Javob: Qattiq tanglayning yog‘ qismidan (oldingi qismi).

557. Og‘iz bo‘shlig‘idan preparat tayyorlab ko‘rilganda, ko‘p qavatli yassi epiteliy bilan qoplangianligi aniqlandi. Epiteliyning ba‘zi joylarida limfotsitlar mavjud. Epiteliy ostida yumoloq shakldagi limfotsitlar to‘plamini ko‘rish mumkin. Bu nimaning preparati?  
Javob: Murtak (til, xalqum yoki tanglay murtaklari).

558. Mikroskopning ko‘rish maydonida labning qaysi qismi berilgan: epiteliy biriktiruvchi to‘qimali so‘rg‘ichlarga davom etgan, chuqur sohalarda ter va so‘lak bezlarini ko‘rish mumkin?  
Javob: Labning teri qismi.

559. Mikroskopning ko‘rish maydonida labning qaysi qismi berilgan: epiteliy qisman muguzlanuvchi? Xususiy plastinkasi so‘rg‘ichlar ko‘rinishida epiteliyga davom etadi va ko‘pgina qon tomirlar tutadi. Soch va ter bezlari uchramaydi. Yakka tartibdagi so‘lak bezlarini ko‘rish mumkin.  
Javob: Labning oraliq qismi.

560. Tish va milkning bo‘ylama kesmasi berilgan. Mikroskop ostida nasmit parda va milk epiteliysi orasida bo‘shliq ko‘rinyapti. Ushbu bo‘shliq qanday nomlanadi?  
Javob: Milk cho‘ntagi.

561. Pulpadan tayyorlangan preparatda yuqori differensiallashgan hujayralar - odontoblastlar berilgan. Ular 6 qavat bo‘lib joylashadi va qisqa o‘siqchalari orqali nerv oxirlari bilan bog‘lanib turadi. Ushbu tuzilish pulpaning qaysi zonasi uchun xos?  
Javob: Ushbu tuzilish pulpaning tashqi zonasi uchun hos.

562. Tish pulpasidan tayyorlangan preparatda yulduzsimon shakldagi, mayda o‘siqchalarga ega, to‘r hosil qiluvchi hujayralar aniqlangan. Bu hujayralar qanday nomlanadi?  
Javob: Fibroblastlar.

563. Tish pulpasidan tayyorlangan preparatda periferiyada qavat-qavat joylashgan hujayralarni ko‘rishimiz mumkin. Hujayralar poligonal shaklda, o‘zaro kalta o‘siqchalar yordamida birikkan. Yuqorida ta‘rifi berilgan hujayralar qanday nomlanadi?  
Javob: Odontoblastlar.

564. Tish shlifida dentin naychalari shunchalik ohaklashganki, ularni dentinning asosiy moddasidan farqlab bo‘lmaydi. Sitoplazmatik o‘siqchalarning distal oxirlari dentin kanalchalarini to‘liq berkitgan. Nay oldi dentini yuqori minerallasgan. Tish dentinidagi ushbu o‘zgarishlar necha yoshdagilar uchun hos?  
Javob: Yoshi kattalar uchun.

565. Tish pulpasidan tayyorlangan preparatda ko‘p miqdorda markadan periferiyaga tomon tarmoqlanuvchi qon tomir va nerv tolalarini tutuvchi biriktiruvchi to‘qima ko‘ringan. Ushbu preparatda pulpaning qaysi zonasi berilgan?  
Javob: Pulpaning markaziy zonasi.

566. Tish pulpasidan tayyorlangan preparatda qon tomirlari bo‘ylab joylashgan, kam differensiallashgan hujayralar aniqlangan. Bu qanday hujayralar? Ularning vazifasi nima?  
Javob: Adventitsial hujayralar. Rezerv guruhni hosil qiladi, boshqa turdagi hujayralarga differensiallashadi.

567. Lab va mitklarning ichki yuzasidan tayyorlangan preparat berilgan. Tuzilishiga ko‘ra ularni bir-biridan qanday farqlash mumkin?  
Javob: Shilliq osti qavatning bor yoki yo‘qligiga ko‘ra.

568. Aktinomitsin ta'sirida so'lak bezlarining oqsil sintezlovchi hujayralar tizimi bloklangan. So'lak tarkibida qanday modda bo'lmaydi? Ushbu holat hazm jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatadi? Qaysi hujayralar sekret ishlab chiqarishi to'xtatiladi?

Javob: Amilaza fermenti (oqsil). Uglevodlarning birlamchi parchalanish davri buziladi. Serotsitlar.

569. Tish pulpasi ekstirpatsiya qilindi. Ushbu holat dentin va emaldagi moddalar almashinuvi jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Javob: Dentin va emalga oziq moddalar va mineral tuzlarning yetkazilishishi buziladi.

570. Tishning rivojlanayotgan emal a'zosida uch xil hujayralarni farqlash mumkin: ichki, o'rta va tashqi. Shulardan qaysi biri emal rivojlanishida ishtirok etadi? Ular qanday nomlanadi?

Javob: Ichki hujayralar. Enameloblastlar.

571. Sut tishlarining rivojlanish jarayonida (gistogenez davrida) birinchi navbatda dentin hosil bo'ladi. Qaysi hujayralar uning hosil bo'lishida ishtirok etadi. Qaysi embrional kurtakdan rivojlanadi?

Javob: Odontoblastlar. Mezenxima qopchasidan.

572. 94. Sut tishlarining rivojlanishi jarayoni postembrional davrda ham davom etadi. Tishning qaysi qismi bu davrda hosil bo'ladi?

573. Javob: Tish ildizi.

574. Tish ildizining hosil bo'lish bosqichida sement rivojlanadi. Sement rivojlanishida qaysi hujayralar qanashadi? Ular qaysi embrional manbadan rivojlanadi?

Javob: Sementoblastlar. Mezenxima qopchasidan.

575. 6-8 yoshdagi bolalarda tishlarning almashinishi: sut tishlarining doimiy tishlar bilan almashinishi kuzatiladi. Qaysi embrional kurtaklar doimiy tishlarni hosil qilishda ishtirok etadi.

Javob: Sut tishlarini hosil qiluvchi: tish plastinkasining ektodermal epiteliysi va mezenxima.

576. Tishning toj va ildiz qismidan preparat tayyorlangan. Ularni bir-biridan qanday farqlash mumkin?

Javob: Toj qismi emal bilan, ildiz qismi esa sement bilan qoplangan.

577. 1 oylik bolaning og'iz bo'shlig'i shilliq qavati nam emas quruqligi bilan ajralib turadi. Ushbu holatning sabablari sizningcha nimada?

Javob: Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda so'lak bezlari morfologik va funksional jixatdan to'liq shakllanmagan bo'ladi. Ular faoliyatining pastligi chaqaloq og'iz bo'shlig'ining qurishi bilan namoyon bo'ladi.

578. 1 yoshli bolaning quloq oldi bezidan punksiya biopsiya olinganida, bez oxirlarining hujayralari konussimon shaklda ekanligi, sitoplazmasi ezozin bilan yomon bo'yalishi yoki umuman bo'yalmasligi kuzatilgan. Bu organning morfo-funksional holatiga sizning bahoingiz?

Javob: Quloq oldi bezining shilliq ajratishi yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun xos. Oqsil sekret qiluvchi hujayralar 2 yoshdan keyin rivojlana boshlaydi.

579. Bola jigarining perivaskulyar bo'shlig'ida kam miqdordagi qon hosil qiluvchi orolchalarning borligi aniqlangan. Bolaning yoshi va sog'lig'ining holati haqida sizning fikringiz qanday.

Javob: Jigarda qon yaratuvchi orolchalarining borligi yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun hos.

580. Bemorning me'da shirasini tekshirish natijasida kislotalilik keskin kamayganligi aniqlangan. Ushbu holatning morfologik mexanizmi qanday?

Javob: me'da shirasi kislotaliligining kamayishi me'daning qoplovchi hujayralari miqdorini kamayishi va funksional holatini o'zgarishi bilan bog'liq.

581. Hazm tizimi kasalliklarida til oq karash bilan qoplanadi. Ushbu holatda tilning qaysi tuzilmalari ishtirok etadi? Jarayonning mexanizmi qanday?

Javob: Tilning ipsimon so'rg'ichlarining muguz qavati. Muguz tangachalarning tushib ketishi sekinlashadi.

582. Til shililq qavatining atrofiyasi kuzatilgan. Qaysi sezgi yo'qoladi? Ushbu holatda qaysi tuzilmalar shikastlanadi?

Javob: Ta'm bilish, shuningdek harorat, taktil va og'riq sezish yo'qoladi. Ta'm bilish piyozchalari shikastlanadi.

583. Shikastlanish natijasida me'da epiteliysining zararlanishi kuzatilgan. Qaysi hujayralar hisobiga uning regeneratsiyasi amalga oshadi?

Javob: Me'da bezlaridagi bo'yin hujayralari hisobiga.

584. Kalamush jigarining 2/3 qismi rezeksiya qilingan. 7 sutka o'tgandan keyin a'zo xajmining to'liq tiklanganligi kuzatilgan. Jigar xajmining va vazifasining qisman tiklanishi qaysi jarayon hisobiga amalga oshgan?

Javob: Proliferatsiya jarayoni, gepatotsitlarinng o'sishi va gipertrofik regeneratsiyasi hisobiga.

585. Gastrit bilan kasallangan bemor me'dasining shililq qavatidan morfologik tahlil uchun biopsiya olinganda, pariyetal hujayralar miqdorining keskin kamayganligi aniqlandi. Pariyetal hujayralarning kamayishi ta'sirida me'da shirasi tarkibi qanday o'zgarishlarga uchraydi? Tahlil uchun me'da shilliq qavatining qaysi qismidan material olingan?

Javob: Me'da shirasining kislotaliligi kamaygan. Material me'da tanasi va tubidan olingan.

586. Jonivor quloq oldi bezining chiqaruv nayi bog'lab qo'yilgan. A'zoning sekretor hujayralarida qanday morfologik o'zgarishlar kuzatiladi? Chiqaruv tizimining qaysi hujayralari o'zgarishga uchramaydi?

Javob: Bez oxirlarining sekretor hujayralari atrofiyaga uchraydi va nobud bo'ladi. Faqat bo'lakcha ichi naylarining endokrin hujayralari o'zgarishsiz qoladi, chunki ular sekretini qonga ajratadi.

587. Surunkali gastrit oqibatida bemor me'dasining silliq qavatida yara paydo bo'ldi. Bundan tashqari me'daning kislotali sharoiti ham pasaygani aniqlandi. Me'daning qaysi asosiy faoliyati buziladi?

Javobi: oqsillarni parchalash

588. Bemorda so'lak kam miqdorda ajralib, quyuq konsistentsiyaga ega. Bundan tashqari uning fermentativlik faoliyati ham pasaygan. Qaysi bezning faoliyati buzilgan?

Javobi: quloq oldi bezining

589. Qaysi fermentning etishmasligi natijasida me'da-ichak traktida yog'larning parchalanishi buzilib, najas tarkibida neytral yog'lar miqdori ko'payadi?

Javobi: ichak lipazasi

590. Bemorning qonida albumin va globulinlar miqdori pasyngani aniqlandi. Gepatotsitlardagi qaysi organellalari faoliyatining susayishi usbu holatga olib keladi?

Javobi: donador endoplazmatik to'r

591. Me'daning tub qismidan tayyorlangan preparatdagi bezda nisbatan atsidofil sitoplazmali hujayralar ko'rinib turibdi. Elektronmikroskopik tekshiruvlar natijasida ushbu hujayralarda kanalchalardan iborat myrakkab sistema aniqlandi. Bu hujayralar nima ishlab chiqaradi?

Javobi: xlorid kislotasi

592. 35 yoshli erkak me'dasining antral qismi rezeksiya qilindi. Bunda qaysi gormonning sekretsiyasi buziladi?

Javobi: gastrin

593. Bemorning umumiy o't yo'lidagi tosh o't suyuqligini 12-barmoqli ichakka quyulishiga to'sqinlik qilmoqda. Bunda qaysi jarayonning normal kechishi buzilgan?

Javobi: yog'larning parchalanishi

594. Gastroskopik tekshiruv bemor me'dasi shilliq qavati yuzasida shilliq sekretning miqdori kamligini aniqladi. Me'dada qaysi hujayralar faoliyatining buzilishi bunga sabab bo'ladi?  
Javobi: me'daning qoplovchi epiteliy
595. Qizilo'ngachning kimyoviy kuyishi oqibatida uning o'rnida chandig' hosil bo'lishi va shu joyning o'zida torayish vujudga keldi. Biriktiruvchi to'qimaning qaysi hujayralari chandiq hasil bo'lishda ishtirok etadi?  
Javobi: etuk fibroblastlar
596. Gastroktomiyadan so'ng bemorda havfli anemiya rivojlana boshladi. Me'daning qaysi hujayralari faoliyatining etishmasligi ushbu holatga sabab bo'lishi mumkin?  
Javobi: parietal
597. Gistologik prepatda ingichka ichakning shilliq osti qavatida oqsil ishlovchi secretor oxirlariga boy bez ko'rinmoqda. Preparatda ingichka ichakning qaysi bo'limi keltirilgan?  
Javobi: 12-barmoqli ichak
598. Ingichka ichakning gistologik preparatida kriptalar tubida apical yuzasida atsidofil granularar tutuvchi, sitoplazmasi bazofil bo'yalgan to'p-to'p bo'lib joylashgan hujayralar ko'rinmoqda. Bu hujayralarning nomi nima?  
Javobi: Panet hujayralari
599. Gistologik preparatdagi a'zoning parenximasi bo'lakchalarga bo'lingani ko'rinib turibdi. Bo'lakchalar olti burchakli prizma shaklda bo'lib, o'zaro anastomoz hosil qilib joylashgan plastinkalardan tuzilgan. Plastinkalar orasidagi sinusoid kapillyarlar markaziy vena tomon radial holda joylashgan. Bu ta'rif qaysi a'zoga tegishli?  
Javobi: jigar
600. Mikropreparatdagi ingichka ichakning xususiy plastinkasida yadrolari bazofil bo'yalgan, sitoplazmasi tor gardish hosil qilgan, yumaloq to'plamlar holda joylashgan hujayralar ko'rinib turibdi. Ularning aksariyatida markaziy qismi kamroq hujayralar tutib, ochroq bo'yalgan. Qaysi morfologik tuzilma xaqida so'z ketmoqda?  
Javobi: limfatik tuguncha
601. 55 yoshli bemor me'da osti bezining fazifasining buzilishi natijasida qonda glyukogon miqdorining kamayishi bilan namoyon bo'lmoqda. Qaysi hujayralarning vazifasi buzilgan?  
Javobi: Langergans orolchasining A-hujayralari
602. Bemor 14 yildan beri qandli diabet kasalligidan aziyat chekmoqda. Endokrin orolchalari qaysi hujayralarining faoliyati so'ngan?  
Javobi: B-hujayralari
603. Bir yashar bolada ona sutinining ivish jarayoni buzilgan. Fundal bezlaridagi qaysi hujayralarda o'zgarish ro'y bergan?  
Javobi: bosh endokrinitsitlar
604. 12-barmoqli ichak epiteliysining elektron mikrosur'atida bazal qismida electronzich granularar saqlovchi hujayralar aniqlanmoqda. Bu qaysi xujayra?  
Javobi: endokrin hujayra
605. Mikropreparatdagi bez oxirgi bo'limi sitoplazmasi bazofil bo'yalgan markazida yumaloq yadro tutuvchi hujayralar ko'rinmoqda. Oxirgi bo'limlarining turini aniqlang.  
Javobi: seroz (oqsil)
606. Vagotomiyani sifatini aniqlash maqsadida bemorga insulin yuborildi. Bunda me'daning kislotali muhiti oshdi. Me'dani qaysi hujayralarining faoliyati kuchaydi?  
Javobi: parietal

607. Poliklinika stomatologi magistriga bemor ogiz bo'shlig'ining shilliq qavatida muguzlanish jarayoniga uchraydigan qismlarni tekshirishni topshirdi. Bu qanday qismlar?

Javobi: qattiq tanglay, milklarning erki qismi, lo'njlarning oraliq qismi.

608. Salbiy ta'sir natijasida me'da epiteliysining bir qismi shikastlandi. Qaysi hujayralar hisobiga qayta tiklanish ro' beradi.

Javobi: bo'yin hujayralari

609. Fundal bezining gistologik preparatida atsidofil sitoplazmali nisbatan yirik bo'lgan hujayralar ko'rinmoqda. Elektronmikroskopik tekshirish natijasida ularda hujayra ichi kanalchalarining murakkab tizimi aniqlandi. Ushbu hujayralar me'da shirasining qaysi komponentini ishlab chiqaradi?

Javobi: xlorid kislotasi

610. 50 yoshli bemor ishtaxani kuchayishi, tez-tez chanqashi, tana vaznining kamayishi kabi shikoyatlar bo'lib endokrinolog qabuliga keldi. Laboratoriya tekshiruvlari qonda qand miqdorining oshganini ma'lum qildi. Qaysi hujayralar faoliyatining etishmovchiligi bilan usbu holat vujudga keladi?

Javobi: B-hujayralar

611. Bezli a'zoning mikropreparatida faqat seroz secretor oxirlari ko'rinmoqda. Bo'laklararo biriktiruvchi to'qimada ikki qavat yoki ko'p qavatli epiteliy bilan qoplangan chiqaruv naylari joylashgan. Bu a'zoning nomi:

Javobi: quloq oldi bezi

612. Me'daning xususiy bezlarining elektron mikrosuratda oval shaklga ega, sitoplazmasida hujayra ichi kanalchalar va ko'pgina mitoxondriyaslar tutuvchi hujayra aniqlandi. Hujayraning nomini ko'rsating.

Javobi: parietal hujayra

613. Difteriyaga chalingan bemorni yumshoq tanglayi va tilchasi tekshirilganda ularning epiteliysida o'zgarishlar topildi. Bunda qaysi epiteliy zararlangan?

Javobi: ko'p qavatli yassi

614. Yirik so'lak bezlaridan ko'p miqdorda so'lak ajralishi kuzatildi. Qanday chiqaruv naylar ushbu bezlar tarkibiga kiradi?

Javobi: bo'laklaraichi va bo'laklararo chiqaruv naylari.

615. Quloq oldi bezining o'tkir yallig'lanishi natijasida unda sekretning hosil bo'lishi va ajralishi buzildi. Qaysi hujayralarning faoliyati kuchaygan?

Javobi: seroz va mioepitelial

616. So'lak bezlarining surunkali yallig'lanishida chiqaruv naylarining epiteliy hujayralarining shikastlanishi kuzatiladi. Bu qaysi epiteliy?

Javobi: bazal chiziqli prizmatik hujayralar

617. Me'daning yallig'lanish kasalliklarida qoplama epiteliy shikastlanadi. Bu qaysi epiteliy?

Javobi: bir qavatli prizmatik

618. Surunkali enterokolit davomida dipeptidazalarning yetishmovchiligi tufayli ingichka ichakda oqsillarning hazm bo'lishi va so'rilish jarayoni buzildi. Qaysi hujayralarda fermentlarning sintezi buzilgan?

Javobi: Panet hujayralari

619. 231. Ingichka ichakshilliq qavatining kasalliklarida so'rilish jarayoni buziladi. Qaysi epiteliy ushbu vazifani bajaradi?

620. Javobi: bir qavatli prizmatik

621. Ingichka ichak epiteliy hujayralarining shikastlanishi tufayli devoriy va membranaviy parchalanishning buzilishi kuzatildi. Qaysi hujayralarning faoliyati o'zgarishlarga uchradi?



Javobi: bir qavatli prizmatik jiyakli

622. Surunkali enterokolitga chalingan bemorni endoskopik tekshiruvi davomida ingichka ichakning shilliq qavatida maxsus tuzilmalarning yoqligi aniqlandi. Ingichka ichakning qaysi tuzilmalari uning shilliq qavati xususiyatlarini belgilaydi?

Javobi: gaustralalar, vorsinka va kriptalar

623. Ingichka ichakning ba'zi kasalliklari atsidofil granulali ekzokrinotsitlar (Panet hujayralari) faoliyatining buzilishi bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu hujayralar qaerda joylashgan?

Javobi: ingichka ichakning kriptalari tubida

624. Yog'on ichakning ba'zi kasalliklarida Shilliq qavat epiteliotsitlari orasida o'zaro miqdoriy va nisbatiy ko'rsatkichlar o'zgaradi. Yog'on ichak epiteliysida qaysi hujayralarning miqdori odatda ko'proq bo'ladi?

Javobi: qadahsimon hujayralar

625. Rectoromanoskopiya davomida to'g'ri ichak oxirgi qisnining shilliq qavatidan hosil bo'lgan o'sma aniqlandi. Ushbu o'sma qaysi epiteliydan hosil bo'lgan?

Javobi: ko'p qavatli yassi muguzlanmaydigan

626. Shifokor tekshiruvidan o'tayotgan bemorda jigar taraqqiyotining normadan chekinish alomatlari aniqlandi. Qaysi embrional kurtak zararlangan?

Javobi: birlamchi ichak entodermasining o'rta qisni.

627. Surunkali kasalliklar oqibatida jigar parenximasida biriktiruvchi to'qima o'sib ketib, klassik jigar bo'lakchasining qon bilan ta'minlanishi buzildi. Bo'lakchalarda qon oqimining yonalishi qanday?

Javobi: bo'lakchani periferik qismidam markazigacha

628. Shirinlikka o'ch bo'lgan insonlar me'da osti bezining ma'lum hujayralari haddan tashqari zo'riqishga uchraydi. Ularning nomi nima?

Javobi: B-hujayralari

629. Mikropreparatda ingichka ichak vorsinkalarini qoplovchi to'qima ko'rinib turibdi. Toqima hujayralari bazal membrana ustida plast hosil qilib joylashib, qon tomirlar tutmaydi. Ushbu to'qima turini aniqlang.

Javobi: epiteliy to'qimasi

630. Gistologik preparatda hazm sistemasiga oid a'zo berilgan. Uning devori shilliq, shilliq osti, mushak va seroz qavatlardan iborat. Shilliq qavati burmalar va chuqurchalarga ega. Bu qaysi a'zo?

Javobi: me'da

631. Gistologik preparatda hazm sistemasiga oid a'zo berilgan, uning yuzasida chuqurchalar hosil bo'lgan. Chuqurchalarni qoplab turgan epiteliy to'qimasining barcha hujayralari silindrsimon bo'lib, bazal membranada yotibdi. Hujayralarning apikal qismi mukoid tabiatga ega secret bilan to'lgan. Qaysi a'zo keltirilgan?

Javobi: me'da

632. Gistologik preparatdagi a'zo shilliq qavatining xususiy plastinkasida oddiy naysimon bezlar joylashgan. Bu bezlarning tarkibiga bosh, parietal, shilliq va endokrin hujayralar kiradi. Ushbu bez turini aniqlang.

Javobi: fundal bezlar

633. Gistologik preparatdagi bez bo'laklarida atsinuslar ko'rinmoqda. Ularning sekretor hujayralarida: bazal – gomogen (bazofil), apikal – zimogen (oksifil) qismlar tafovut etilmoqda. A'zoning nomini ayting.

Javobi: me'da osti bezi

634. Gistologik preparatda struktur-funksional birligi bo'lakcha bo'lgan parenximatoz a'zo ko'rinib turibdi. Bo'lakchalar orasida to'siq aniq ifodalangan. Bo'lakchalar o'rtasida markaziy vena mavjud.

Bo'lakchalarichi sinusoid kapillyarlar orasida hujayralar plastinkalar holida joylashgan. Ushbu a'zoning nomi nima?

Javobi: jigar

635. Surunkali gastrit bilan og'rigan bemorda gipoxrom anemiyaning belgilari aniqlandi. Me'daning qaysi hujayralari faoliyati buzilgan?

Javobi: parietal

636. Bemor terapevtik klinikaga keltirildi. Laboratoriya tekshiruvlari natijasida unda me'da shirasi kislotalilik muhitining pasayganini aniqlandi. Qaysi hujayralar faoliyati kuchaygan?

Javobi: parietal

637. Surunkali gastriti bilan og'rigan bemorga pH-metriya yordamida me'da shirasining kislotalilik muhiti tekshirilib, uning pasaygani aniqlandi. Qaysi hujayralar faoliyati kuchaygan?

Javobi: parietal

638. Qizilo'ngach shilliq qavatidan olingan biopsik material morfologik analiz qilinganda epiteliyda muguzlanish alomatlari aniqlandi. Qizilo'ngachni qaysi turdagi epiteliy qoplaydi?

Javobi: ko'p qavatli muguzlanmaydigan

639. Klinikaga zaxarlangan bemor etkazildi. Shu narsa aniqlandiki, uning jigarida detoksikasiya jarayonlarining mexanizmi buzilgan. Birinchi navbatda qaysi organellarning faoliyati pasaygan?

Javobi: agranulyar endoplazmatik to'r.

640. Onkologik kasallik bilan og'rigan bemorda nur terapiyasi qo'llanilganda,ingichka ichagining shilliq pardasidagi epiteliyal xujayralarda regeneratsiya jarayonini sustlashibborganligi aniqlandi. Bu holda kriptalarning devoridagi qaysi xujayralarda patologik o'zgarish kuzatilgan?

Javob: Jiyaksiz enterotsitlarda

641. 48 yoshli oshqozonninghavfli o'smasi bilan og'rigan bemorda nur terapiyasi qo'llanilganda havfli anemiya (kam qonlik ) antianemik faktorni yetishmovchiligi bilan kechadigan hili yuzaga kelgan. Medaning qaysi bez xujayralari ishdan chiqqan?

Javob: Pariyetal xujayralar

642. Kishining kunlik ratsionida karbonsuvlarga o'ta to'yingan mahsulotlarga boy bo'lib,bu gepatotsitlarni faoliyatini buzilishiga olib keladi. Gepatotsitlar sitoplazmasida qaysi kiritmalarni to'planishiga olib keladi?

Javob: Glikogen granulari

643. Bemorda ingichka ichakning epiteliyining yangilanishini pasayganligi kuzatilgan. Qaysi xujayralarning shikastlanishi bilan kuzatiladi?

Javob: Jiyaksiz enterotsitlarni

644. 15yoshli qiz bola tilining yuqorigi qismini issiq tasirida kuydirib oldi. Qaysi epiteliy shikastlangan ?

Javob: Ko'p qavatli muguzlanuvchiepiteliy

645. 39 yoshli jigarida havfli o'smasi bor bemor nur terapiyasini o'tkazgandan so'ng,ingichka ichagida yara paydo bo'ldi. Yaraning paydo bo'lishiga sabab,regeneratsiyasini taminlovchi xujayralarning mitotik faolligini pasayishi. Bu qaysi epiteliy?

Javob: Kriptalardagi jiyaksiz enterotsitlar

646. 45 yoshli bemor meda sohasida qattiq og'riq bilan shifoxonaga yotqizilgan. Gastroskop ostida ko'rganimizda medaning tubida uncha katta bo'lmaganeralar aniqlandi.Medaning shilliq pardasining qaysi xujayralarining vazifasini buzilishi hisobiga bo'ladi?

Javob: Epiteliyda joylashgan shilliq ishlab chiqaruvchi xujayralar

647. Embrionga onkogenlar tasir qilishi natijasida bitta embrional varaqni differentsiya bo'lmay qolganligi aniqlandi. Natijada ingichka ichakning mushak pardasida havfli o'sma aniqlandi. Qaysi embrional kurtakni rivojlanishini buzilishi hisobiga yuzaga keladi?

Javob: Mezenximani

#### 648. ENDOKRIN SISTEMA

649. Gipofizning adenomasi bilan og'rigan bemorda (gipofizning oldi bo'lagi) follikulning katta o'sish davrining uzayganligi kuzatilgan. Ovogenezda meyorda katta o'sish davrining muddatini ko'rsating?

Javob: 12-14 kun

650. Kuchli rahit bo'lgan 4-oylik bolani ko'p marotabalab quyosh nuriga qo'yilganda hamda vitamin D3 qabul qilingandan so'ng ham raxiti kamaygan.

Qaysi gormonning sintezini buzilishi tufayli kelib chiqadi?

Javob: Kaltsitriol

651. Shifokorning qabuliga bo'yi juda baland, qo'llari uzun hamda pastki jag'i juda katta, pastki labi osilgan bemor kirib keldi. Qaysi bezning qaysi nomdagi gormonining ortiqcha miqdorda ekanligini toping?

Javob: Gipofizning oldingi bo'lagida ishlab chiqariluvchi somatotrop gormoni

652. 53 yoshli ayol kishi, bo'yi 163 sm, vazni 93 kg, qomati kelishgan, yog' to'g'ri taqsimlangan, yuzi shishgan, kam harakat va befarq. Bu holat qaysi bezning o'zgarishlari tufayli yuzaga keladi?

Javob: Qalqonsimon bez

653. Kallaning turk egatchalari soharini rentgenologik tekshiruvda o'sma aniqlangan. Qaysi endokrin bezlardagi o'zgarishlar suyaklarning buzilishiga olib keladi?

Javob: Gipofizdagi

654. Uzoq muddat davomida glyukokortikoid gormonlarni qabul qilgan bemorda arterial qon bosimni pasayishi, holsizlik kuzatilgan. Bunday holatni qanday izohlash mumkin?

Javob: Preparatga o'rganib qolgan.

655. Bilvosita kalorimetriya usuli bilan aniqlanganda asosiy modda almashinuvi 40% ga kam meyordagidan. Qaysi endokrin bezning vazifasini buzilishi hisobiga kuzatiladi?

Javob: Qalqonsimon bez

656. Keksa yoshdagi bemorda qo'llari, burni va pastki jag'ining kattalashuvi va yo'g'onlashuvi kuzatilgan. Ushbu holat qaysi gormonning ko'payishi hisobiga bo'ladi?

Javob: Somatotropin gormoni

657. Insonda diurez kamaygan, gipernatriyemiya, gipokaliyemiya aniqlangan. Qaysi gormonning gipersekretsiyasi tufayli vujudga kelgan?

Javob: Aldosteron gormoni

658. Gistologik preparat parenximatoz azo berilgan bo'lib, parenximasida ko'p miqdorda follikulalar bo'lib, devori kubsimon shakldagi bez xujayralaridan iborat. Follikulning bo'shlig'i kolloid bilan to'lgan. Ushbu morfologik o'zgarishlar qaysi bezga tegishli?

Javob: Qalqonsimon bez

659. Buyrak kasalligi bilan og'rigan bemorda, buyrak parenximasining ishemiyasi, arterial qon bosimning balandligi kuzatilgan. Bemorda arterial qon bosimning baland bo'lishidagi asosiy faktorni ko'rsating?

Javob: Angiotenzin II ning ko'p miqdorda bo'lishi

660. 42 yoshli erkakda , uzoq vaqt stress holda bo'lganligi tufayli peshobda 17-ketosteroidlar aniqlangan. Qaysi nomdagi gormonning ortiqcha miqdorda ekanligini toping:  
Javob: Adrenalin
661. 10-`yoshli o'g'il bolani shifokor ko'rigidan o'tkazganda,bo'yining pastligi,tanasining noproportional rivojlanganligi,psixik rivojlanishdan ortda qolganligi aniqlangan.Organizmda qaysi gormonning yetishmasligi bunga sabab?  
Javob: Tiroksin
662. Itsenko-Kushinga kasali bilan og'rigan bemorning qonida kortizol miqdori ortgan. Qaysi endokrin bezning patologiyasi bilan bog'liq?  
Javob: Buyrak usti bezining po'stloq moddasi bilan
663. Qalqonsimon bezni jarrohlik yo'li bilan olib tashlangandan so'ng, Bemorda uchinchi sutkasida qaltirash yuzaga keldi. Bunday holatda bemorga qanday dori ichish tavsiya etiladi?  
Javob: Kaltsiy preparatlari
664. Preparatni ko'rganimizda organning parenximasi zich ko'ptokchalarni eslatadi. Bunday tuzilmalarni bo'lishi qaysi organga hos?  
Javob: Buyrak usti beziga
665. Qomati proporsional rivojlangan ,lekin insonning bo'yi 100 sm Ekanligi aniqlandi. Qaysi gormonni yetarli miqdorda bo'lmasligi bilan bog'litq?  
Javob: Somatotrop gormoni
666. 23 yoshli bemor,bosh og'rig'iga,tashqi ko'rinishiningo'zgarganligiga, (oyoq,panjalar,yuz kalavasining kattayganligi),ovozning dag'allashuvi, xotiraning susayishiga shikoyat qildi. Hyech qanday sabablarsiz kasallik rivojlangan. Peshobda o'zgarishlar kuzatilmagan.Bunday holatni yuzaga keltiruvchi sababni ko'rsating:  
Javob: Somatotropin gormonining ortishi
667. 10 yoshli bolaning bo'yi 178 sm, tana vazni - 64 kg. Qaysi endokrin bezning faoliyatini buzilishidan kelib chiqadi?  
Javob: Gipofiz bezining
668. 44 yoshli bemor ayol umumiy holsizlikka, yurak sohasida og'riqqa shikoyat qiladi. Ob'yektiv ko'rilganda: yuzi oysimon, girsutizm, AB-165/100 mm rt. st., bo'yi-164 sm, vazni-103 kg, bo'yin sohasida,qorinda va yuqorgi yelka sohasida yog'ning to'planishi kuzatilgan. Ayol kishining ortiqcha vazn to'plashiga sababni ko'rsating?  
Javob: Glyukokortikoid gormonlarning ko'pligi
669. Eksperiment yo'li bilan gipofizning oyoqchalariga qarab o'tgan yo'lni kesib tashlandi. Qonga qaysi gormonning o'tishi buziladi?  
Javob: Vazopressin va oksitotsin
670. 25 yoshli ayol tuqqanidan bir oydan so'ng sut ajralishini kamayganligiga shikoyat qilib shifokorga murojaat qildi. Qaysi gormonning kamayganligi bunga sabab bo'lgan?  
Javob: Prolaktin
671. Qalqonsimon bezning biopsiya qilib ko'rilganda,preparatda tirotsitlar silindrik shaklda, kolloidi quyuq, vakuolizatsiyalangan. YUqoridagi bemorda bezningqaysi faoliyatini buzilishi kuzatilgan?  
Javob: Giperfunksiyanal holatda
672. Amaliyotga kiritilishi bo'yicha,tug'ruqdan so'ng chaqaloqni ko'krakka tutish kiritilgan. Bu holat esa tug'ruqdan keyingi davrni oson o'tishini taminlaydi. Qonga qaysi gormonning ajralishi bu jarayonni boshqaradi?

Javob: Oksitotsin

673. Homilaning yuqorigi og'iz teshikchasining epiteliysidan Ratke cho'ntakchasi taraqqiy etadi. U esa o'z navbatida bosh miyaning asosiga yo'nalgan bo'ladi. Bu embrional cho'ntakchadan qaysi azo rivojlanadi?

Javob: Adenogipofiz

674. Qalqonsimon bezning follikulalari hamda follikulalararo bo'shliqlar orasida endokrinotsitlar joylashgan bo'lib, osmio- va argirofil sekretor donachalarga ega. Xujayralar nomini ayting.

Javob: Kaltsitoninotsitlar

675. Gistologik preparatda parenximatoz azo berilgan bo'lib, malumki, aldosteron organizmda natriyning miqdorini boshqaradi. Qaysi xujayralar bu gormonni ishlab chiqadi?

Javob: Buyrak usti bezining koptokchali zonasi

676. Tug'ish jarayonidan so'ng qonni to'xtashiga sabab, oksitotsin gormonining bachadon devoriga tasiri tufayli. Bachadonning qaysi qavatiga ushbu gormon tasir qiladi?

Javob: Miometriy

677. Gistologik kesmada endokrin bez o'rganilganda, dumaloq turli hil kattalikdagi, devori bazal membranada yotuvchi bir qavatli epitelial xujayralardan iborat. Bu tuzilmaning ichida gomogen strukturali xujayralararo modda bor. Bu qaysi bez?

Javob: Qalqonsimon bez

678. Eksperimental xayvonda ko'p miqdorda peshob ajralishi (poliuriya) va kuchli chanqash (polidipsiya) kuzatilgan. Peshobda qand yo'q.

Bu qaysi organning faoliyatini buzilishidan kelib chiqadi?

Javob: Gipotalamusaning oldingi bo'lagi

679. Qalqonsimon bezning giperfunksiyasida follikul devoridagi tireotsitlarning shaklini ayting?

Javob: Prizmatik shaklda

680. 40 yoshli bemor shifokorga murojaat qilganda, taxikardiya, ekzoftalm, tez charchash, tana vaznining kamayishiga shikoyat qilgan. Bu holat qaysi xujayralar hisobiga vujudga keladi?

Javob: Tirotsitlar

681. Gistologik kesmada endokrin bez o'rganilganda, xromofil (atsidofil, bazofil) va xromofob xujayralar epitelial tasmada joylashganligi aniqlandi. Preparatda qaysi organ berilgan?

Javob: Adenogipofiz

682. Gistologik preparatda parenximatoz azo berilgan bo'lib, unda po'stloq va mag'iz modda ko'rinib turibti. Po'stloq moddasi epitelial tasmalardan iborat bo'lib qon tomirlar orasida joylashgan. Tasmalar uchta zonani hosil qiladi. Mag'iz modda xromaffinotsitlar va venoz sinuslar ko'ringan. Qaysi organga yuqoridagi tarif to'g'ri kelayapti?

Javob: Buyrak usti bezi

683. Gistologik preparatda endokrin azo berilgan bo'lib, u uch bo'lakdan iborat: oldingi, o'rta, orqa. Oldingi bo'lakning parenximasi epitelial trabekulalardan iborat bo'lib, sinusoid kapillyarlardan iborat. Trabekulalar tarkibida xromofil (bazofil va atsidofil) va xromofob xujayralar bor. Preparatda qaysi organ berilgan?

Javob: Gipofiz

684. Jarrohlik yo'li bilan olib tashlangan buyrak usti bezida yirik xujayralar aniqlandi. Azo ikki valentli xromli kaliy bilan impregnatsiya qilingan. Bu xujayralar qaysi gormonni ishlab chiqaradi?

Javob: Adrenalin

685. Gistologik preparatda endokrin tizimning parenximatoz azosi berilgan bo'lib, struktur-funksional birligi organning -follikul. Follikulning devori kubsimon xujayralardan iborat, follikul devori kolloid bilan to'lgan. Preparatda qaysi organ berilgan?

Javob: Qalqonsimon bez

686. Tuxumdonlarida havfli o'simtasi bor bo'lgan ayolda jarrohlik yo'li bilan ikkala bez olib tashlandi. Bunday holatda gipofizning gonadotrop xujayralarida qanday o'zgarishlar bo'ladi?

Javob: Gipertrofiya

687. Akromegaliya bilan og'rigan bemorda qo'l,oyoq,iyaklarini hamda burnini razmeri kattalashgan. Gipofizning qaysi xujayrasining giperfunksiyasi bilan bog'liq?

Javob: Somatotropotsitlarni

688. Talaba stress holatini izohlab turib,buyrak usti bezining po'stloq qismida sintezlanadigan glyukokortikoid gormonlarni gipofiz tamonidan boshqariladi aytdi.Aniqroq qilib yana qanday aytish mumkin?

Javob: Gipofizning AKTG gormoni

689. Adenogipofizning endokrinotsitlari orasida gistologik preparatda , sitoplazmasi bazofil bo'yalgan, follikulni stimulyatsiya qiluvchi va lyuteinlovchi gormon ishlab chiqaruvchi xujayra aniqlandi. Xujayraning nomini ayting?

Javob: Gonadotropotsitlar

690. Eksperimental xayvonlarda tajriba o'tkazilganda ,ularda erta jinsiy balog'atga yetilish kuzatilgan. Qaysi bez bu jarayonda jarohat olgan?

Javob: Epifiz

691. 40 yoshli bemor arterial qon bosimning oshishiga, yurakning urib ketishiga,yuz terisining qizarib ketishiga,bosh og'riqqa shikoyat qilgan.

Bu holat jismoniy mehnatdan so'ng kuchaygan. Ultra tovushli tashhisdan so'ng o'ng o'ng tarafda buyrak usti bezida o'sma aniqlandi. Bu holatda buyrak usti bezining qaysi moddasi ishdan chiqqan?

Javob: Miya moddasi

692. Tajriba o'tkazilayotgan jonivor gipotalamusining supraoptik va paraventrikulyar yadrosida joylashgan neyrosekretor hujayralarning aksionlari kesilgan. Gipofizning orqa bo'lanidagi vazopressin va oksitotsinning miqdori qanday o'zgaradi?

Javob: Neyrogipofizda neyrosekret bo'lmaydi.

693. Tajriba davomida embriinning gipofizar cho'ntagi olib tashlandi. Gipofiz qaysi bo'laklarining rivojlanishi buziladi?

Javob: oldingi va oraliq bo'laklari.

694. Gipofizning oldingi bo'lagidan tayyorlangan preparatda markazda joylashgan, asosiy bo'yoqlar yordamida bo'yaluvchi, poligonal shakldagi hujayralar aniqlandi. Ushbu hujayralar qaysi gormonlarni ajratadi.

Javob: Folitropin, lyutropin, tirotropin.

695. Gipofizning oldingi bo'lagida yumaloq shaklli, sitoplazmasi atsidofil bo'yaluvchi hujayra aniqlandi. Bu hujayralar qanday gormon ishlab chiqaradi?

Javob: Somatotropin, prolaktin.

696. Qalqonsimon bezning preparatida yassi epiteliyli, sekret bilan to'lgan follikulalar ko'rinmoqda. Ushbu ko'rinishda bezning funksional holati qanday?

Javob: Qalqonsimon bezning gipofunsiyasi.

697. Qalqonsimon bezning preparatida ko'p miqdorda rezorbsion vakuolalar tutuvchi och kolloid bilan to'lgan follikulalarni ko'rish mumkin. Follikular epiteliysi prizmatik shaklda. Ushbu ko'rinishda bezning funksional holati qanday?

Javob: Qalqonsimon bezning giperfunsiyasi.

698. Qalqonsimon bez oldi bezidan tayyorlangan preparatda atsidofil hujayralar uchramayapti. Ushbu bez joylashga organizmning yoshi taxminan nechada?

Javob: Yangi tug'itgan chaqaloq yoki 5 yoshgacha bo'lgan bola.

699. Embriogenez davrida tajribada neyroblastlarning ganglioz plastinkadan migratsiya qilish jarayoni buzilgan. Ushbu holat buyrak usti bezining strukturasi qanday ta'sir ko'rsatadi?

Javob: buyrak usti bezining mag'iz moddasining hosil bo'lishi buziladi.

700. Buyrak usti bezining preparatida ko'ptokchali zonaning tagida kam miqdorda lipid tutuvchi hujayralar aniqlangan. Bu zona nima deb nomlanadi?

Javob: Oraliq yoki sudanofob zona.

701. Buyrak usti bezining mag'iz moddasida kaliy xrom eritmasi bilan bo'yaluvchi hujayralari ko'ringan. Bu hujayralar qanday modda sintez qiladi?

Javob: Adrenalin va noradrenalin.

702. Endokrin bezlar steroid gormonlar ajratishi ma'lum. Buning uchun hujayra sitoplazmasida qaysi organella yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak?

Javob: Silliqlik endoplazmatik to'r.

703. Kumush bilan to'yintirilgan qalqonsimon bez preparatida follikula va follikulalar orasida argirofil donachalar bilan to'lgan hujayralar ko'rinmoqda. Bular qaysi hujayralar? Qaysi gormonni sintezlaydi?

Javob: Parafollikulyar hujayralar (C-hujayralar), qonda kaltsiy miqdorini kamaytiruvchi - kaltsitonin gormon sintezlaydi.

704. Bemor bolada siklik jarayonlarning va sutkalik (sirkad) ritmning buzilishi kuzatilgan. Ushbu morfologik va morfofunksional mexanizm bo'yicha sizning fikringiz qanday?

Javob: Pigment almashinuvi, siklik jarayonlar, sutkalik (sirkad) ritmlarning morfologik va morfofunksional mexanizmi bevosita epifiz bilan bog'liq.

705. Jinsiy balog'atga yetmagan jonivorning epifizi tajribada olib tashlandi. Jonivorning jinsiy yetilish tezligi qanday o'zgaradi?

Javob: Jinsiy yetilish tezlashadi.

706. Bemorda siydik ajralishining sutkaliq dozasi keskin oshgan. Gipotalamusdagi qaysi gormon sekretsiyasining yetishmovchiligida bu g'olat kuzatiladi.

Javob: Antidiuretik gormon (vazopressin).

707. 4 oylik chaqaloqda raxit alomatlari yaqqol ifodalangan. Davolash maqsadida unga ma'lumbirmuddatda D3 vitaminiberildi, quyoshda ko'p vaqt olib yurilgandan so'ng ham raxit alomatlari kamaymadi. Qaysi moddaning sintezi buzilishi ushbu holatga olib keladi?

Javobi: kaltsitriol

708. 55 yoshli erkakning qonida glyukagon gormoni miqdorining kamaygani sababli endokrinolog ko'rigiga keldi. Me'da osti bezining qaysi hujayralarning faoliyati buzilgan?

Javobi: Langergans orolchalarining A-hujayrasi

709. Shifokor qabuliga kelgan bemorning bo'yi juda baland, barmoqlari xaddan tashqari uzun va yo'g'on, pastki jag'i katta bo'lgan. Bemorda qaysi gormonning keragidan ortiq miqdorda ishlab chiqarilishi bu oqibqtga sabab bo'ldi?

Javobi: gipofizning somatotrop gormoni

710. 53 yoshli ayolning bo'yi 163 sm, og'irligi 93 kg, terijcniyog' to'qimasi bir me'yorda tarqalgani, yuzi shishgan, kam xarakatchan, apatik holatda. Qaysi a'zo faoliyati bunda buzilgan?  
Javobi: qalqonsimon bez.

711. Kalla suyagining asosini rentgenologik tekshiruvida turk egarining singani va bo'shlig'ining kengayib ketgani aniqlandi. Qaysi endokrin a'zoda o'smaning paydo bo'lishi bu holatga olib keladi?  
Javobi: gipofizning

712. Uzoq muddatda glyukokortikoidlar qabulqil gandan so'ng bemorning kasali xuruj qilib qoldi, ya'nitez-tez arterial bosimining pasayib turishi va holsizlik seza boshladi. Ushbu holatni qanday tushuntirish mumkin?  
Javobi: preparatgao'rganganiuchun

713. Bilvositakallorimetriyausuliyordamidaanalizqilingandashunarsaaniqlandiki, tekshiriluvchiningasosiymoddaalmashinuvu 40% gakamaygan.  
Нарушениедеятельностикакойэндокриннойжелезьявляетсяпричинойэтого?  
Javobi: qalqonsimondez

### NAFAS OLISH SISTEMASI

714. O'tkir rinit bilan og'rigan bemorda burun shilliq pardasining giperemiyasi va shilliq ajralishini kuchayganligini ko'rish mumkin. Bunday holatda burun bo'shlig'ining qaysi xujayralarining faolligini oshganligini ko'rish mumkin?  
Javob: Qadaxsimon xujayralarni

715. Goboy chaluvchi sozandalarning o'pka elastik karkasi holatining o'zgarishi kasb kasalligi bo'lib hisoblanadi. Ushbu holat qanday oqibatlariga olib keladi va nima uchun?  
Javob: Nafas xarakteri va chuqurligining o'zgarishlari sababli gaz almashinuvining keskin buzilishlari yuzaga keladi.

716. Bronxial astma bilan kasallangan bemorda nafas o'tkazuvchi yo'llarning normal funksiyasining buzilishi (spazmi) natijasida nafas qisishi xuruj qilgan. Buning sabablarini ayting.  
Javob: Kichik kalibrdagi bronxiola devorida fibroz – tog'ay qavati silliq mushaklar bilan almashinishinadi. Shu sababli bu bronxiolalar turli ekzo- va endota'sirlar tufayli uzoq vaqt davom etuvchi qisqarish xususiyatiga ega .

717. Surunkali chekish natijasida alveolyar epiteliyning strukturasi keskin o'zgarishlarga uchrashi, xatto nobud bo'lishi, surfaktant zararlanishi, nafas olishning keskin buzilishi kuzatiladi. Bu holat nimaga bog'liq?  
Javob: Oqsil sintezlovchi tizimning buzilishi, mitoxondriyalarning va yadroning nobud bo'lishi, gaz almashinuvini jarayoning buzilishi bilan bog'liq.

718. Tajriba kiprikchak epiteliy xarakati to'xtatilishi natijasida o'pka alveolasi bo'shlig'ida makrofag miqdori oshishi kuzatildi. Ushbu holat sababi qanday tushuntiriladi?  
Javob: Kiprikchalar havo oqimiga qarshi xarakatlanmagani uchun chang, nobud bo'lgan epiteliy hujayralarining, bakteriyalarning o'tib ketishi natijasida makrofaglar faolligi oshadi.

719. Tajribada alveolalararo yo'llarda joylashgan makrofaglarning xarakatchanligi bloklangan. Tajriba o'tkaziluvchi jonivor esa changli muhitda saqlanmoqda. Bu qanday oqibatlariga olib keladi?  
Javob: o'pqa makrofaglari vazifasini bajarmagani uchun alveola bo'shlig'i chang zarralari va nobud bo'lgan hujayralar bilan to'lib, gaz almashinuvini qiyinlashtiradi.

720. Nafas olish tizimining turli qismlaridan tayyorlangan ikkita gistologik preparat berildi. Birinchi preparatda qoplovchi epiteliy qadaxsimon hujayralar tutmaydi, bezlari sust rivojlangan, mushak devori yaxshi rivojlangan. Ikkinchisida epiteliy hujayralari kubsimon shaklda, kiprikchalar tutmaydi, ayrim joylarda alveolatsitlar bilan almashinib keladi, xususiy plastinkaning birikliruvchi to'qimada kam miqdorda silliq mushak tolalarini tutadi. Quyidagi preparatlarda qaysi tuzilmalar berilganligini aniqlang.  
Javob: Birinchi preparatda- kichik kalibrdagi bronx, ikkinchisida- respirator bronxiola.



721. Naysimon bo'shliqli a'zodan tayyorlangan preparat berildi. Uning epiteliysi ko'p qatorli, hilpillovchi, shilliq qavatning xususiy plastinkasi ko'ndalang kesilgan elastik tolalar tutadi, tog'ay qavatiga ega. Bu qaysi a'zoning preparati?

Javob: Traxeya.

722. O'yuvchi gazsimon moddalarni hidlaganda ovoz yorig'ining torayishi kuzatilgan, tog' yoki dengiz havosidan nafas olganda kengayishi kuzatilgan. Sodir bo'layotgan o'zgarishlar qaysi strukturalar hisobiga amalga oshayapti?

Javob: xiqildoq shilliq qavatining retseptorlari, nafas olish markazi, xiqildoq devorining mushak elementlari.

723. 8 yoshgacha bo'lgan bolalarda tez-tez kasallanish oqibatida o'pka to'qimasi shakllanishida alveolyar epiteliy differensiallashish jarayoni buziladi. Ushbu holat qanday oqibatlarga olib keladi?

724. O'tkir rinit oqibatida olingan havoning birlamchi tozalanishi buzilgan. Buning oqibatida burun bo'shlig'i respirator bo'limining qaysi funksiyasi buziladi?

Javob: Kiprikli epiteliyning faoliyati buzilgan.

725. Ko'krak yoshidagi bolalarda eng ko'p uchraydigan nafas olish a'zolari kasalliklaridan biri "soxta bo'g'ilishdir". Nafas olish a'zolarining qaysi xususiyatlari ushbu holat kelib chiqish omili bo'lib hisoblanadi?

Javob: Xiqildoq shilliq qavatining siyrak biriktiruvchi to'qimadan tashkil topgan xususiy plastinkasining yaxshi rivojlanganligi sababli.

726. Tekshiruv jaaryonida bemorda traxeya-qizilo'ngach yorig'i tufayli, ovqatlanish paytida nafas olish qiyinlashishi aniqlangan. Ushbu nuqsonni yuzaga keltiruvchi omilni ayting?

Javob: Ichak entodermasi - umumiy rivojlanish manbasi.

727. Gistologik preparatlarda nafas olish sistemasining qaysi qismi berilganini aniqlang: devorida fibroz-tog'ay tuzilmasi bor, ko'p qatorli prizmatik kiprikchali epiteliy tutadi. Epitelial hujayralar orasida to'g'nog'ichsimon shakldagi dendritlar tutuvchi hidlov hujayralari borligi aniqlangan.

Javob: burun bo'shlig'ining hid bilish qismi.

728. Gistologik preparatlarda nafas olish sistemasining qaysi qismlari berilganini aniqlang: birinchi preparatda a'zo quyidagi qavatlardan tuzilgan - adventitsiya, fibroz-tog'ay qavat (yarm xalqasimon, orqa devori silliq mushak to'qimasidan iborat), shilliq osti, shilliq (xususiy plastinka va ko'p qatorli prizmatik kiprikchaliy epiteliy bilan qoplangan). Ikkinchi preparat to'liq xalqasimon tog'ay qavat va shilliqqavatda mushak plastinka borligi bilan birinchi preparatdan farq qiladi.

Javob: Birinchi preparat - traxeya, ikkinchi preparat - bosh bronx.

729. Nafas olish sistemasining turli qismlaridan gistologik preparatlar tayyorlanib o'rganilganda, shilliq qavatning xususiy plastinkasida olingan havoni bakteriotsid yo'l bilan tozalovchi yirik limfoid tuzilmalar ko'ringan. Bu nafas olish tizimining qaysi qismi?

Javob: Burun-halqum.

730. Iltip alveolotsitlarining surfaktant sintezlashi buzilgan. Bu qanday oqibatlarga olib keladi?

Javob: Alveolalarning yopishib qolishi, gaz almashinuvining buzilishi.

731. Quruq plevrit bilan og'rigan bemorda pleraning ishqalanish shovqini eshitilayapti. Qaysi epiteliyning shikastlanishi tufayli bu shovqin eshitiladi?

Javob: Bir qavatli yassi epiteliy

732. Bemorda surfaktantning aktivligi keskin kamayganligi aniqlandi. Qanday o'zgarishlarni kutish kerak?

Javob: Alveolalar bir-biriga yopishib qoladi.

733. Chala tugʻilgan bolaning oʻpka toʻqimasining elektron mikrofotosuratida ,surfaktantning yetishmovchiligi tufayli alveollar devorining yopishib qolganligini koʻrish mumkin. Bunday kurinishni yuzaga kelishini qaysi alveollar belgilab beradi?

Javob: II tip alveolotsit

734. Chala tugʻilgan bolalarda koʻpincha nafas olish tizimining yetishmovchiligi kuzatiladi. Asosiy sababni koʻrsating?

Javob: Surfaktant yetishmovchiligi tufayli alveolalarni yetilmaganligi

735. Gistologik preparatda organ berilgan bulib, devori shilliq,shilliq osti , fibroz-togʻay va adventitsial pardadan iborat. Epiteliysi koʻp qatorli silindrik, shilliq pardada mushak plastinka yoʻq, shilliq osti pardasida -oqsil-shilliq tabiatli bezlar bor, gialin togʻayi yarim xalka koʻrinishida. Bu morfologik belgilar qaysi azoga xos?

Javob: Traxeya

736. Preparatda ichi boʻsh kavak azo berilgan. Shilliq pardasi ikki qatorli kiprikli epiteliy bulib,bir qatorliga oʻtadi. Shilliq pardaning mushak plastinkasi kuchli rivojlangan. Togʻay va bezlar yoʻq. Preparatda qaysi organ berilgan?

Javob: Kichik kalibrli bronx

737. Elektron mikrofotografiyada ochiq puffak koʻrinishidagi tuzilmalar

berilgan. Ichki devorining yuzasi bir qavatli epiteliy bilan qoplangan boʻlib, respirator va sekretor xujayralar bilan qoplangan.Bu qaysi tuzilmalar?

Javob: Alveolalar

738. Havo oʻtkazuvchi yoʻllarning epiteliysida apikal qismi gumbazsimon xujayralar aniqlangan bulib,u yerda mikrovarsinkalar bor. Xujayralarda sintetik apparatik kuchli rivojlangan, apikal qismida - sekretor granulalar bor. Bu kaysi xujayralar?

Javob: Klark xujayralar

739. Chala tugʻilgan bolalarda koʻpincha nafas olish tizimining yetishmovchiligi kuzatiladi. Bunda asosan aerogematik toʻsiqdagi qaysi elementni yetishmovchiligi tufayli?

Javob: Surfaktant

740. Kekirdakning gistologik preparatida koʻp qatorli hilpilliovchi epiteliysi orasida past, ovalsimon yoki uchburchak shakldagi xujayralar aniqlandi.Bazi xujayralarda mitoz figuralar aniqlanadi. Ushbu xujayralar qanday vazifani bajaradi?

Javob: Regeneratsiya vazifasini bajaradi

741. Travma tufayli 30 yoshli erkakda burnining yuqorigi chigʻanogʻini qoplab turuvchi shilliq pardasi shikastlandi. Natijada qanday salbiy oqibatlariga olib keladi?

Javob: Hid bilish hususiyati pasayadi

742. Alveolalarning elektron mikrofotosuratida aerogematik toʻsiqning tarkibidagi xujayralar aniqlandi. Bu qaysi xujayralar?

Javob: Respirator alveolotsit

743. 65 yoshli oʻlgan odamni yorib koʻrganda,kasallangan azo oʻpka toʻqimasi boʻlib,patologik jarayon bronxlarda joylashgan. Gistologik preparatni koʻrganda bezlar,togʻay orolchalari va koʻp qatorli epiteliy koʻrinib turibti. Qaysi bronxlarda oʻzgarish kuzatilgan?

Javob: Oʻrta kalibrdagi bronxlarda

744. 2 yoshli bolada bronx daraxtidan shilliq ajralishi kuzatilgan.Bu holat bronxlarni devorini qoplab turuvchi qaysi tuzilmalar bilan bogʻliq?

Javob: Kiprikchalar

745. Chala tugʻilgan bolaning oʻpkasidan tayyorlangan elektron mikrofotografiyada, surfaktantning yetishmovchiligi tufayli alveolalar devorining yopishib qolganligi aniqlandi. Qaysi xujayralarning vazifasini buzilishi tufayli yuzaga keladi?

Javob: II tip alveolotsitlar

746. Malumki, aerogematimik toʻsiqning asosiy komponenti surfaktant- alveolyar kompleksdir, u alveollar devorini nafas chiqargandan soʻng yopishib qolishiga toʻsqinlik qiladi. Alveolalarning qaysi biri fosfolipidlarni ishlab chiqaradi?

Javob: II tip epiteliotsitlar

747. Gistologik preparatda organ berilgan bulib, devori shilliq, shilliq osti, fibroz-togʻay va adventitsial pardadan iborat. Epiteliysi koʻp qatorli silindrik, shilliq osti pardadasida oqsil-shilliq tabiatli bezlar joylashgan. Gialin togʻay toʻqimasi yirik plastinalarni hosil qiladi. Qaysi azoga ushbu morfologik belgilar hos?

Javob: Yirik kalibrli bronx

748. Gistologik preparatda nafas yoʻllarining qoplovchi epiteliysida kiprikli va qadaxsimon xujayralardan iborat boʻlib, muko-siliar kompleks hosil qiladi. Ushbu kompleksga qanday vazifa kiradi?

Javob: Havoni changdan tozalash

749. Boʻgʻilish, nafas qisilishi tufayli bemor boʻlimga yotqizildi. Bu nafas yoʻllarining silliq mushaklarining spazmi bilan bogʻliq. Ushbu huruj nafas yoʻllarining qaysi boʻlimi bilan bogʻliq?

Javob: Mayda kalibrli bronxlar

750. Yosh bola tugmachani yutib yubordi. Bronxoskop yordamida oʻshg bosh bronxdan olib tashlandi. Bronxning qaysi epiteliysi yot jism tufayli shikastlangan?

Javob: Bir qavatli koʻp qatorli kiprikli epiteliy

751. 56 yoshli erkakda traxeyaning havfsiz oʻsmasi aniqlangan. Havfsiz oʻsmasi kelib chiqish manbai qaysi epiteliy?

Javob: Bir qavatli koʻp qatorli kiprikli epiteliy

752. Intubatsiya paytida kekirdak devori jarohatlangan. Bunda qaysi epiteliyning butunligi buzilgan?

Javob: Bir qavatli koʻp qatorli kiprikli past prizmatik epiteliy

753. 48 yoshli erkak kishining oʻng oʻpkasini oʻrab turgan visseral plevrada havfsiz oʻsma aniqlangan. Ushbu havfsiz oʻsmaning rivojlanish manbasini koʻrsating?

Javob: Bir qavatli yassi epiteliy

754. Atsinusning alveolyar boʻshligʻi orasiga bakteriyalar kirgan boʻlib, ularning surfaktant bilan toʻqnashuvi kuzatilgan. Bu esa oʻz navbatida alveolalar devorida joylashgan xujayraning faolligi ortishiga sabab boʻladi. Bu xujayralarning nomini ayting?

Javob: Alveolyar makrofaglar

755. Oʻpkadan olingan biopiatni mikroskopik tekshirganimizda, terminal bronxiolalar aniqlandi. Ushbu bronxiolalar devorini qaysi epiteliy qoplangan?

Javob: Bir qavatli kubsimon kiprikli epiteliy

756. Otolaringolog shifokorning qabuliga bemor burun boʻshligʻini qurub qolib, oʻziga hos nohushliklarga olib kelayotganligiga shikoyat qildi. Burun boʻshligʻini tekshiruvdan oʻtkazilganda shilliq pardadagi shilliq bezlarning faoliyati buzilganligi aniqlandi. Bu bezlar shilliq pardaning qaysi qavatida joylashgan?

Javob: Shilliq pardaning hususiy plastinkasida

757. Malumki, shaxtada ishlovchi ishchilar koʻmirni changini yutadi. Oʻpkaning qaysi xujayralarida koʻmirning isi aniqlanadi?

Javob: Alveolyar makrofaglar

758. O'pkasi yallig'langan bemorning bioptati mikroskopik tekshirganimizda ,respirator vazifani bajaruvchi xujayralarning jaroxatlanishi kuzatilgan. Bu xujayralarning nomini ayting?

Javob: I tipa alveolotsitlar

759. Nafas olish tizimidagi azolardan tayyorlangan preparatdanaysimon azo aniqlangan. Epiteliysi past,mushak plastinkasi kuchli rivojlangan,tog'ay va bezlari yo'q.Azoning nomini ayting.

Javob: Mayda kalibrli bronx

760. 201. Alveolalarda maxsus xujayralar bo'lib,ular gaz almashinuvini boshqaradi.Aerogematik to'siqning tarkibiga kiradi.cheskogo baryera. Bu xujayralarning nomini ayting?

Javob: I tipa alveolotsitlar

761. O'tkir rinit bilan og'rigan bemorda burun shilliq pardasining giperemiyasi va shilliq ajralishini kuchayganligini ko'rish mumkin. Bunday holatda burun bo'shlig'ining qaysi xujayralarining faolligini oshganligini ko'rish mumkin?

Javob: Qadaxsimon xujayralarni

762. Bokser burni bilan olgan jaroxati tufayli hid bilish qobiliyatini pasayganligiga shikoyat qilgan. Jarohati tufayli qaysi xujayralarning yo'qolishiga sabab bo'ladi?

Javob: Neyrosensor xujayralari

763. Elektron mikrofotografiyada neyrogen taraqqiyotga ega bulgan,shilliq padadaning epiteliysidagi azo berilgan. Distal qismida tug'nogichsimon kengaymaga ega,10-12 kiprikchalar bilan qoplangan. . Bu qaysi xujayra?

Javob: Hidlov xujayrasi

764. Travma(jaroxat) tufayli 32 yoshli erkak kishida yuqorigi chig'anoqning shilliq parda shikastlangan. Bu esa o'z navbatida nimaga olib keladi?

Javob: Hid bilish xususiyati buziladi

765. Quruq plevrit bilan og'rigan bemorda pleraning ishqalanish shovqini eshitilayapti. Qaysi epiteliyning shikastlanishi tufayli bu shovqin eshitiladi?

Javob: Bir qavatli yassi epiteliy

766. Bemorda surfaktantning aktivligi keskin kamayganligi aniqlandi. Qanday o'zgarishlarni kutish kerak?

Javob: Alveolalar bir-biriga yopishib qoladi.

767. Chala tug'ilgan bolaning o'pka to'qimasining elektron mikrofotosuratida ,surfaktantning yetishmovchiligi tufayli alveollar devorining yopishib qolganligini ko'rish mumkin. Bunday kurinishni yuzaga kelishini qaysi alveollar belgilab beradi?

Javob: II tip alveolotsit

768. Chala tug'ilgan bolalarda ko'pincha nafas olish tizimining yetishmovchiligi kuzatiladi. Asosiy sababni ko'rsating?

Javob: Surfaktant yetishmovchiligi tufayli alveolalarni yetilmaganligi

769. Gistologik preparatda organ berilgan bulib, devori shilliq,shilliq osti , fibroz-tog'ay va adventitsial pardadan iborat. Epiteliysi ko'p qatorli silindrik, shilliq pardada mushak plastinka yo'q, shilliq osti pardasida -oqsil-shilliq tabiatli bezlar bor, gialin tog'ayi yarim xalka ko'rinishida. Bu morfologik belgilar qaysi azoga xos?

Javob: Traxeya

770. Preparatda ichi bo'sh kavak azo berilgan. Shilliq pardasi ikki qatorli kiprikli epiteliy bulib, bir qatorliga o'tadi. Shilliq pardaning mushak plastinkasi kuchli rivojlangan. Tog'ay va bezlar yo'q. Preparatda qaysi organ berilgan?

Javob: Kichik kalibrli bronx

771. Elektron mikrofotografiyada ochiq puffak ko'rinishidagi tuzilmalar berilgan. Ichki devorining yuzasi bir qavatli epiteliy bilan qoplangan bo'lib, respirator va sekretor xujayralar bilan qoplangan. Bu qaysi tuzilmalar?

Javob: Alveolalar

772. Havo o'tkazuvchi yo'llarning epiteliysida apikal qismi gumbazsimon xujayralar aniqlangan bulib, u yerda mikrovorsinkalar bor. Xujayralarda sintetik apparatik kuchli rivojlangan, apikal qismida - sekretor granulalar bor. Bu qaysi xujayralar?

Javob: Klark xujayralar

773. Chala tug'ilgan bolalarda ko'pincha nafas olish tizimining yetishmovchiligi kuzatiladi. Bunda asosan aerogematik to'siqdagi qaysi elementni yetishmovchiligi tufayli?

Javob: Surfaktant

774. Kekirdakning gistologik preparatida ko'p qatorli hilpilliovchi epiteliysi orasida past, ovalsimon yoki uchburchak shakldagi xujayralar aniqlandi. Bazi xujayralarda mitoz figuralar aniqlanadi. Ushbu xujayralar qanday vazifani bajaradi?

Javob: Regeneratsiya vazifasini bajaradi

775. Travma tufayli 30 yoshli erkakda burnining yuqorigi chig'anog'ini qoplab turuvchi shilliq pardasi shikastlandi. Natijada qanday salbiy oqibatlariga olib keladi?

Javob: Hid bilish hususiyati pasayadi

776. Alveolalarning elektron mikrofotosuratida aerogematik to'siqning tarkibidagi xujayralar aniqlandi. Bu qaysi xujayralar?

Javob: Respirator alveolotsit

777. 65 yoshli o'lgan odamni yorib ko'rganda, kasallangan azo o'pka to'qimasi bo'lib, patologik jarayon bronxlarda joylashgan. Gistologik preparatni ko'rganda bezlar, tog'ay orolchalari va ko'p qatorli epiteliy ko'rinib turibti. Qaysi bronxlarda o'zgarish kuzatilgan?

Javob: O'rta kalibrdagi bronxlarda

778. 2 yoshli bolada bronx daraxtidan shilliq ajralishi kuzatilgan. Bu holat bronxlarni devorini qoplab turuvchi qaysi tuzilmalar bilan bog'liq?

Javob: Kiprikchalar

779. Chala tug'ilgan bolaning o'pkasidan tayyorlangan elektron mikrofotografiyada, surfaktantning yetishmovchiligi tufayli alveolalar devorining yopishib qolganligi aniqlandi. Qaysi xujayralarning vazifasini buzilishi tufayli yuzaga keladi?

Javob: II tip alveolotsitlar

780. Malumki, aerogematik to'siqning asosiy komponenti surfaktant- alveolyar kompleksdir, u alveollar devorini nafas chiqargandan so'ng yopishib qolishiga to'sqinlik qiladi. Alveolalarning qaysi biri fosfolipidlarni ishlab chiqaradi?

Javob: II tip epiteliotsitlar

781. Gistologik preparatda organ berilgan bulib, devori shilliq, shilliq osti, fibroz-tog'ay va adventitsial pardadan iborat. Epiteliysi ko'p qatorli silindrik, shilliq osti pardadasida oqsil-shilliq tabiatli bezlar joylashgan. Gialin tog'ay to'qimasi yirik plastinalarni hosil qiladi. Qaysi azoga ushbu morfologik belgilar hos?

Javob: Yirik kalibrli bronx

782. Gistologik preparatda nafas yoʻllarining qoplovchi epiteliysida kiprikli va qadaxsimon xujayralardan iborat boʻlib, muko-siliar kompleks hosil qiladi. Ushbu kompleksga qanday vazifa kiradi?

Javob: Havoni changdan tozalash

783. Boʻgʻilish, nafas qisilishi tufayli bemor boʻlimga yotqizildi. Bu nafas yoʻllarining silliq mushaklarining spazmi bilan bogʻliq. Ushbu huruj nafas yoʻllarining qaysi boʻlimi bilan bogʻliq?

Javob: Mayda kalibrli bronxlar

784. Yosh bola tugmachani yutib yubordi. Bronxoskop yordamida oʻshg bosh bronxdan olib tashlandi. Bronxning qaysi epiteliysi yot jism tufayli shikastlangan?

Javob: Bir qavatli koʻp qatorli kiprikli epiteliy

785. 56 yoshli erkakda traxeyaning havfsiz oʻsmasi aniqlangan. Havfsiz oʻsmasi kelib chiqish manbai qaysi epiteliy?

Javob: Bir qavatli koʻp qatorli kiprikli epiteliy

786. Intubatsiya paytida kekirdak devori jarohatlangan. Bunda qaysi epiteliyning butunligi buzilgan?

Javob: Bir qavatli koʻp qatorli kiprikli past prizmatik epiteliy

787. 48 yoshli erkak kishining oʻng oʻpkasini oʻrab turgan visseral plevrasida havfsiz oʻsma aniqlangan. Ushbu havfsiz oʻsmaning rivojlanish manbasini koʻrsating?

Javob: Bir qavatli yassi epiteliy

788. Atsinusning alveolyar boʻshligʻi orasiga bakteriyalar kirgan boʻlib, ularning surfaktant bilan toʻqnashuvi kuzatilgan. Bu esa oʻz navbatida alveolalar devorida joylashgan xujayraning faolligi ortishiga sabab boʻladi. Bu xujayralarning nomini ayting?

Javob: Alveolyar makrofaglar

789. Oʻpkadan olingan bioplatni mikroskopik tekshirganimizda, terminal bronxiolalar aniqlandi. Ushbu bronxiolalar devorini qaysi epiteliy qoplangan?

Javob: Bir qavatli kubsimon kiprikli epiteliy

790. Otolaringolog shifokorning qabuliga bemor burun boʻshligʻini qurub qolib, oʻziga hos nohushliklarga olib kelayotganligiga shikoyat qildi. Burun boʻshligʻini tekshiruvdan oʻtkazilganda shilliq pardadagi shilliq bezlarning faoliyati buzilganligi aniqlandi. Bu bezlar shilliq pardaning qaysi qavatida joylashgan?

Javob: Shilliq pardaning hususiy plastinkasida

791. Malumki, shaxtada ishlovchi ishchilar koʻmirni changini yutadi. Oʻpkaning qaysi xujayralarida koʻmirning isi aniqlanadi?

Javob: Alveolyar makrofaglar

792. Oʻpkasi yalligʻlangan bemorning bioplati mikroskopik tekshirganimizda, respirator vazifani bajaruvchi xujayralarning jaroxatlanishi kuzatilgan. Bu xujayralarning nomini ayting?

Javob: I tipa alveolotsitlar

793. Nafas olish tizimidagi azolardan tayyorlangan preparatdanaysimon azo aniqlangan. Epiteliysi past, mushak plastinkasi kuchli rivojlangan, togʻay va bezlari yoʻq. Azoning nomini ayting.

Javob: Mayda kalibrli bronx

794. Alveolalarda maxsus xujayralar boʻlib, ular gaz almashinuvini boshqaradi. Aerogematik toʻsiqning tarkibiga kiradi. cheskogo baryera. Bu xujayralarning nomini ayting?

Javob: I tipa alveolotsitlar

#### TERI

795. Sud-tibbiyot ekspertizasida daktiloskopiya metodi keng qullaniladi.

Bunda terining surgichli kavati dagi rasmlar orkali. Kaysi tukima dermaning ushbu kavatini xosil kiladi?

Javob: Siyrak tolali shakllanmagan biriktiruvchi to'qima

796. Travma natijasi tufayli terining usuvchi kavatigacha yuk.  
Bunday xolatda regenerayiya manbasi bulib xizmat kiladigan xujayralarni ayting.  
Javob: Bazal qavat xujayralari

797. Yosh o'tishi bilan terining tarangligi kamayib ,o'zgarishlarga uchraydi.Burmalar va ajin paydo bo'ladi. Qaysi tuzilmalarni o'zgarishi bunga sabab bo'la oladi?  
Javob: Elastik tolalar

798. 12 yoshli bemor bolada terisida oq joylar aniklandi. U yerda melanin pigmenti yo'q edi. Dog'lar 10 yoshidan boshlab paydo bo'lib borgan sari kattalashgan. Qaysi xujayralarning yo'qligi hisobiga yuzaga kelgan?  
Javob: Melanotsitlar

799. Sud-tibbiyot ekspertizasida vaqti vaqti bilan kishining kimligini aniqlashga to'g'ri keladi. Bunda daktiloskopiya dan foydalaniladi. Bunda terining qaysi qavatidan nusxa oliniladi?  
Javob: So'rg'ichli qavat

800. Terining to'rsimon qavati shikastlangan. Qaysi xujayralarning differoni hisobiga regeneratsiya kuzatiladi?  
Javob: Fibroblastik

801. 30 yoshli bemorda terining havfli o'smasi aniqlandi. Epidermisning qaysi xujayralari immun javobda qatnashadi?  
Javob: T-limfotsitlar

802. Gistologik preparatda organ berilgan bulib, devori qavat- qavat bo'lib joylashgan, kqp qavatli yassi epiteliy bilan qoplangan. Bazal membranasi ostida biriktiruvchi to'qima joylashgan.Epiteliy ostidagi biriktiruvchi to'qimaga surg'ich hosil qilib botib kirgan.Bu morfologik belgilar qaysi azoga xos?  
Javob: Teri

803. Gistologik preparatda tarining epidermis kavati berilgan bulib, bazal, tikanaksimon, donador, yaltirok va kalın muguz pardadan iborat. Bunda insonning terisining kaysi kismi berilgan?  
Javob: Qo'l kafti

804. Teri epidermisining elektron mikrofotografiyasida,kubsimon xujayralar orasida noto'g'ri o'simtali xujayralar ko'rindi.Sitoplazmasida Goldji apparati rivojlangan, ribosomalar va melanosomalari ko'p. Xujayraning nomini ayting  
Javob: Melanotsit

805. Mikropreparatda apokrin ter bezlarining oxirgi bo'limlarida mioepitelial xujayralar ko'rinmoqda.Ular qanday vazifani bajaradi?  
Javob: Qisqaruvchi

806. Yosh o'tishi bilan terining tarangligi kamayib ,o'zgarishlarga uchraydi.Terining tarangligini qaysi tuzilmalar belgilab beradi?  
Javob: Asosiy moda

807. Biopsiya qilib tayyorlangan terida o'simtalarga ega,sitoplazmasida to'q jigarrangli sekretor granulalar aniqlangan. Bu qaysi xujayralar?  
Javob: Melanotsitlar

808. Kriminalistikada ,(daktiloskopiya) qo‘l panjasining epidermisi shaxsni kimligini tasdiqlashda, genetik anomalialarni hamda Daun kasalligiga tashhis qo‘yishda qo‘llaniladi. Bunda terining qaysi qavatidan nusxa oliniladi?  
Javob: So‘rg‘ichli qavat
809. Ultrabinafsha nurlar tasiri natijasida terining rang qorayadi.Bu terining himoya reaksiyasi. Qaysi xujayralar bu faktorni sintezlaydi?  
Javob: Melanin
810. Bemorda terisida yuza giperemiya aniqlandi. Giperemiya bulgan terida chegarasi anik ,noto‘g‘ri shakldagi palpatsiyada og‘riqsiz tuzilmalar bor.Terining qaysi qismi mikozi bilan zararlangan?  
Javob: Ko‘p qavatli muguzlanmaydigan epiteliy
811. Ultrabinafsha nurlar tasirida odamning terisining rangi qoraydi. Bunday qorayish organizmning himoya reaksiyasiga kiradi.Terini himoyalash uchun qanday omil ishlab chiqiladi?  
Javob: Melanin pigmenti
812. Teri epidermisining bazal va tikanaksimon qavatlarida mitoz bo‘linish bosqichidagi hujayralar sonining oshganligi kuzatilgan. Qanday holatlarda bunday jarayon sodir bo‘ladi?  
Javob: Regeneratsiya jarayonida.
813. Terining bir qismiga ultrabinafsha nurlari ta'sir ettirildi. Ushbu jarayonda epidermis hujayralarida qanday o‘zgarishlar ro‘y beradi?  
Javob: Melanotsitlar soni oshadi.
814. Teri shikastlangan. Qaysi qavat hujayralari hisobiga epidermis qayta tiklanadi?  
Javob: Epidermisning o‘suvchi bazal va tikanaksimon qavatlari hisobiga.
815. Teri epidermisi hujayrasi elektronogrammasida hujayraning yadro, mitoxondriya, endoplazmatik to‘ri mavjud emasligi ko‘rindi. Bu hujayra epidermisning qaysi qavatiga tegishli?  
Javob: Yaltiroq qavatiga.
816. Organizmda A vitamini yetishmasligi aniqlangan. Ushbu holat terining muguzlanishiga qanday ta'sir ko‘rsatadi?  
Javob: Muguzlanish jarayoni tezlashadi.
817. Rasmda ikkita odamning barmoq izlari berilgan. Barmoq izlarining o‘ziga xosligi nimaga bog‘liq?  
Javob: Dermaning so‘rg‘ichsimon qavatiga
818. Organizmning ochlik holatida ekanligi aniqlandi. Xaddan tashqari ozib ketganda ham teri osti yog‘ kletchatkasi qayerlarda saqlanib qoladi? Nimaga?  
Javob: Barmoq yostiqlari, Tovonda. Bu qismlardagi teri osti yog‘ kletchatkalarini yumshatuvchi kuchli mexanik ta'sirlarni bajaradi.
819. Bemorda buyrakning ajratish funksiyasi buzilgan. Bu holat teri funksiyasiga qanday ta'sir ko‘rsatishi mumkin?  
Javob: Qisman ajratish vazifasini bajaradigan ter bezlarining faoliyati tezlashadi.
820. Teriga ultrabinafsha nurlari bilan ta'sir ko‘rsatildi. Bunday holatlarda terining qaysi funksiyalari ishga tushadi?  
Javob: Himoya funksiyasi - melanin pigmenti hosil bo‘ladi, vitamin hosil qilish funksiyasi - vitamin D sintezlash.
821. Uyqu vaqtida organizmdagi hamma tomirlarda ham qon aylanmaydi. Ushbu holatda teri qanday vazifani bajaradi?  
Javob: Qon deposi.



822. Uzoq muddat kombinezonda ishlash oqibatida bemorda issiqlik urishi kuzatilgan. Terining qaysi funksiyasi zararlangan?

Javob: Issiqlik qaytarish vazifasi.

823. Embrional davrdagi shartli tajribada pushtning dorzal mezoderma - dermatom qismi zararlantirildi. Ushbu holat terining rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Javob: Dermaning hosil bo'lishi buziladi.

824. Terining derma qavatida qisqarib "o'rdak terisi" deb nomlanadigan hosilani paydo qiladigan silliq mushak hujayralari to'plamlari mavjud. Bu holatda teri tuzilishida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?

Javob: Yog' bezlarining ajralishitezlashadi, qon oqishi sekinlashadi, issiqlik qaytarish kamayadi.

825. Soch piyozchasining trofikasi buzilgan. Bu soch o'sishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Javob: Soch o'smaydi, sochlar to'kiladi.

826. Terining to'rsimon qavati va teri osti yog' kletchatkasining chegarasidan tayyorlangan preparatda bezning oxirig bo'limlari ko'ringan. Bu qanday bezlar?

Javob: Ter bezlari.

#### SEZGI A'ZOLARI

827. Ko'z olmasidan tayyorlangan gistologik preparatda uchta neyronlar zanjiridan iboratligi ko'rinib turibti. Ushbu neyronlarning tanalari ichki, tashqi yadroli va ganglionar qavatlarda joylashgan. Ko'zning qaysi azosiga ushbu morfologik belgilar xos?

Javob: To'r parda

828. Ko'z olmasiga shisha bo'lakchasi tushgandan bir oy o'tganda so'ng, ko'ziga oq parda tushgan. Natijada ko'ruv o'tkirligini buzilishiga olib keldi. Oq pardaning tushishi muguz pardaning qaysi tuzilmasi xisobiga?

Javob: Muguz pardaning xususiy moddasi hisobiga

829. Bemorga ko'zning muguz pardasi ko'chirilib o'tkazilgan. Muguz pardaning qanday xususiyati borki u yerda ko'chirib o'tkazilgan transplantat qayta ko'chib tushmaydigan?

Javob: Qon va limfa tomirlarning yo'qligida

830. Gistologik preparatda sensoepitelial azoning tuzilishi berilgan. Xujayralari bazal membranada yotib, qo'yidagi xujayralardan iborat: tashqi va ichki sezuvchi xujayralar, tashqi va ichki falangali tashqi-ustun, tashqi chegaralovchi va ushlab turuvchi xujayralardan iborat. Bu morfologik belgilar eshituv azosining qaysi retseptor zonasiga taallukli?

Javob: Eshituv azosiga

831. Elektron mikrofotografiyada neyrogen taraqqiyotga ega bo'lgan azo berilgan. Dendritlari silindrik shaklda, 1000 ga yaqin yopiq membranali disklardan iborat. Bu qaysi xujayra?

Javob: Tayoqcha fotoretseptorlar

832. Elektron mikrofotografiyada neyrogen taraqqiyotga ega bulgan, shilliq padadaning epiteliysidagi azo berilgan. Distal qismida tug'nogichsimon kengaymaga ega, 10-12 kiprikchalar bilan qoplangan. Bu qaysi xujayra?

Javob: Hidlov xujayrasi

833. Okulist tukshiruvidan keyin malum buldiki, bemor ko'k va yashil rangni sezmaydi. Qolgan ranglarni ajratadi. To'r pardadagi qaysi tuzilmalarning vazifasini buzilishi bilan bog'lik?

Javob: Kolbochkasimon neyronlar

834. 14 yoshli bolada kechqurun kurishi buzilgan. Bunday xolat qaysi vitamin organizmga yetishmasa yuzaga keladi?  
Javob: A vitamin
835. Travma(jaroxat) tufayli 32 yoshli erkak kishida yuqorigi chig'anoqning shilliq parda shikastlangan. Bu esa o'z navbatida nimaga olib keladi?  
Javob: Hid bilish xususiyati buziladi
836. Ko'z olmasidan tayyorlangan gistologik preparatda qon tomirlarga ega bo'lmagan azo aniqlanadi. Bunday morfologik belgi qaysi azoni xarakterlaydi?  
Javob: Muguz parda
837. Sezgi azolarining elektron mikrofotografiyasini ko'rganimizda, periferik qismi ikki segmentdan iborat ekanligi ko'rinib turibdi. Tashqi segmentida yarim disklar, ichki segmentida - ellipsoidi mavjud. Bu tuzilma qaysi azoda joylashadi?  
Javob: Ko'rish azosi
838. Sezgi azolarining elektron mikrofotografiyasini ko'rganimizda, tukli xujayralar aniqlanilib, apikal qismida mikroorsinkalari, - stereotsiliy va qutbli joylashgan kinotsiliydan iborat. Bunday morfologik belgi qaysi azoni xarakterlaydi?  
Javob: Muvozanat azosini
839. Vitamin A ning yetishmovchiligi tufayli kishida g'ira-shirada ko'rish qobiliyati pasayadi. Ushbu retseptor vazifa qaysi neyronlarga hos?  
Javob: Tayoqchasimon neyrosensor xujayralarga
840. Vaqt o'tishi bilan qariyalarda ko'z gavxarning hiralashuvi (katarakta) kuzatiladi. Gavxar hira bo'lishi bu esa ko'rish maydoning kichrayishi yoki yo'qolishiga sabab bo'ladi. Qaysi oqsilning optik xamda kimyoviy xususiyatlari sababli bo'ladi?  
Javob: Kristallin
841. Streptomitsin nomli dori preparatiga xaddan ko'p istemol qilgan bemorning eshitish qobiliyatini pasayib ketganligi aniqlandi. Bunday vaziyatda ichki quloqning qaysi xujayralarining faoliyati buzilgan bo'ladi?  
Javob: Tukli neyroepitelial xujayralarning
842. Ko'z olmasining mikropreparatini ko'rganda tomirli pardaning shikastlanishi kuzatilgan. Qaysi embrional material ko'z taraqqiyotida rivojlanishning buzilishi tufayli bo'ladi?  
Javob: Mezenxima
843. Lazer bilan jarrohlik amaliyoti o'tkazilganligi tufayli ko'p qavatli yassi epiteliyini butunligi buzilganligi ko'rish mumkin. Qaysi xujayralarning hisobiga regeneratsiyasi kuzatiladi?  
Javob: Bazal qavatning epiteliotsitlari
844. Bemorda ko'z gavxarining xiralashuvi kuzatildi. Bu buzilishlar ko'z gavxarining qaysi tuzilmalari bilan biringchi navbatda bog'liq?  
Javob: Gavxar tolalari
845. Ko'z olmasining gistologik preparatida ikki tamonlama qabariq linzali, siliar tana bilan kibrkli tananing tolalari bilan bog'langan kapsulali azo aniqlangan. Bu tuzilmaning nomini ayting?  
Javob: Ko'z gavxari
846. Ko'z olmasining tbini ko'rikdan o'tkazayotganda oftalmolog to'r pardaning markaziy teshigiga alohida etibor berdi. Bu qaysi teshik?  
Javob: Eng yaxshi ko'rish joyi

## NERV SISTEMASI

847. Alkogoldan zaxarlanish malumki, muvozanatni xamda xarakat va koordinatsiyalarini buzilishi bilan boradi. Bunday holda miyachaning qaysi xujayralarining vazifasi buzilgan bo'ladi?

Javob: Purkinje xujayralarining

848. Kumush tuzlari bilan impregnatsiyalangan azoning gistologik preparatida, miyachaning po'stlog'i ko'ringan. Unda noksimon, savatsimon, yulduzsimon va donacha xujayralar bor. Ushbu xujayralardan qaysi biri molekulyar qavat tarkibiga kiradi.

Javob: Savatsimon va yulduzsimon xujayralar

849. Kumush tuzlari bilan impregnatsiyalangan azoning gistologik preparatida, miyachaning po'stlog'i kuringan. Unda

Noksimon, savatsimon, yulduzsimon va donacha xujayralar bor. Ushbu xujayralardan qaysi miyachaning effektor neyronlari hisoblanadi?

Javob: Noksimon neyronlar

850. Gistologik preparatda nerv sistemasiga taaluqli bo'lgan azo berilgan. Oq va kulrang moddadan iborat bulib, kulrang moddasi periferiyada joylashgan bulib oltita qavat ajratiladi: molekulyar, tashqi donador, piramidasimon, ichki donador, ganglionar va polimorf xujayralar qavati. Ushbu tuzilmalar qaysi azoga xos.

Javob: Bosh miya yarim sharlar po'stlog'iga

851. Gistologik preparatda nerv sistemasiga taaluqli bo'lgan azo berilgan. Oq va kulrang moddadan iborat bulib, kulrang moddasi markazida joylashgan bulib: ildizcha, tutamli va ichki xujayralardan iborat. Ushbu morfologik belgilar qaysi azoga xos.

Javob: Orqa miyaga

852. Gistologik preparatda nerv sistemasiga taaluqli bo'lgan azo ko'rinib turibdi, uning neyronlari psevdounipolyar neyronlardir. Neyronlar glial va biriktiruvchi to'qimali parda bilan o'ralgan. Guruh-guruh bo'lib joylashgan. Ushbu morfologik belgilar qaysi azoga hos?

Javob: Umurtqalararo nerv tuguni

853. Nerv sistemasining bo'lagini ko'rganimizda, xujayralari qavat-qavat joylashib; yulduzsimon, urchuqsimon, gorizonta, piramidasimon. Nerv tizimining qaysi tuzilmasi javobgar?

Javob: Bosh miya yarim sharlari po'stlog'i

854. Shifoxonaga poliomiyelet tashhisi bilan 15 yoshli bemor yotkazilgan. Bolada harakat tayanch apparatining buzilishlari bilan kechgan. Bunda qaysi tuzilmalarni buzilishi bilan tushuntiriladi?

Javob: Orqa miyaning xarakatlaniruvchi neyroanlarining patologiyasi bilan

855. Nerv tolasining jaroxatlanishi tufayli, o'q silindrning parchalanishi hamda miyelin pardaning erib ketishi bilan amalga oshadi. Miyelin pardaning qayta regeneratsiyasi qaysi nerv tuzilmasi hisobiga bo'ladi?

Javob: Neyrolemmotsitlar (Shvan xujayralari)

856. Homilaning nerv nayidan ektodermal taraqqiyotga ega bo'lgan neyroblast va spongioblastlar hosil bo'ladi. Nerv nayining takomillashuvi tufayli uch qavatdan iborat bo'lib qoladi. Neyronlarning tanalari qaysi qavatda joylashadi?

Javob: Mantiya qavati

857. Gistologik preparatda markaziy nerv sistemasini ko'rganimizda, kulrang moddada uchta qavat borligi tafovut qilingan: molekulyar, ganglionar va donador. Ikkinchi qavatni hosil qilgan xujayralarni ayting.

Javob: Noksimon

858. Preparatni ko'rganimizda, kumush tuzlari bilan impregnatsiya qilinganligi aniqlandi. Preparatda turli hil o'lchamdagi piramidasimon xujayralarni ko'rish mumkin. Xujayraning tanasidan bitta uzun o'simta, uchidan va yon tomonlaridan kalta o'simtalarni ko'rish mumkin. Qaysi preparatni ko'rayotganligimizni ayting.

Javob: Bosh miya yarim sharlar po'stlog'i

859. Tekshirilayotgan preparat, kumush tuzlari bilan impregnatsiya qilinganligi aniqlandi. Bu xujayralar noksimon shaklda, tanasidan 2-3ta dendritlari chiqib yuqoriga ko'tarilgan. Bu qaysi azoning preparati?

Javob: Miyacha po'stlog'i

860. Bemorda virusli kasallik tufayli orqa iya nerv tugunining psevdounipolyar neyronlarini o'limi kuzatilgan. Reflektor yoyning qaysi zvenosi ishdan chiqadi?

Javob: Retseptor (sezuvchi)

861. Umurtqa pog'onasini punksiya qilganda shifokor-nevropatolog miyaning qattiq pardasidan suyuqlikni oldi. Miyaning qattiq pardasi qanday to'qimadan iborat?

Javob: Zich biriktiruvchi to'qimadan

862. Yangi tug'ilgan chaqaloqning orqa miyasining kulrang moddasida o'sma aniqlandi. Qaysi embrional kurtakning hosilasi?

Javob: Qirg'oq vuali qavati

863. Bosh miya yarim sharlar po'stlog'ining mikropreparatini ko'rganimizda baland piramidasimon shakldagi xujayralar aniqlanadi. Ular bosh miya yarim sharlar po'stlog'inining xarakterli belgilaridir. Bu xujayralar kimning nomi bilan atalgan?

Javob: Kiyevlik olim Bets

864. Bosh miyaning jaroxati tufayli glial xujayralarning shikastlanishi kuzatilib, asosan shikastlanish markaziy nerv tizimining kulrang moddasida. которые часть всеgo встречayutsya v serom veshchestve sentralnoy nervnoy sistema. Bu qaysi glial xujayralar?

Javob: Plazmatik astrotsitlar

865. Bokser burni bilan olgan jaroxati tufayli hid bilish qobiliyatini pasayganligiga shikoyat qilgan. Jarohati tufayli qaysi xujayralarning yo'qolishiga sabab bo'ladi?

Javob: Neyrosensor xujayralari

866. Gistologik preparatda nerv sistemasiga taaluqli bulgan azo berilgan. Oq va kulrang moddadan iborat bo'lib, kulrang moddasi periferiyada joylashgan. Neyronlari uch qavatni hosil qiladi: molekulyar, ganglionar va donador. Ushbu morfologik belgilar qaysi azoga xos?

Javob: Miyacha

#### SIYDIK AYIRUV SISTEMASI

867. Bemorda terlashning kuchayganligi, hamda organizmning suvsizlanishi tufayli, siydikning osmolyar bosimi ortgan va diurez kamaygan. Qaysi gormonning o'zgarishi suvning kompensator ushlanib qolishiga sabab bo'ladi?

Javob: Aldosteron

868. 18 yoshli bemorning qonini laborator tekshiruvdan o'tkazilganda, qon plazmasida glyukoza miqdori normada. Lekin siydikda glyukoza aniqlandi. Sabab qayerda ekanligini toping:

Javob: Kanalchalar reabsorbsiyasi

869. Insultdan so'ng, gipotalamusning yadrolari jarohatlanishi tufayli bemorda qandsiz diabet yuzaga keldi. Ushbu bemorda siydik ajralishini ortishiga nima sabab bo'lgan?

Javob: Suv reabsorbsiyasi kuchaygan

870. Buyrakning po'stloq moddasini elektron mikroskopiyasida tuzilma aniqlandi, prizmatik jiyakli epiteliy hamda bazal qismda plazmalemmasida burmalarga ega. Burmalar orasida ko'p miqdorda mitoxondriyalar aniqlanadi. YUqoridagi strukturalar nefronning qaysi qismiga tegishli?

Javob: Proksimal kanalchalarga

871. 10-14% foiz yangi tug'ilgan chaqaloqlarning siydik ayiruv tizimining turli hil nuqsonlari bilan tug'ilishi kuzatilgan. Ushbu nuqsonlarni vujudga kelishi qaysi embrional varaq hisobiga?

Javob: Nefrogonotom

872. Buyrak distal bo'limining egri-bugri kanalchalarida xujayralar aniqlangan bo'lib, ular buyrak tanachasiga zich tegib turibti. Bazal membranasi ingichka, hamda burmalar hosil qilmaydi. Ushbu xujayralar siydikdagi natriyning miqdoriga sezgir bo'lib, renin sinteziga tasir qiladi. Xujayrani nomini ayting?

Javob: Zich dog' xujayralari

873. Embriogenezning ikkinchi oyligidan boshlab doimiy buyraklar (metanephros) hosil bo'la boshlaydi. Qaysi manbalardan hosil qiladi?

Javob: Nefrogen to'qima

874. 35-yoshli buyragi kasal bemor ayolning klinik tekshiruvdan o'tkazilgandan so'ng, uning qonida fibrinogen aniqlangan bo'lib, buyrakning filtratsion apparatining buzilganligidan dalolat beradi. Filtratsion to'siq qaysi komponentlardan tuzilgan?

Javob: Kapillyarlar endoteliysi, uch qavatli bazal membrana, podotsitlar

875. Elektron mikroskop ostida buyrak kanalchalarining devori kubsimon epiteliy bilan qoplanganligi ko'rinib turibti. Epiteliyda to'q va och xujayralar aniqlanadi. Och xujayralarda organellalar kam. Sitoplazmasi burmalar hosil qiladi. Bu xujayralar birlamchi siydik tarkibidagi suvning reabsorbsiyasini taminlaydi. Qoramtir xujayralar tuzilishi bo'yicha medianing pariyetal xujayralarini eslatadi. Qaysi kanalchalar keltirilgan?

Javob: Yig'uvchi kanalchalar

876. Kalamushlarda eksperimental yo'l bilan nefronning distal qismida o'zgarishlar yuzaga keltirilgan. Bunday holatda buyrakda qanday o'zgarishlar vujudga keladi?

Javob: Elektrolit va suvning reabsorbsiyasi buziladi

877. Bemorda tunda siydik ajratilishi kuchaygan. Gipotolamusning qaysi gormonining yetishmovchiligi tufayli yuzaga keladi?

Javob: Vazopressin

878. Glomerulonefrit bilan og'rigan bemorda ikkilamchi siydikning tarkibida albuminlar /albuminuriya/ va glyukoza /glyukozuriya/ ikki hafta mobaynida kuzatilgan. Buyrakning qaysi bo'limining buzilishi natijasida kuzatilgan?

Javob: Proksimal kanalchalarda

879. Buyrakning filtratsion baryerining tarkibidagi uch qavatli bazal membrana muhim rol o'ynab, to'rsimon tuzilishga ega. Bunday bazal membrana qayerda uchraydi?

Javob: Buyrak tanachasida

880. (45 yoshli) surunkali piyelonefrit bilan og'rigan bemorda buyraklarning ajratish vazifasi buzilgan?

Javob: Ter bezlarning faoliyatini kuchaytiradi

881. Bemorning siydigining tahlilida oqsil hamda qand aniqlangan.

Bu vaziyatda nefronning qaysi bo'limi shikastlangan?

Javob: Nefronning proksimal kanalchasi

882. Bemorning peshobida eritrotsitlar yani qizil qon tanachalari aniqlangan. Nefronning qaysi bo'limi shikastlangan?

Javob: Buyrak tanachasining bazal membranasi

883. Buyrakdan biopsiya qilib olingan material elektron mikroskop ostida ko'rilganda. Elektron mikrofotografiyalarda ko'rinishicha: fenestrlangan endoteliy va uning bazal membranasi, unga tashqaridan o'simalarga ega bo'lgan epitelial xujayralar tegib turibti. Elektron mikrofotografiyada buyrakning qaysi bo'limi berilgan.

Javob: Filtratsion to'siq

884. Buyrakning elektron mikrosuratini ko'rganimizda, sitoplazmasida yirik sekretor granulari bor, olib ketuvchi va olib keluvchi arteriolalar devorida joylashgan xujayralar aniqlandi. Buyrakning ushbu xujayralari nimani tarkibiga kiradi?

Javob: Yukstaglomerulyar apparat

885. Surunkali nefrit bilan og'rikan 50 yoshli bemorda anemiya kuzatilgan. Kam qonlilikni vujudga keltiruvchi omilni ko'rsating?

Javob: Eritropoetin sintezining pasayishi

886. 30 yoshli odamning qonida qand miqdori meyorda bo'lib, lekin peshobida aniqlangan. Buyrakning qaysi struktur funksional mexanizmlari shikastlangan?

Javob: Nefronning proksimal bo'limidagi reabsorbsiya jarayoni

887. Buyrakning po'stloq qismining elektron mikroskopiya tuzilma aniqlangan. Ularning yuzasi prizmatik epiteliy bilan qoplangan.

Epiteliysining apikal qismida jiyaklari bor, bazal qismining plazmolemmasida burmalar kuzatilgan. Burmalar orasida ko'p miqdorda mitoxondriyalarga ega. Nefronning qaysi strukturasi tegishli?

Javob: Nefronning proksimal kanalchalariga

888. Buyrakdan tayyorlangan gistologik preparatda, nefronning distal qismi tasvirlangan bo'lib olib keluvchi va olib ketuvchi arteriolalar orasida joylashgan. Kanalchalarning devoridagi xujayralarda yadrosi zich joylashgan, bazal membranasi yo'q. Bu tuzilma qanday nomlanadi?

Javob: Zich dog' xujayralari

889. Buyrak kasalligi bilan og'rikan bemorning arterial qon bosimi oshgan. Arterial qon bosimning ko'tarilishiga sabab buyrakning qaysi tuzilmasi?

Javob: Yukstaglomerulyar xujayralar

890. Buyrak kasalligi bilan og'rikan bemorlarda podotsitlarning shikastlanishi kuzatilgan. Bu vaziyatda qanday funksional o'zgarishlar yuzaga keladi?

Javob: Oqsil filtratsiyasi kuchayadi

891. Buyrakdan tayyorlangan gistologik preparatda, sitoplazma oksifil bo'yalgan, bir qavatli kubsimon epiteliy bilan qoplanganligi kuzatilib turibti. Nefronning qaysi bo'limi preparatda ko'rinib turibti?

Javob: Proksimal egri-bugri kanalcha

892. Buyrakning tanachasining elektron mikrosuratida mayda hamda yirik o'simalarga ega bo'lgan epitelisimon xujayralar aniqlangan. Ular bevosita kapillyarlarning bazal membranasi ga tegib turadi. Xujayraning nomini ayting?

Javob: Podotsit

893. Sog'lom odamda peshobini tekshirib ko'rilganda shaklli elementlar uchramaydi. Nefronning qaysi tuzilmasi eritrotsitlarning birlamchi siydik tarkibiga chiqishiga to'sqinlik qiladi?

Javob: Kapillyarlar ko'ptokchasining bazal membranasi

894. Bemorning peshobini laborator tahlilida, peshob sust ishqoriy reaksiyaga ega ekanligi malum. Peshobdagi kislotali muhitni qaysi xujayralar belgilab beradi?

Javob: Yig'uv naylaridagi sekretor xujayralar

895. Buyrakning preparatida, po'stloq va mag'iz moddaning chegarasida nefronlar aniqlangan. Ularning olib keluvchi va olib chiquvchi arteriolalarining diametri orasida deyarli farq yo'q. Agar ushbu tuzilmaning funksiyasi ishdan chiqsa, buyrakning qaysi faoliyati buziladi?

Javob: Jadal qon aylanganda shuntlash

896. Buyrakdan tayyorlangan elektron mikrofoto suratda nefronning qaysidir bo'limlarida kubsimon shakldagi, apikal yuzasida jiyaklarga ega bo'lgan, bazal qismida esa mitoxondriyalar aniqlangan. Mitoxondriyalar orasida sitolemma ning invaginatsiyalari kuzatiladi. Bu nefronning qaysi qismi?

Javob: Nefronning proksimal kanalchasi

897. Buyrakning endokrin kompleksi, olib keluvchi va olib ketuvchi arteriolar devorining endoteliysining ostida joylashgan bo'lib qon bosimining ortishiga sabab bo'ladi. Bu xujayraning nomi?

Javob: Yukstaglomerulyar xujayralar

898. Peshob tahlilida nefronning nozik bo'limlarining epiteliysi aniqlangan. Ushbu kanalchalarning epiteliysini ayting?

Javob: Bir qavatli yassi epiteliy

899. Siydik ayiruv yo'llarining yallig'lanish jarayonlari natijasida, sust kislotali muhitni buzilishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida bakteritsid xususiyatini kamaytiradi. Peshobga qaysi bo'limda kislotali muhit beriladi?

Javob: Yig'uvchi naychalarda

900. Surunkali piyelonefrit bilan og'rigan bemorning peshobida kislotali muhit kuzatilmaydi. Bakteritsid tasir qilmaydi. Bu jarohat qaysi tuzilmalarda kuzatiladi?

Javob: Yig'uv naylarining qoramtir xujayralarida

901. Preparatda quyuq bo'lib joylashgan kapillyarlar chigali joylashgan bo'lib, u ikki kapillyar orasida . (rete mirabile). Qaysi azoda uchraydi?

Javob: Buyrakda

902. Buyrak tanachalarining elektron mikrosuratida, kapillyarlar chigali orasida o'simtali, sitoplazmasidaye ko'p miqdorda filamentlarga ega xujayra bor. Nomini ayting?

Javob: Mezangial xujayralar

903. Bemorning peshobini laborator tahlilida proteinuriya (albuminuriya) 8 g/sutkasiga aniqlangan bo'lib, glomerulonefrit deb tashhis qo'yilgan. Peshobda oqsilning bo'lishi nima bilan bog'liq?

Javob: Bazal membrananing butunligi bilan bog'liq

904. Embriogenezda mezoneftral nayning shakllanishi tugallandi. Siydik ayiruv tizimidagi qaysi organda anomaliyalarni kuzatish mumkin?

Javob: Siydik nayi

905. Buyrak filtri bazal membranasining o'tkazuvchanligi oshgan. Buning oqibatida qanday buzilishlar yuzaga keladi?

Javob: Filtratsiya jarayoni buzilishi oqibatida birlamchi siydik tarkibiga oqsil, qonning shaklli elementlari o'tib ketadi.

906. Buyrakning gistologik preparatida po'stloq moddasida kanalchalarning ko'ndalang kesimini ko'rishimiz mumkin. Kanalchalarning devori bir qavatli kubsimon epiteliy bilan qoplangan. Hujayraning bazal qutbida sitolemma ning burmalarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin, sitoplazmasida ko'plab

mitoxondriyalar tutadi. Apikal qutbida mikrovorsinkalar tutadi. Hujayra sitoplazmasida ko'pgina lizosoma va pinotsitoz pufakchalari bor. Kanalcha nefronning qaysi qismiga oid?

Javob: Nefronning proksimal bo'limiga.

907. Buyrakning gistologik preparatida kanalchalarning ko'ndalang kesimida kanalcha devorini bir qavatli yassi epiteliy bilan qoplanganini ko'rishimiz mumkin. Hujayraning bazal qutbi chiziqli ko'rinishga ega. Apikal qutbi jiyaksiz. Kanalcha nefronning qaysi qismiga oid?

Javob: Nefronning distal bo'limiga

908. Gistologik preparatda diametri 15 mkm atrofida bo'lgan kanalchaning bo'ylama kesimi ko'rindi. Kanalcha devori bir qavatli yassi epiteliy bilan qoplangan. Kanalcha nefronning qaysi qismiga oid?

Javob: Nefron qovuzlog'ining tushuvchi qismiga

909. Bemorning siydigida oqsil va qonning shaklli elementlari topilgan. Qaysi jarayon buzilgan? Nefronning qaysi bo'limida?

Javob: Filtratsiya. Nefron kapsulasida.

910. Olib keluvchi va olib ketuvchi arteriolalar diametri solishtirgan deyarli bir xil chiqdi. Quyidagi tomirli sistema nefronning qaysi turi uchun xos?

Javob: Yuktamedulliyar

911. Inson buyragining ikkita preparati berilgan: birinchi preparatda po'stloq moddaning qalinligi 1/5 qismmini tashkil etadi, ikkinchi preparatda 1/2 qismini. Tekshiriluvchilarning yosh davrini aniqlang.

Javob: Birinchisi - yangi tug'ilgan chaqaloqning, ikkinchisi -yoshi katta odamning.

912. Siydik nayining ikkita preparati berilgan: birinchisida mushak qavatli ikkita qavatdan iborat (tashqi va ichki), ikkinchisida uchta qavatdan (ichki, o'rta va tashqi). Preparatlar siydik nayining qaysi qismiga tegishli?

Javob: birinchisi - siydik nayining yuqori qismiga, ikkinchisi - siydik nayining paski qismiga.

913. Siydik qopining ikkita preparati berilgan: birinchi preparatda shilliq qavat ko'pginaburmaldan iborat, ikkinchi preparatda shilliq qavatda burmalar yo'q. Ikkala preparatning qanday holatda ekanligini aniqlang.

Javob: birinchisi bo'sh siydik qopi, ikkinchisi to'lgan holatda.

914. Bemor bir sutka davomida 10 l siydik ajratayapti. Siydik hosil bo'lishining qaysi fazasi buzilgan? Bu buzilish nima bilan bog'liq?

Javob: Antidiuretik gormon sekretsiyasi yetishmochiligi sababli suv reabsorbsiyasi buzilgan.

915. Nefron kapsulasi yallig'lanish oqibatida zararlangan. Nefronning qaysi vazifalari buziladi?

Javob: Filtratsiya jarayoni, oqibatda moddalar almashinuvi mahsulotlarining oxirgi mahsulotlariningchiqishi buziladi.

916. Bemor qonida yangi eritrotsitlar aniqlandi. Siydik ajratish tizimining qaysi qismida patologiya aniqlanadi?

Javob: Siydik nayi, siydik qopi yoki siydik chiqaruv kanali.

917. Bemor peshobida ko'p miqdorda oqsil aniqlangan. Siydik hosil bo'lish jarayonining qaysi davri buzilgan?

Javob: Filtratsiya jarayoni.

918. Odam pushtining ko'ndalang kesmasida bir uchi ikkilamchi tana bo'shlig'iga ochilgan, ikkinchi uchi mezoneftral nayni hosil qilgan naychalar aniqlangan. Bu jarayon buyrakning qaysi embrional davrida ro'y beradi? Odam pushtining muddati qanaqa?

Javob: old buyrak davri. 40 soat atrofida.



919. Tajriba jarayonida pushtning mezonefrol nayi olib tashlandi. Rivojlanish jarayonida ajrauv tizimida qanday buzulishlar kuzatiladi?

Javob: Siydik nayi, buyrak jomi, buyrak kosachalari, so'rg'ich kanalchalari, yig'uv naylari va siydik qopining rivojlanishi buziladi.

920. Buyrak tanachasining kesmasini elektron mikroskop ostida ko'rganimizda sitotrabekula va sitopodiyalarni tutuvchi yirik hujayralar aniqtangan. Bu hujayralar qanday nomlanadi? Buyrakning qaysi tuzilmalarida joylashgan?

Javob: Podotsitlar, nefron kapsulasining ichki varag'ida joylashgan.

921. Odam buyragining ikkita preparati berilgan. Buyrak tanachalarining soni kesma yuzasida hisoblanganda, birinchi preparatda ikkinchi preparatga qaraganda 6 barobar kamligi aniqlandi. Tekshiriluvchilarning yoshini aniqlang.

Javob: Birinchisida katta yoshli odamning, ikkinchisida 1 yoshgacha bolaning preparati berilgan.

922. Odam buyragining ikkita preparati berilgan. Birinchisida - ba'zi buyrak kanalchalarining bo'shliqlari yopiq, nefron bo'limlari diametri bir xil o'lchamda, ikkinchisida - kanal bo'shliqlari ochiq, kanalchalar diametrida farqlar bor. Tekshiriluvchilarning yoshlarini aniqlang.

Javob: Birinchisi - yangi tug'ilgan chaqaloq, ikkinchisi - yoshi katta odam.

923. Siydik nayining ikkita preparati berilgan: birinchisida shilliq osti qavatida bezlar aniqlanadi, ikkinchisida bezlar yo'q. Birinchi va ikkinchi preparat siydik nayining qaysi qismiga tegishli?

Javob: birinchisi - pastki, ikkinchisi - siydik nayining yuqori qismidan olingan.

924. Siydik pufagining turli qismlaridan olingan biopsiyalardan ikkita preparat berilgan. Birinchi preparatda shilliq qavatda burmalar ko'p, ikkinchi preparatda burmalar yo'q. Preparatlar siydik qopi shilliq qavatining qaysi uchastkalaridan olingan.

Javob: Birinchi preparat siydik qopining tubi va tanasidan, ikkinchi preparat siydik nayining siydik qopiga o'tish joyidan olingan.

925. Kapillyar koptokchasidagi qon bosimini o'lchaganda birinchi holatda 80 - 90 mm simob ustuniga teng, ikkinchisida 40 mm simob ustuniga tengligi aniqlandi. Birinchi va ikkinchi holatlardagi tomirlar qaysi nefron tarkibiga kiradi?

Javob: Birinchisi - po'stloq nefroni, ikkinchisi - yukstamedullyar nefronga.

926. 176. Bemor siydigida eritrotsitlar aniqlandi. Nefronning qaysi qismi zararlangan?

Javob: Nefron kapsulasining ichki varag'i.

927. Buyrakning bir qancha patologik holatlarida nefronning proksimal qismining epiteliysining ko'chishi kuzatiladi. Bunda siydik hosil bo'lishining qaysi jarayoni shikastlanadi?

Javob: Reabsorbsiya jarayoni buziladi.

928. Buyrakning biomikroskopik tajribasida qon orqali yuborilgan bo'yoqning hamma nefrondan ajralmasligi kuzatilgan. Bu nimadan darak beradi?

Javob: Hamma nefronlarning bir vaqtda ishlamasligidan.

#### ERKAKLAR JINSIY SISTEMASI

929. Ikkita preparatda erkaklar jinsiy sistemasi naylarining kesmasi berilganda. Birinchi preparatda naycha kiprikchali epitelial hujayralar bilan, ikkinchi preparatda stereotsiliya tutuvchi epiteliy hujayralari bilanqoplangan. Preparatda erkaklar jinsiy sistemasining qaysi bo'limlari berilgan.

Javob: Birinchisida - urug'don ortig'ining olib chiquvchi naylari, ikkinchisida - urug'don ortig'ining egri bugri nayi.

930. Preparatda urug'donning egri-bugri kanallarining kesmalari berilgan. Kanalchalar orasida yumoloq yoki ko'p burchakli yirik lipid kiritmalarga boy hujayra to'plamlarini tutuvchi siyrak biriktiruvchi to'qima joylashgan. Preparatda qaysi hujayralar berilgan? Ularning vazifalari qanday?

Javob: Urug'donning bez hujayralari. Testosteron - erkaklik gormonini ajratib chiqaradi.

931. Bolani tekshirish davomida urug‘donning o‘z vaqtida moyak xaltasiga tushmagani aniqlangan. Agarda keyinchalik ham urug‘don moyak xaltasiga tushmasa, urug‘donda spermatogenez jarayoni kuzatiladimi?  
Javob: Yo‘q, kuzatilmaydi.
932. Urug‘donning mexanik shikastlanishi natijasida egri bugri kanalchalarda posttravmatik aspermatogenez rivojlanmoqda. Bu hodisaning sababi nimada?  
Javob: Spermatogen epiteliysi butunligini buzilishi.
933. Xirosima va Nagasaki atom portlashida zararlangan erkaklarda katta chastotada genetik patologiyali farzandlar dunyoga kelgan. Ushbu holatning sababi nimada?  
Javob: Urug‘don spermatogen hujayralarining radiatsion zararlanishi.
934. Uzoq vaqt maxsus himoya vositalarisiz issiq sexlarda ishlovchi erkaklarda (po‘lat ishlab chiqaruvchilar) aspermatogenez rivojlanadi. Ushbu holatga sabab nima?  
Javob: YUqori haroratning uzoq muddatli ta'siri aspermatogenezga olib keladi, chunki normada spermatogenez moyakda 340-350S haroratda kechadi.
935. Eksperiment jarayonida urug‘doldagi bezli interstitsial hujayralar zararlantirildi. Urug‘dondan oqayotgan qonda qanday o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin?  
Javob: Testosteron gormoni miqdorining kamayishini.
936. Shartli tajribada gipofizda FSG sekretiysi buzilgan. Urug‘donda qanday o‘zgarishlar kechadi?  
Javob: Spermatogenez to‘xtaydi.
937. Tajriba davomida embrionning sariqlik xaltachasi devoridagi gonotsitlar zararlantirildi. Erkalar jinsiy sistemasida qanday buzilishlar sodir bo‘ladi?  
Javob: Gonadalarning jinsiy hujayralarga aylanishi kuzatilmaydi, spermatogenez sodir bo‘lmaydi.
938. Egri-bugri urug‘kanallarining ko‘ndalang kesmadagi preparatida spermatozoidlar va spermatidalar ko‘rinmoqda. Kesmada spermatogenezning qaysi davri tasvirlangan?  
Javob: Shakllanish davri.
939. Tajribada prostata bezining normal muhiti o‘zgartirildi (ishqoriy muhit kislotaliga). Bu o‘zgarish spermatozoidlarga qanday ta'sir ko‘rsatadi?  
Javob: Spermatozoidlar xarakatlanish qobiliyatini yo‘qoladi.
940. Erkaklar jinsiy tizimining kanalchalarining ko‘ndalang kesmasidan tayyorlangan preparalda kanalcha devori kiprikli silindrik va kubsimon, sekretini apokrin tipida ajratadigan epiteliy hujayralari ketma-ketligi bilan qoplangan. Ushbu kanal erkaklar jinsiy tizimining qaysi qismiga xos?  
Javob: Urug‘don ortig‘ining urug‘ olib ketuvchi kanallariga.
941. Urug‘don ortig‘ining ko‘ndalang kesimida hamma kanalchalar ko‘p miqdorda yetuq spermatozoidlar tutishi aniqlandi. Urug‘don ortig‘idagi spermatozoidlarning ortiqchaligiga sabab nima?  
Javob: Urug‘don ortig‘ining evakuator funksiyasining buzilishi.
942. Bolaning urug‘donidan biopsiya olinganda, bir qator urug‘don egri-bugri kanalchalarining bo‘shlig‘i borligi va u yerda spermatogoniy va yakka spermatotsitlarning borligi aniqlandi. Interstitsial hujayralar (glandulotsitlar) mavjud emas. Sizning fikringizcha bola necha yoshda?  
Javob: Urug‘donning holati 7-8 yoshli yoshga mos keladi.
943. Bemor erkakning gipofizida FSG gormon ishlab chiqaruvchi gonadotropotsitlarida distrofik o‘zgarishlar yuzaga kelgan. Ushbu hujayralarning nobud bo‘lishi urug‘donning morfofunksional holatiga qanday ta'sir ko‘rsatadi?  
Javob: Gipofizning FSG gormon ishlab chiqaruvchi hujayralarining nobud bo‘lishi yoki gipofunksiyasi birinchi navbatda spermatogenezning susayi

944. Lyutropin gormonini sintezlovchi gonadotropotsitlarning nobud bo'lishi bilan kechuvchi gipofizning patologiyasida urug'donning morfofunktsional holati qanday bo'ladi?

Javob: Gipofizning lyutropin gormonini sintezlovchi gonadotropotsitlarining nobud bo'lishi natijasida erkaklik gormonini ishlab chiqaruvchi glandulotsitlarning funksiyasi pasayadi.

945. 18 yoshli o'smirda ikkilamchi jinsiy belgilar rivojlanishining keskin ortda qolishi kuzatilgan. Ushbu holatning morfologik va funksional sabablari nima bilan bog'liq?

Javob: ikkilamchi jinsiy belgilar rivojlanishining ortda qolishi erkaklik gormonini ishlab chiqaruvchi glandulotsitlarning funksiyasining pasayishi bilan bog'liq.

946. 18 yoshli o'smir yigitda urug'donning endokrin faoliyatiga surunkali salbiy ta'sir ko'rsatilgan. Ushbu holatning sabablarini tushuntirib bering.

Javob: Erkaklik gormoni ishlab chiqarilishiga surunkali salbiy ta'sir ko'rsatilgan sababli ikkilamchi jinsiy rivojlanishdan ortda qolgan. Buning sababi glandulotsitlarning kamayishi yoki gipofunksiyasi.

947. Uzoq vaqt befarzandsizligi tufayli, erkakni sperma suyuqligi tekshirilganda aspermiya holati aniqlandi. Jinsiy sistemaning qaysi bo'limi shikastlangan?

Javob: Egri-bugri urug' kanalchalari

948. 43 yoshli erkak kishi orxit bilan og'rigandan so'ng, spermatozoidlarning ishlab chiqarilishi buzilgan. Urug'donning qaysi strukturalarida patologik o'zgarishlar vujudga kelgan?

Javob: Egri-bugri urug' kanalchalari

949. Gistologik kesmada ko'rinib turibdiki, organ tashqaridan oqsil hamda seroz parda bilan o'ralgan. Organning stromasi siyrak tolali biriktiruvchi to'qimadan iborat bo'lib, ko'p miqdorda Leydig xujayralarini uchratish mumkin. Kanalchalarning devori spermatogen epiteliy bilan qoplangan. Bu qaysi organ?

Javob: Urug'don

950. Moyak xaltachasining mexanik jarohatidan so'ng, urug'don to'ring epitelial qoplamasida o'zgarishlar vujudga kelgan. Qaysi epiteliy shikastlangan?

Javob: Bir qavatli kubsimon epiteliy.

## AYOLLAR JINSIY SISTEMASI

951. Sud-tibbiyot ekspertizasi bo'limiga nomalum ayolning jasadini olib kelindi. Tuxumdoni ko'zdan kechirilgan 5 sm li dumaloq, sariq pigment saqlovchi tuzilma aniqlandi. Bu tuzilma qanday xujayralardan iborat?

Javob: Interstitsial

952. Ginekologik amaliyotdan so'ng, 32 yoshli ayol qornining pastki qismida og'riq, qindan ajralmalar ajralishiga shikoyat qildi. Tekshirilishdan so'ng bachadonning shilliq pardasini yallig'lanishi deb tashhiz qo'yilgan. Yallig'langan qavatning nomini ayting?

Javob: Endometrium

953. Ayol tuxumdonining giperemiyasi kuzatilgan. gemato-follikuliyar to'siqning shishi, follikul devori segmentyadrolu leykotsitlar bilan infiltratsiyalangan. Follikul hajmi kattalashgan. Devori yupqalashgan. Bu holat hayz siklining qaysi bosqichiga misol bo'la olladi?

Javob: Ovulyatsiya oldi davr

954. Endometriyning gistologik tasvirida ko'rinib turibdiki: qalinlashuvi, shish, bezlar tarmoqlangan, bo'shlig'i kengaygan, ko'p miqdorda shilliq ishlab chiqargan hamda stromasida detsidual xujayralar aniqlangan. Hayz siklining qaysi davri yuqoridagilarga to'g'ri keladi?

Javob: Sekretor (hayz oldi davri)

955. Ginekologiya bo'limida bepustlik tashhisi bilan 35 yoshli bemor yotkazilgan bo'lib, endometriysidan biopsiya olingan. Mikroskop ostida tekshirilganda shilliq pardaning shishi ,bachadon bezlarining egri -bugriligi hamda quyuq sekret bilan to'lganlagi aniqlangan. Bunday holatni qaysi gormon amalga oshiradi?

Javob: Progesteron

956. Bepusht ayolning endometriysini biopsiya qilib o'rganilganda ,organdagi o'zgarishlar progesteron gormoni tasiri ostida yuzaga kelgan. Bu gormon qayerda ishlab chiqariladi?

Javob: Tuxumdonning sariq tanasida

957. Tuxumdonning preparatida o'sishning turli bosqichlarini o'tayotgan follikulalar , atretik tana hamda sariq tananing rivojlanishi kuzatilgan. Ovarial-mentrual siklning qaysi bosqichiga javob beradi?

Javob: Hayz oldi davri

958. Ayol kishining tuxumdonining mikropreparatida aniqlanishicha, keng bo'shliqqa ega bo'lgan struktura aniqlangan. II tartibli ovotsit yaltiroq parda ,nurli toj bilan o'ralgan bo'lib, tuxum tepaligida turibti. Devori follikulyar epiteliy va teka bilan o'ralgan. Tuxumdonning qaysi strukturalari tarkibiga kiradi.

Javob: Yetilgan (uchlamchi) follikul

959. Ayol kishining tuxumdonining mikropreparatida oval shakldagi tuzilma aniqlandi, u yirik bez tabiatli xujayralardan iborat bo'lib, tarkibida lyutein pigmentini tutadi. Ushbu strukturaning markazida biriktiruvchi to'qimali chandiq aniqlangan. Bu qaysi tuzilma?

Javob: Sariq tana

960. Ayol kishining qonida estrogenlar miqdori aniqlandi. Qaysi xujayralar estrogen sintezlaydi?

Javob: Ikkinchi tartibli follikulning interstitsial va follikulyar xujayralari

961. Gematoksilin va eozin bo'yog'i bilan bo'yalgan sog'lom tuxumdon preparatida noto'g'ri shakldagi och pushti tuzilma aniqlangan. Bu tuzilma nima hisobiga hosil bo'ladi?

Javob: Follikulning atreziyasi

962. Homilador ayolning qonida estrogenlar miqdori kam, lekin progesteron miqdori baland. Ovarial-mentrual siklning qaysi bosqichida qon analizi tahlil qilingan?

Javob: Hayz oldi davri (sekretor)

963. Sut bezidan biopsiya yo'li bilan tayyorlangan preparatda ,bazal membrana hamda laktotropotsitlar orasida yulduzsimon xujayralar aniqlangan. Ushbu xujayralarning rivojlanish manbasini ayting?

Javob: Teri ektodermasi

964. 50-yoshli bemorning tuxumdonida kista aniqlandi. Kista qaysi strukturadan rivojlanadi?

Javob: Follikuladan

965. Sud-tibbiyot ekspertizasiga keltirilgan ayol kishining murdasi keltirildi. Uning tuxumdonida 5 sm li dumaloq tuzilma aniqlandi. Tuzilmaning ichida sariq rangli pigment aniqlangan. Tuxumdonda patologik o'zgarishlar yo'q. Ushbu tuzilma qanday xujayralardan tashkil topgan?

Javob: Lyutein xujayralaridan

966. Sog'lom ayolning bachadonining endometriy qavatidan biopsiya qilib ko'rilganda, hususiy plastinkasida poligonal shakldagi, lipid hamda glikogen kiritmalarga boy xujayralar aniqlangan. Ushbu xujayralarni nomini ayting?

Javob: Detsidual xujayralar

967. Embriogeneznning dastlabki oylarida birinchi to'rtta somit oyoqchalarining shikastlanishi kuzatilgan. Qaysi organlarning hosil bo'lishi buziladi?

Javob: Pronefrosning taraqqiyoti

968. Gemotoksilen-eozin bilan bo‘yalgan ayol kishining tuxumdonining mikropreparatida aniqlanishicha, follikulyar epiteliy bilan qoplangan kubsimon shakldagi xujayralar aniqlangan. Ovotsit atrofida qizil rangli parda bor. Bu qaysi follikul?

Javob: Birlamchi follikul

969. Ovarialno-menstrual siklda endometriyning bezlarida o‘zgarishlar kuzatiladi. Bu bezlar tuzilishi bo‘yicha qanday bez?

Javob: Tarmoqlanmagan ,oddiy naysimon bez

970. Ayol kishining tuxumdonining mikropreparatida ,po‘stloq qismida uchlamchi yetuk follikul aniqlangan. Ovogenezning qaysi etapida hosil bo‘lgan?

Javob: Yetilish bosqichida

971. Abort jarayonida ayolda endometriyning hamma qavatlarini olib tashlandi. Bunday operatsiya oqibatida qanday potologik holat yuzaga keladi?

Javob: Bachadon endometriysining tiklanish qobiliyati yo‘qolganligi sababli bepustlik yuzaga keladi

972. Tez-tez yallig‘lanish sababli tuxumdon oqsil qavatining zichlashishi va kengayishi kuzatilgan. Bu holat qanday oqibatlarga olib keladi?

Javob: Ovulyatsiyaning to‘xtashi va ovulyatsiya bo‘lmagan follikula o‘rnida kista hosil bo‘lishiga olib keladi

973. Tuxumdon po‘stloq moddasining kesmasida sariq tanaga o‘xshash tuzilmalar topilgan. Bittasining markazida yaltiroq qavati qalinlashib burishgan, boshqasining markazida biriktiruvchi to‘qimali chandiqni ko‘rish mumkin. Kesmada qanday tuzilmalar ko‘rinmoqda?

Javob: Atretik follikula va oq tana.

974. Atretik follikulalarning yuqori funksional aktivligi aniqlangan. Atretik follikulalarning qaysi hujayralari gipertrofiyaga uchragan?

Javob: Ichki qobiqning tekotsitlari.

975. Ayol qonida estrogenlarning oshgani aniqlandi. Tuxumdonning qaysi tuzilmalari estrogenning oshishi uchun javobgar?

Javob: Yetilayotgan va yetilgan follikulalarning follikulotsit va tekotsitlari.

976. Ovogoniyalarining ko‘payish davrida ayol organizmiga yomon omil ta'sir qilgani aniqlangan. Ushbu omil organizmning qaysi davrida ta'sir qilgan va tuxumdonning qaysi tuzilmalariga ta'sir qilgan?

Javo: Embrional rivojlanish davrida ta'sir qilgan va primordial follikulalarga ta'sir qilgan.

977. Ovotsitlarining o‘shish va yetilish davrida tuxum hujayraning trofikasini ta'minlaydigan hujayralar mavjud. Bu hujayralar qanday nomlanadi va qaysi tuzilmani hosil qiladi?

Javob: Follikulotsitlar, nurli toj.

978. 2 ta bachadon endometriysining preparati berilgan. Birinchi preparatda - endometriy kipriksiz silindrsimon epiteliy bilan qoplangan, bachadon bezlari tarmoqlanmagan, detsidual hujayralari yo‘q yoki kam miqdorda. Ikkinchi preparatda - epiteliysi kiprikli baland prizmatik, bezlari tarmoqlangan, detsidual hujayralari ko‘p. Bu preparatlarda ovarial-menstrual siklning qaysi davrlari berilgan.

Javob: birinchi preparat - menstruatsiyadan keyingi davr, ikkinchi preparat - menstruatsiyadan oldingi davr.

979. Homilador bo‘lmagan ayolning qon taxlilida progesteronning me'yoriy yuqori chegarada ekanligi, estrogenning me'yoriy pastki chegarada ekanligi aniqlangan. Qon taxlili menstrual siklning qaysi davrida olingan?

Javob: Menstruatsiyadan oldingi davrida.

980. Menstrual siklning 8-kunida olingan endometrial biopsiyaning gistologik taxlilida endometriy devorining epilelotsitlari kubsimon shaklda ekanligi, xilpillovchi hujayralar va mitoz bo‘linish davridagi

hujayralar kam uchrashi aniqlangan. Endometriyning tuzilishi fiziologik xolatga mosmi? Qaysi gormon yetishmasligi sabab?

Javob: Mos emas, estrogen yetishmovchiligi.

981. Sariq tana hujayralarida degeneratsiya alomatlari: autofagosomalarning shakllanishi, yadro piknozi, lipidlarining to'planishi kuzatilgan. Bu holat sariq tana rivojlanishining qaysi davriga xos?

Javob: Aks taraqqiyot davriga.

982. Yangi tug'ilgan qiz chaqalog'ining jinsiy a'zolaridan qonli ajralmalar kelganini ko'rgan ayol xavotir bilan shifokorga murojat qilgan. Qizning holati va bu hodisaning sababi haqida sizning fikringiz qanday?

Javob: Ba'zi yangi tug'ilgan qiz chaqaloqlarda ona gormonlari ta'sirida endometriyning kengayishi va qon tomirlarining to'lishi natijasida jinsiy a'zolaridan qonli ajralmalar kelishi fiziologik holat hisoblanadi.

983. Vafot etgan qizning tuxumdonida to'liq yetilmagan o'sish davridagi follikulalar aniqlangan. Sizningcha marxumaning yoshi nechada bo'lgan?

Javob: 12-13 yoshda.

984. Biopsiya jarayonida bachadonning shakli qo'ziqorinni eslatadi: (yirik oyog'i - bachadon bo'yni, kichik qalpog'i - tanasi), shilliq qavatida burmalari borligi va bez apparati (kriptalari) yo'qligi aniqlangan. Sizning fikringizcha qizning yoshi nechada?

Javob: Bachadonning morfo-funksional tuzilishi yangi tug'ilgan chaqaloqnikiga mos.

985. Sariq tananing gullash davrida endometriyning morfofunksional holatini tasvirlab bering.

Javob: Sariq tananing gullash davri bachadonning sekretsia bosqichiga to'g'ri keladi.

986. Sariq tananing aks taraqqiyot yoki involyutsiya davrida endometriyning morfofunksional holatini tasvirlab bering.

Javob: Menstrual siklining deskvamatsiya davriga to'g'ri keladi.

987. Tuxumdonda yetuk follikulalarni uchratsak endometriyning morfofunksional holati qaysi bosqichda bo'ladi.

Javob: Proliferatsiya davri

988. Tajribada odamsimon maymunning tuxumdonidan sariq tana parchalandi. Bachadonda qanday buzilishlarni kuzatish mumkin?

Javob: Bachadonda menstruatsiyadan oldingi davr kuzatilmaydi.

989. Gipofizdan FSG gormonining ajralishi buzilgan. Tuxumdonda qanday o'zgarishlar yuzaga keladi?

Javob: O'suvchi follikulalar katta o'sish fazasiga o'tmaydi, estrogenlarning sekretsiyasi oshishi kuzatilmaydi

990. Ayol qonida androgenlarning oshganligi aniqlandi. Ayol organizmidagi qaysi tuzilmalar bu gormonning oshishi uchun javobgar?

Javob: Ichki qavat tekotsitlari.

991. Tuxumdonning po'stloq moddasining kesmasida markazida biriktiruvchi to'qimali chandiq bo'lgan, shakli yirik ovalsimon hosilalari ko'ringan. Bu tuzilmalar nima deb ataladi va nimadan hosil bo'ladi?

Javob: Oq tana, Sariq tanadan hosil bo'ladi.

992. Ayol qoning taxlilida progesteronning miqdori me'yorning pastki chegarasiga yaqin, estrogenning miqdori esa me'yorning yuqori chegarasiga yaqinlashgan. Qon taxlili menstrual siklning qaysi davrida olingan?

Javob: Menstruatsiyadan keyingi davr.

993. Ayol qoning taxlilida progesteron va estrpogenning miqdori me'yorning pastki chegarasiga yaqinlashgan. Qon taxlili menstrual siklning qaysi davrida olingan?

Javob: Deskvamatsiya (menstruatsiya) davrida.

994. Tuxumdonning gistologik preparatida sariq tananing gullash yoki ravnaq topish davrida ekanligi aniqlandi. Bu holat qanday dasrlarda kuzatiladi?  
Javob: Homiladorlik yoki menstruatsiyadan oldingi davrda kuzatiladi
995. Gipofiz funksiyasining keskin susayishi natijasida jonivorga FSG yuborilgan. Bu holat tuxumdon tuzilishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?  
Javob: Follikulalar o'sishi kuzatiladi.
996. Ayolda laporoskopik tekshiruv natijasida tuxumdonda yuzasi tezlik bilan qalinlashayotgan yirik yetuk follikula aniqlandi. Ushbu holat menstrual siklning qaysi kunida kuzatiladi?  
Javob: Siklning 11-14 kunida.
997. Bachadon endometriysining xususiy plastinkasida ko'pgina kam differensiallashgan hujayralar topilgan. Ushbu holat menstrual siklning qaysi kunida kuzatiladi?  
Javob: Erta menstruatsiyadan keyingi davrda
998. Ayol bachadonida tomirlarning bo'shashishi, chuqur atrofik o'zgarishlar aniqlangan. Ushbu patologik o'zgarishlar sababi nimada?  
Javob: Qarilik o'zgarishlari. Klimaks.
999. To'lg'oq paytidagi ayol miometriysining sust qisqarishi natijasida tug'ish imkoniyati pasaygan. Unga qaysi gormonlar ta'sirida yordam berish mumkin?  
Javob: Oksitotsin yuborish orqali.
1000. Qindan olingan surtmada hayz siklining menstruatsiya oldi davrida bazal qavat hujayralarida juda kam miqdorda muguzlanish alomatleri kuzatilgan. Bu holat ushbu davrning fiziologik tuzilishiga mos keladimi? Mos kelmasa, qaysi gormonning yetishmovchiligi sabab?  
Javob: Mos emas, progesteron yetishmovchiligi sabab.